

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANAGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 17-5A120301-01**

MIRZAXALOV SARDORBEEK JAMOLIDDINOVICH

**TURKISTONDA IJTIMOIIY-MADANIY HAYOT: MUAMMO VA
YECHIMLAR**

(XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragi)

5A120301 – O'zbekiston tarixi

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
t.f.d., prof. A. N. Rasulov**

Namangan – 2017

MUNDARIJA:

| | |
|---|------------|
| KIRISH | 3 |
| I BOB. TURKISTON – ROSSIYA PODSHOLIGI MUSTAMLAKASI | 11 |
| 1.1. Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi | 11 |
| 1.2. Turkistonda Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimining o‘rnatilish..... | 21 |
| 1.3. Turkistonda ijtimoiy ahvol..... | 32 |
| I bob bo‘yicha xulosa..... | 41 |
| II BOB. TURKISTON ASSRDA IJTIMOIIY-MADANIY AHVOL | 43 |
| 2.1. Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi: ijtimoiy ahvol..... | 43 |
| 2.2. Sovet hokimiyati madani-ma‘rifiy islohotlar..... | 55 |
| II bob bo‘yicha xulosa..... | 67 |
| III BOB. TURKISTONDA IJTIMOIIY-MADANIY HAYOT | 68 |
| 3.1. Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi..... | 68 |
| 3.2. Rossiya imperiyasi ta'lim tizimi..... | 77 |
| 3.3. Turkistondagi ijtimoiy-madaniy hayotga jadidlarning ta'siri..... | 85 |
| III bob bo‘yicha xulosa..... | 96 |
| XULOSA | 98 |
| FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI | 102 |

KIRISH

Dissertatsiya mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan boshlab jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar ko'zga tashlana boshladi. Milliy tarix masalalarini ilmiy o'rganish sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi, shuningdek, uning turli varaqlarini partiyaviy bosim va mafkuraviy qoliplarsiz ob'yektiv o'rganish uchun imkoniyatlar ochildi. Tarix fani oldiga muhim vazifalar – o'zbek xalqining tarixiy xotirasini tiklash, haqqoniy tarixini yaratish vazifasi qo'yildi.

Bu yo'nalishda o'zbek xalqi davlatchiligi tarixini o'rganish, uni xolisona tahlil etish muhim omillardan biri hisoblanadi. Xalqimizning qadim tarixiga xolis va haqqoniy baho berish tarixchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Zero, Birinchi Prezidentimizning «Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur»¹,– degan fikrlari tarixchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ushbu vazifa davlat boshlig'ining 1998- yil 26- iyunda bir guruh tarixchi va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvi va mazkur uchrashuv natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1998- yil 27- iyulda «O'zR FA Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»² Qaroridan so'ng ancha faollashdi. Shuningdek, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va izzatlarini bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi³.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mustaqillik xalqimizga o'zligini qaytarib berdi. Buning natijasi o'laroq, hukumatimiz tomonidan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy, xususan, ilm-fan sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Jumladan, joriy yilning boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan «2017–2021- yillarda O'zbekiston

¹ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 13.

² ЎзР ФА Тарих институтининг фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида // Халқ сўзи. 1998, 29 июль.

³ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 97.

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi»⁴ning to'rtinchi yo'nalishida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish vazifalarining belgilanishi fikrimizning yaqqol misolidir.

Davlatchilik tarixini o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan, milliy g'oya tushunchasiga ham bevosita aloqador bo'lib, ming yillar davomida milliy davlatchilikning mustaqil paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishini ifoda etadi.

Tadqiqotchilar tomonidan keng hajmdagi ishlarning amalga oshirilganiga qaramasdan shuni ta'kidlash joizki, o'zbek davlatchiligining evolyutsiyasi tarix sahnasida muayyan davlat tuzilmalarining paydo bo'lib ikkinchisiga almashishi bilan taraqqiyot va tanazzul bosqichlarini o'z ichiga olgan o'nlab asrlarga cho'zilgan ko'p qirrali jarayondir. Aynan shuning uchun bu masalani hal etish u yoki bu tarixiy bosqichda davlatchilik institutlarining har birini holatini kompleks o'rganish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bu masalada davlatchilik tarixining muhim davrlaridan biri bo'lmish milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi, ma'muriy-boshqaruv tizimi va uning holatini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston tarixchilari bir qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Biroq, uch ming yillik tarixga ega o'zbek davlatchiligi tarixini tiklash, uning turli bosqichlari, yuksalishi va inqirozini o'rganish muammoni yanada chuqurroq tadqiq etish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Turkiston o'lkasini Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi, mustamlaka tizimini shakllantirilishi o'lka xalqlari uchun tamomila yangicha davlatning ichki munosabatlarini belgilovchi omillardan biri bo'ldi. Chunki, uning samaradorligi Rossiya imperiyasining faoliyati hamda uning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatar edi. Ma'muriy-boshqaruv tizimning normal faoliyati davlat tomonidan boshqaruv, soliq yig'ish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, ommaviy ishlarni tashkillashtirish, harbiy majburiyat va

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси» ПФ–4947- сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1–2.

shunga o'xshash vazifa va burchlarni o'z vaqtida bajarilishi ta'minlagan. Aynan shuning uchun bu aspektni holatini o'rganish biz uchun u yoki bu bosqichda davlatchilik darajasiga umumiy baholash imkoniyatini beradi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot o'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etgan davr – XIX asr oxiri XX asr birinchi choragini qamrab oladi. Bunday davrning tanlab olinishi tadqiq etilayotgan muammoning hech qanday mafkuraviy tazyiqsiz kam o'rganilganligi va shuningdek ma'muriy-boshqaruv tizimining butun evolyutsiya jarayonini ko'rib chiqish zaruriyati bilan bog'liq.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkistonda ijtimoiy-madaniy ahvolni o'rganish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot ob'yekti va predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida Turkistonda ijtimoiy-madaniy ahvolni ochib berishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish o'z navbatida quyidagi vazifalarni belgilab beradi:

- Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishini yoritish;
- Turkistonda Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimining o'rnatilishini tadqiq etish;
- Turkistonda 1917- yilgi ijtimoiy-siyosiy holatni o'rganish;
- Sovet hokimiyatining o'rnatilishini yoritish;
- Sovet hokimiyati boshqaruv tizimini tahlil qilish;
- Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi to'g'risida ma'lumot berish;
- Rossiya imperiyasi ta'lim tizimini o'rganish;
- Turkistondagi ijtimoiy-madaniy hayotga jadidlarning ta'sirini tadqiq etish;
- tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishida bir tomonlama talqinlardan voz kechgan holda, birlamchi yangi materiallar asosida XIX asr ikkinchi yarmi –

XX asr birinchi choragida Turkiston o'lkasida ijtimoiy-madaniy hayot masalasi o'rganildi.

- Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi ko'rsatib berildi;
- Turkistonda Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimining o'rnatilishi tadqiq etildi;
- Turkistonda 1917- yilgi ijtimoiy-siyosiy holatni o'rganildi;
- Sovet hokimiyatining o'rnatilishini yoritildi;
- Sovet hokimiyati boshqaruv tizimini tahlil qilindi;
- Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi to'g'risida ma'lumot berildi;
- Rossiya imperiyasi ta'lim tizimini o'rganildi;
- Turkistondagi ijtimoiy-madaniy hayotga jadidlarning ta'siri tadqiq etildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, o'lkada Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimining o'rnatilishi, 1917- yilgi ijtimoiy-siyosiy holat, sovet hokimiyatining o'rnatilishi va sovetcha boshqaruv tizimi, an'anaviy, Rossiya imperiyasi ta'lim tizimi, jadidlarning ijtimoiy-madaniy ahvolga ta'sirini yoritish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot oldiga qo'ygan asosiy masala va farazlari hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Tarixiy adabiyotlarning kompleks tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiq etilayotgan mavzu bir necha bor ilmiy o'rganish obyekti bo'lib kelgan. U asosan mafkuraviy tazyiq ostida bolshevikcha yondashuv bilan birgalikda ko'rilgan. Metodologik yondashuvlarning xarakteriga o'lkada Sovet boshqaruv tuzumini o'rnatilishi u yoki bu darajada yorituvchi ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Sovet davri adabiyotlari.
2. Mustaqillik davrida nashr etilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarga kiruvchi adabiyotlarda ayrim holatlar va ular asoslangan tarixiy materiallar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan⁵. Biroq, tadqiqotchining tanqidiy yondashishini talab etadi

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, ilmiy anglash xususiyati va metodologiyasida sezilarli o'zgarishlar yuzaga keldi⁶. Yuqorida ta'kidlanganidek bu davrda asosiy e'tibor yangi metodologik yondashuvlar asosida va keng manbaviy materiallarni jalb etish orqali mahalliy davlatchilik masalalarini yoritishga qaratildi. Shuningdek yuqorida ko'rsatilgan masalalarni yoritish

⁵ Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш тарихидан. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961; Воскобойников Э., Зевелев А Турккомиссия ВЦИК и Совнаркома РСФСР и Туркбюро ЦК РКП (б) в борьбе за укрепление советской власти в Туркестане. – Т.: «Государственной издательство Уз ССР», 1951; Думенко М.Ф. Русско-туземные школы Туркестана. – Т., 1957; Исмаилов Ш. Народное образование в Узбекистане в конце XIX – начале XX века: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 1981; История СССР. – М.: «Наука», 1967. т. 7; История Советской Конституции // Сборник документов. 1917 – 1957 гг. – М., 1957; Ким П.Г. Уйдирма ва ҳақиқат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1989 йил 29 октябрь; Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865-1917 гг.). – Ташкент: Гос. Изд-во Уз ССР, 1966; Кумысников Х.Л. Истоки сценического реализма. Очерк из истории дооктябрьского татарского театра. – Казань: Тат.кн.изд-во, 1982; Муминов И.М. Избранные произведения в 4-х томах. – Ташкент, 1976. Т.2; Назаров М. Х. Коммунистическая партия Туркестана во главе защиты завоеваний Октябрьской революции. – Т., 1969; Рахронов М. Х. Х. Ниёзий ва ўзбек Совет театри. – Т.: Уздавнашр, 1959; Турсунов Х. Т. Национальная политика Коммунистической партии в Туркестане. – Т., 1971; Ульмасов А. Национализация промышленности в Советском Туркестане. – Т.:Изд. АН УзССР, 1960; Фомченко А. П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (Социально-экономический аспект). – Т., 1983; Хамдамов Х. Хива хонлигининг афдарилиши ва Хоразм Халқ Совет Республикасининг тузилиши. – Т., 1960; Хрестоматия по истории школы и педагогики в России (до Великой Октябрьской социалистической революции). Составитель и автор ввонных очерков С. Ф. Егоров. Изд. второе переработанное. – Москва, «Просвещение», 1986; Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи жилд. – Т.: Фан, 1971; Ўрта Осиё коммунистик ташкилотларининг тарихи. – Тошкент, «Ўзбекистон», 1969.

⁶ Абдурахимова Н., Иргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002; Абдурахимова Н. А. Ўзбекистон Россия империяси таркибида. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарқ, 2001; Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: миллий демократик давлатчилиги куриш тажрибаси. – Т.: Маънавият, 2000; Бобобеков Х. Кўкон тарих. – Т.: «Фан», 1996; Долимов У. Исхоқхон Ибрат. – Т.: Шарқ, 1994; Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998; Ибрат. Фарғона тарихи. – Т.: Камалак, 1991; Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. – Т.: Фан ва технология, 2004; Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867 – 1917). – Ташкент: Фан, 1997; Ражабов Қ., Ҳайдаров М., Туркистон тарихи (1917 – 1924 й.). – Т., 2002; Ризаев Ш.Т. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари. Филология фан. номз. ... дисс. – Т., 1995; Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997; Ризаев Ш.Саҳна маънавияти. -Т.: Маънавият, 2000; Саидахмедов И. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т.: Фан, 2006; Салижанова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX – начало XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1998; Тарих шохидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Т.: «Шарқ», 2001; Тиллабоев С. Б. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Тошкент: Фан, 2008; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т.: Шарқ, 2000; Шамсутдинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи. – Андижон: Мерос, 1994; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1- китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000; Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т., 2002; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012; Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI – XX asr boshlari). K.2. – Т.: «Sharq», 2010.

jarayonida bu davrning ayrim tadqiqotchilari evolyutsiya va o'zbek davlatchiligi xususiyatlaridan kelib chiqqanlar.

Ushbu mavzuga oid asarlar tahlili uning kam o'rganilgan muammolarni aniqlab, ularni yoritishga yangicha yondashuv lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur magistrlik dissertasiyasidan kasb-hunar kollejlari va akademik liseylarda «O'zbekiston tarixi» fanidan hamda oliy o'quv yurtlari Tarix yo'nalishi talabalari uchun «O'zbekiston tarixi» fanidan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqot ishiga oid manbalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. XIX asrda O'rta Osiyo muarrirlari tomonidan yozilgan asarlar.
2. XIX asr oxiri – XX asrlar birinchi choragida O'rta Osiyo davlatlarida bo'lgan yevropalik hamda rossiyalik elchi, sayyoh, savdogar, olim va boshqa shaxslarning xotiralari, rasmiy xabarlari va tarixiy asarlari.

Birinchi guruh manbalariga – XIX ikkinchi choragi – XX asr boshlarida O'rta Osiyo muarrirlari tomonidan yozilgan asarlar hisoblanadi. Xususan, Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotini Mang'it'iya»⁷, Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy»⁸, Muhammad Hakimxon To'ra «Muntaxab at-tavorix»⁹, Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin»¹⁰, Muhammad Solih Toshkandiyning «Tarixi jadidayi Toshkand»¹¹, Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli amirlashkar»¹², Avaz Muhammad

⁷ Mirzo Abdulazim Somiy. Tarixi salotini Mang'it'iya. – M.: IBJL, 1962.

⁸ Баёний Муҳаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшоҳий // Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991.

⁹ Муҳаммад Ҳақимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 717 б.

¹⁰ Мирзо Олим Мушриф. Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавоқин / Нашрга тайёрловчилар А. Матғозиев, М. Усмонова. – Т., 1995. – 128 б.

¹¹ Муҳаммад Солиҳ Тошкандий. Тарихи жадидаи Тошканд. ЎзФАШИ, 11072- рақамли қўлёзма.

¹² Муҳаммад Юнус Тойиб. Тарихи Алимқули амирлашкар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 1. – Б. 214 – 223; Osha muallif. Тарихи Алимқули амирлашкар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 2. – Б. 208 – 223.

Attorning «Tarixi jahonnamoyi»¹³, Muhammad Aziz Marg'iloniyning «Tarixi Aziziy», Ishoqxon Ibratning «Tarixi Farg'ona»¹⁴ kabi asarlarini kiritish mumkin. Ularda asosan Qo`qon xonligining XVIII – XIX asrlardagi tarixi, jumladan, Umarxon hukmronlik davri haqida ham qimmatlai ma'lumotlar mavjud.

O`rta Osiyo xonliklari haqida ma'lumot beruvchi ikkinchi guruh manbalari tarkibiga XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr 50- yillariga qadar O`rta Osiyo xonliklariga savdo-tijorat ishi yoki o`z hukumatining alohida topshirig'i asosida tashrif buyurgan elchilar, rasmiy shaxslar, shuningdek, sayyohlar, olim va harbiy asirlarning O`rta Osiyo davlatlari haqidagi esdaliklari, rasmiy xabarlar, ilmiy asarlarini kiritish mumkin. Ular orasida V. P. Vejevskiy, L. I. Neplyuev, M. N. Virskiy, V. L. Vyatkin, N. S. Kolchanov, A. Middendorf, I. Nazarevskiy, V. P. Nalivkin, Mir Izzat Ulla, F. Nazarov, E. K. Meyendorf, Xorunjiy Potanin, P. I. Demezov, I. V. Vitkevich, V. V. Vel'yaminov-Zernovlarning asarlari va esdaliklarini alohida qayd etish lozim¹⁵. Ularda asosan xonliklarning XIX asrlardagi tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Magistrlik dissertasiyasini yoritish jarayonida O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o`rganish,

¹³ Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамойи /Форс-тожик тилидан Ш.Воҳидов таржимаси // Шарк юлдузи. – Тошкент, 1991. – № 8. – Б. 119 – 137.

¹⁴ Исоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона / Нашрга тайёловчилар Ҳ.Бобобеков, Маҳмуд Ҳасаний, Мерос туркуми. – Т., 1991. – Б. 268 – 327.

¹⁵ Вежевский В.Р., Нерлюев Л.И. Оренбургский край. – Казань, 1897, 1 т; Вирский М.Н. О Дюрткульской волости Самаркандского уезда // «Справочной книжке Самаркандской области». Вып. III. – Самарканд, 1895; Вяткин В.Л. О долине Зеравшана. // «Самарканд», 1904. – № 113; Колчанов Н.С. О верховьях Зеравшана // «Сборнике материалов для статистики Самаркандской области за 1887-1888 гг.». Вып. 1. – Самарканд, 1890; Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882; Назаревский И. Исторический очерк законодательства по начальному образованию в России. Журнал Министерства народного просвещения. Седьмое десятилетие. Часть CCCLVIII. Март 1905. – СПб., 1905. – С. 224 – 225; Наливкин В.П. «Сведения о состоянии туземных мадраса Сыр-Дарьинской области в 1890/91 учебный год». – Ташкент, 1916; Путешествие Мир Иззат Уллы в Кокандское ханство в 1812 году. Пер. и примеч. Ю.А.Соколова // Труды САГУ. История Средней Азии и Узбекистана. Новая серия. Вып. LVXXVIII. Кн. II. 1956. – С. 41 – 52; Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – 98 с.; Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975. – 180 с.; Потанин Н. И. Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина (1830) // ИРГО. Том V. Часть XVIII. – СПб., 1856. – С. 254 – 289; Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). – М.: Наука, 1983. – 149 с.; Борнс А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря до Лагоря и отчёт о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию. В 3-томах. – М., 1848 – 1849. – 628 с.; Вельяминов-Зернов В. В. Исторические известия о Кокандском ханстве, от Мухаммад-Али до Худоярхана. – СПб., 1856. – С. 329 – 370; O`sha muallif. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник ИРГО. Кн. V. Часть XVIII. – СПб., 1856. – С. 107 – 152; O`sha muallif. Торговое значение Кокандского ханства для русских // ИРГО. – СПб., 1854. – 87 с.

xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e`tibor qaratishga oid g'oyalari nazariy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e`tibor qaratildi.

Tadqiqotning metadalogik asosini ishlab chiqishda O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari, maruza va nutqlarida ilgari surilgan uslubiy, ilmiy nazariy ko`rsatmalari muhim ro`l o`ynadi.

Tadqiqot tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertasiyasi ishi kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalardan iborat. Magistrlik dissertasiyasi hajmi 108 betni tashkil qiladi.

I BOB. TURKISTONDA IJTIMOIIY-SIYOSIY AHVOL

1.1. Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi

Rossiya hukmron doiralarning Turkiston yerlariga g'arazli maqsadlarda ko'z olaytirishlari XVI asrdan, Turkistonni Rossiyaga qaram qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri amaliy ochiq harakatlar esa Pyotr I davridan boshlangan. Pyotr I o'zining Sharqqa nisbatan tajovuzkorlik siyosatini, O'rta Osiyo va Hindiston yerlariga suqlanib qarayotganligini yashirib ham o'tirmaydi. «Sharq bilan aloqada Qozog'iston tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun millionlab mablag' sarflasa ham Qozog'istonni bo'ysundirish yoki hech bo'lmasa u yerda Rossiya ta'sirini o'rnatish zarurdir»¹⁶, – deydi Pyotr I.

Rossiya imperiyasi hukumati XIX asrning o'rtalaridan boshlab o'zbek xonliklarining yerlarini bosib olishga astoydil kirishadi. Buning asosiy sabablari quyidagicha:

Birinchidan, o'zbek xonliklari o'zaro mol-dunyo, davlat va yer talashib birlarining tinka-madorlarini shu darajada quritgan edilarki, ular tashqi dushmanga qarshi birlashib kurashish u yoqda tursin, hatto o'zlarini biror bir darajada himoya qilishga ham qodir emas edilar. Bu hol chor ma'murlariga juda qo'l kelar edi.

Ikkinchidan, Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli shuni talab qilar ediki, rivojlanayotgan rus kapitalistlari uchun yangi-yangi bozorlar, foyda manbalari kerak edi. Rossiya sanoat korxonalariga esa tabiiy yer osti boyliklari, xom ashyo bazalari; paxta, ipak, qorako'l teri va boshqalar zarur edi. 1861–1862- yillardagi fuqarolar urushi tufayli Amerikadan keladigan paxtaning kamayib ketishi o'zbek paxtasiga bo'lgan talabni haddan tashqari oshirib yubordi.

Uchinchidan, O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus munosabatlarining keskinlashib borishi Rossiya bosqinining tezlashishiga sabab bo'ldi. Rossiya hukmronlik doiralari XIX asrning boshidanoq ingliz josuslarining o'zbek xonliklaridagi xatti-harakatlarini ziyraklik va shubha bilan kuzatib bordilar.

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi podsho Aleksandr II hukmronligi davrida nihoyatda tezlashgan. Rossiya imperiyasining Turkistonni

¹⁶ Вежевский В.Р., Нерлюев Л.И. Оренбургский край. – Казань, 1897. 1 т. – С. 136.

bosib olishi to‘rt bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich 1847- yildan boshlanib 1865- yilga qadar davom etadi. Bu bosqichda Qo‘qon xonligiga qarashli hududlar bosib olinadi. Ikkinchi bosqich 1865- yildan boshlanib 1868- yilga qadar davom etadi. Bu davrda Toshkent va Buxoro amirligi hududlari bosib olinadi. Uchinchi bosqich 1873–1879- yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda Xiva va Qo‘qon xonligi hududlari Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan zabt etiladi. To‘rtinchi bosqich 1880–1885- yillar bu davrda hozirgi Turkmaniston yerlari bosib olinadi¹⁷.

Rossiya davlatining Turkiston yerlarini bosib olishga intilishining yangi to‘lqini 1847- yilda boshlandi. Shu yili Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyi – Raim egallanib, Orol harbiy qal’asi barpo qilinadi. Orenburgda «Nikolay» va «Konstantin» degan kemalar qurilib, ular bo‘lak-bo‘lak holga keltirilib Orol dengiziga tushiriladi. Oq masjid (Qizil O‘rda), Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Pishpek, To‘qmoq va boshqa shaharlarda Qo‘qon xonligining harbiy istehkomlari mavjud edi. 1852- yilda Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Oq masjidga hujum qiladilar, lekin uni qo‘lga kiritish olmaydilar. 1853- yilda general Perovskiy boshchiligida ikki ming askardan ortiq qo‘shin Oq masjidga ikkinchi marta hujum uyushtiradi. 22 kunlik qurshov va jangdan so‘ng chor askarlari istehkomni egallaganlar. Qal’a himoyachilaridan 74 kishi tirik qolgan xolos. Rossiya imperiyasi qo‘shinlaridan bor yo‘g‘i 25 kishi halok bo‘lgan va 46 kishi yarador qilingan. Istehkomga «Perovskiy forti» nomi berilgan. Oq masjiddagi mag‘lubiyat Qo‘qon xonligini qattiq tashvishlantirdi. Tezlik bilan Toshkentda kuch to‘planib hokim Sabdalxo‘ja boshchiligida 8 ming askarlik qo‘shin va ko‘ngillilar Oq masjidni qaytarib olish uchun yo‘lga chiqadi. Lekin ikki o‘rtadagi jangda ular yengiladilar. Vatan himoyachilaridan 192 kishi halok bo‘ladi. Qo‘qon xonligi qo‘shinlari yaradorlarni 92 tuyaga ortib orqaga chekinishga majbur bo‘ladilar.

1853- yilning dekabr oyida Yoqubbek boshchiligidagi 13 ming kishilik qo‘shin Oq masjidga kelib yana dushman bilan to‘qnashdi. Yurt himoyachilaridan bu jangda mingga yaqin kishi o‘ldirildi va yarador qilindi. Bosqinchilar faqat 55 askarlarini yo‘qotdilar. Bunday ketma-ket mag‘buliyatlar Vatan himoyachilari

¹⁷ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI – XX asr boshlari); K.2. – T.: «Sharq», 2010. – B. 155.

ruhini tushirmadi. Ular 1855- yilda yana 1500 kishilik qo‘shin bilan Oq masjidga otlandilar. Ammo Rossiya imperiyasi qo‘shinlariga yangi kuchlar kelib qo‘shilganini eshitib, orqaga qaytdilar.

1854- yilda Olmaota o‘rnida Verniy harbiy qal’asining qurilishi Turkistonni egallashda hal qiluvchi o‘rin tutgan istehkomlardan bo‘ldi.

1860- yilda polkovnik Simmerman qo‘shini Qo‘qon xonligining 5 ming kishilik qo‘shinini tor-mor keltirib, To‘qmoq va Pishpak qal’alarini egalladi. Iliorti vodiysi Alatov okrugi deb o‘zgartirildi. Xuddi shu yili 21- oktabrda polkovnik Kolpakovskiy otryadi Qora Kostek daryosi yon bag‘ridagi Uzun yog‘och soyidagi jangda Qo‘qon xonligining 20 ming qo‘shinini batamom qirib tashladi.

1861–1863- yillarda Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Qo‘qon xonligiga bir necha zarbalar berdi. Bu davrda Qo‘qon xonligiga qarashli Yangi Qo‘rg‘on, Din Qo‘rg‘on, Merka va ikkinchi marta Pishpek egallanadi. 1863- yil yozida polkovnik Chernyayev Orenburg general-gubernatori Bezakning roziligi bilan Sirdaryo yoqasidagi So‘zoq qal’asini qo‘lga kiritdi va uni tevarak-atrofdagi aholisi bilan birga «Rossiyaning mulki» deb e’lon qiladi.

1864- yil boshida Verniy (Olmaota) istehkomidan chiqqan 2500 kishilik Chernyayev boshchiligidagi Rossiya imperiyasi qo‘shinlari 4- iyunda Avliyootani egallaydi. Shahar ostonasidagi jangda vatanparvar kuchlarning 1500 kishilik qo‘shinlari va xalq qasoskorlari mag‘lubiyatga uchradilar. Himoyachilardan 307 kishi o‘ldiriladi va 390 vatanparvar yarador bo‘ladi. Polkovnik Chernyayev ushbu g‘alabadan so‘ng general-mayyor darajasiga ko‘tariladi¹⁸.

Chernyayev bilan izma-iz Perovskiy otryadidan chiqqan polkovnik Vervovkin guruhi esa Turkiston qal’asiga yurish qiladi va uni 12 kunda bosib oldi¹⁹.

1864- yil 16- iyulga qadar Rossiya imperiyasi qo‘shinlari ikki yo‘nalish bo‘yicha mustaqil harakatlarni davom ettiradi. Sibir-Yorkend tomonidan 8-G‘arbiy Sibir, 21-Sibir kazak armiyasi batareyasi, Orenburg – Xiva yo‘nalishi bo‘yicha esa

¹⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.1. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 64.

¹⁹ Qarang: Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Т.: «Sharq», 1998. – Б. 118.

4-Orenburg liniya bataloni, 1864- yildan boshlab 2-Orenburg liniya batalonining 1-vzvodi; 1865- yildan 6- va 9-Orenburg liniyalari bataloni, 4-Gʻarbiy Sibir bataloni janub tomondan oʻz harakatini davom ettirib, shahar va qishloqlarni birin-ketin egallab boradi²⁰.

Avliyoota va Turkistonning dushman tomonidan zabt etilishi butun Qoʻqon xonligini oyoqqa turgʻazdi. Toshkent shahri chorizm bosqinchilariga qarshi kurashning markaziga aylandi. Bu yerga Margʻilondan, Yusufbek, Xoʻjanddan Mirza Ahmad Qushbegi qoʻmondonligida qoʻshinlar, Andijon, Namangan, Oʻsh va boshqa joylardan harbiy qismlar keltiriladi. Toʻplangan qoʻshin va xalq qasoskorlariga Qoʻqon xonligining lashkarboshisi mulla Alimqul boshchilik qiladi. Vatanparvar kuchlar toʻplangach duo fотиha olib Chimkent tomon ravona boʻladilar.

Chimkentda bir kecha-kunduz qattiq jang boʻlib, 12 ming kishi halok boʻladi va yaralanadi. Ammo general Chernyayev boshchiligida Rossiya imperiyasi qoʻshinlari urushni davom ettira olmay Turkistonga qaytishga majbur boʻladi. Jinay degan joyda boʻlgan jangda ham vatanparvarlarning qoʻli baland keladi. Vatan himoyachilari Iqon qalʼasi uchun boʻlgan jangda ham gʻalabaga erishadilar. Alimqul boshchiligida yurt himoyachilari urushni davom ettirish maqsadida tayyorgarlik koʻrayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarxonning Qoʻqonga hujum qilganligi toʻgʻrisidagi xabar keladi. Natijada lashkarboshi Alimqul qoʻshinning katta bir qismini Chimkentda qoldirib oʻzi Qoʻqonga qaytishga majbur boʻladi. Albatta bu hol dushmanga qoʻl keladi va Chernyayev 1864- yil 21-sentabrda Chimkentni jang bilan egallaydi. Shahar mudofaachilaridan koʻp kishi qirib tashlanadi²¹.

Shu paytga qadar ikki yoʻnalishda mustaqil harakat qilib kelgan chor armiyasining ikki qoʻshini Chimkent shahrida tutashadi. Istilo qilingan yerlar hisobiga 1865- yilda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil etilib, uning tepasiga general Chernyayev qoʻyiladi.

²⁰ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI – XX asr boshlari). K.2. – T.: «Sharq», 2010. – B. 158.

²¹ Qaragʻ: Мулло Юнусжон Мунший. Амир лашкар Алимқул тарихи. Алимқул жангномаси. – Т., 1998. – Б. 50.

General Chernyayev o'zining butun vujudi va nigohini Toshkent shahrini egallashga qaratgan. Holbuki podsho Aleksandr II bu shaharni olishni man qiluvchi qat'iy buyruq bergan edi. Chernyayev 1864- yil 27- sentabrda yo'lga chiqadi. Bu davrda Toshkent mudofaasi umumxalq harakatiga aylangandi. Shahar mudofaasi uchun Toshkent garnizonida 30 ming himoyachi, 48 mis va 15 ta cho'yan to'p bor edi. Toshkent shahar aholisi ona yurtni himoya qilish uchun bir tanu bir jon bo'lib battol dushman bilan tengsiz jangda olishadi. Nihoyat, 1865- yil 17- iyunda qarshilik ko'rsatishning foydasizligini hisobga olgach shahar himoyachilari shaharni topshirish uchun muzokaralarni boshlaydi. Chunki Chernyayev Shayxontohur, Beshyog'och va boshqa aholi gavjum yashaydigan joylarga to'plarni o'rnatib, agar darhol sulh tuzilmasa shaharni to'plardan o'q uzib kultepaga aylantiraman, deb dag'dag'a qiladi. Chernyayev shaharning Hakim Xo'ja qozikalon, Abulqosim eshon, domullo Solihbek oxun singari nufuzli kishilari bilan sulh muzokaralarini boshlaydi²².

Sulh ahdomasiga ko'ra, shahar xalqining o'z dinida qolishi, barcha ishlar «shariat» asosida olib borilishi, hovli, bog' va maydonlar avvalgidek o'z egalari qo'lida qolishligi ko'rsatiladi. Ahdomaga shaharning har to'rt; Shayxontohur, Beshyog'och, Sebzor va Ko'kcha mavzelarining muhrlari bosiladi.

Toshkent shahrining Chernyayev tomonidan bosib olinishi Peterburgda zo'r mamnuniyat bilan kutib olingan bo'lsada, hukumatning ayrim odamlari bundan norozi bo'lib, tahlikaga tushgan edilar. Chunki, Toshkentning bosib olinishi munosabati bilan xalqaro matbuotda katta shov-shuvlar ko'tarilmoqda edi. Chernyayev bu holni oldini olish uchun va o'zining bosqinchilikdan iborat vahshiyona harakatlarini oqlash maqsadida ayyorlik yo'lga o'tib maxsus xat tayyorlattiradi. Toshkent shahri aholisi nomidan tayyorlatilgan bu xatda go'yo shahar general Chernyayevga «o'z ixtiyori» bilan taslim bo'lganligiga asosiy urg'u berilgan. Jumladan, Turkiyadagi rus elchixonasi qalbaki ahdomani Istanbuldagi

²² Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.1. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 84.

ko'chalarga, bozorlarga, do'konlarga, umuman aholi gavjum to'planadigan joylarga yopishtirib chiqqan²³.

1866- yil yanvar oyining oxirida Chernyayev Jizzaxga yurish boshlaydi. Ammo 8–9 ming kishilik shahar himoyachilarining ko'rsatgan qarshiligi tufayli u orqaga chekinishga majbur bo'ladi. 1866- yil mart oyida Chernyayev Peterburgga chaqirib olinib, uning o'rniga general Romanovski yuboriladi. Toshkentga yordam uchun yuborilgan Buxoro amirining 100 ming kishilik qo'shini bilan general Romanovski qo'mondonligidagi Rossiya imperiyasi qo'shinlari o'rtasida 8- mayda Erjarda bo'lgan jangda rus qo'shinlari g'alaba qozonadi. 24- mayda rus askarlari Xo'jandda ham g'alabaga erishadilar. Avgust oyida Romanovski Toshkent, Xo'jand va Chirchiqorti o'lkasini Rossiyaga qo'shib olish to'g'risida ko'rsatma beradi. Buxoro amiri bilan muzokaralarda kelisha olmagach, Romanovski 2- oktabrda Buxoro amirligiga qarashli O'ratepa qal'asini, 11–18-oktabrdagi janglar natijasida Jizzaxni bosib oladi²⁴.

Romanovski 1866- yil 19- oktabrda Harbiy vazirga yozgan telegrammasida Buxoro amirining Sirdaryo vodiysidagi so'nggi tayanchi, besh kunlik qamaldan so'ng 18- oktabr soat 12 da zarb bilan egallanganligi, jangda kamida 6 ming kishi o'ldirilganligi va 2 ming kishining asir olinganligini yozgan.

Amirlik qo'shinlari Xo'jand va Jizzaxda yengilgach, Xudoyorxon rus bosqinchi generali Romanovski tabrik telegrammasi yuborgan.

1867- yil 14- iyunda Rossiya imperiyasi hukumati bosib olgan joylarda favqulodda Turkiston general-gubernatorligi tuzilgan. Injener-general K. P. Kaufman bosh qilib tayinlangan bu gubernatorlikning markazi Toshkent bo'lib, uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari ham kirgan. K. P. Kaufman podsho Aleksandr II dan olgan «Oltin yorliq»ga ko'ra mustaqil ravishda urush e'lon qilish, sulh tuzish va ko'plab huquqlarga ega edi. Shu bois Turkiston xalqi K. P.

²³ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI – XX asr boshlari). K.2. – T.: «Sharq», 2010. – B. 162.

²⁴ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – T.: «IQTISOD–MOLIYA», 2006. – B. 223.

Kaufmanni «Yarim podsho» deb atagan. Umuman olganda unga «cheklanmagan vakolatlar berilgan»²⁵.

Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman o‘zi hukmronlik qilayotgan hududlarda rus davlati mavqeini mustahkamlash va Turkiston o‘lkasidagi qonli fojialarni niqoblash maqsadida bir guruh mahalliy sotqin tabaqa vakillarini O‘rta hukumat bilan kelishgan holda Peterburgga yuborishga qaror qiladi. Asosan rus davlatiga sodiq, rus qo‘shinlariga har tomonlama yordam bergan kishilardan tashkil topgan ushbu vakillar 1867- yil mart oyida Peterburgda eng oliy darajada izzat-ikrom bilan kutib olingan. Ularga Rossiya davlatining qudratini namoyish qilishga harakat qilingan. Turkiston vakillarini podsho Aleksandr II Turkiston aholisining rus davlati tobeligiga olinganligidan baxtiyorligini, mangu sodiqligini izhor etuvchi sohta maktubni topshirganlar. Bu maktubga Toshkent, Turkiston, Xo‘jand, Chimkent va boshqa joylarning kattalaridan 59 kishi imzo chekishga majbur bo‘lgan edilar. U bilan mustamlakachi ma’murlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi aholi go‘yo o‘z ixtiyori va istagi bilan rus davlati fuqaroligiga «o‘tgan»ligini jahonga namoyish qilishga uringan edi. Turkistonda esa qonli va qirg‘inbarot urush davom etgan. Jumladan, 1867- yil 7- iyunda rus askarlari Jizzax va Samarqand o‘rtasida joylashgan Yangiqo‘rg‘onda 25 ming kishilik Buxoro qo‘shini va xalq ko‘ngillarini tor-mor keltiradi²⁶.

1868- yil 1- mayda Samarqand ostonasidagi Cho‘ponota tepaligida bo‘lgan shiddatli va beayov jang natijasida 2- mayda Samarqand shahri taslim bo‘lgan. K. P. Kaufman Zirabuloq yaqinida Buxoro amirligi qo‘shinlarini tor-mor keltirib, tezlik bilan Samarqandga qaytgan. 8- iyunda u Samarqandni to‘plardan yoppasiga o‘qqa tutishga va shaharni batamom yoqib yuborishga buyruq beradi. 9- iyunda Samarqandda fojiali qirg‘in boshlanadi. Qirg‘in uch kun davom etadi. Yuzlab odamlar hech qanday so‘roqsiz, tergovsiz otib tashlanadi.

1868- yilning 23- iyunida amir Muzaffarning elchilari Samarqandga K. P. Kaufman huzuriga kelib, sulh tuzishga rozilik bildiradi. Sulhga ko‘ra Samarqand,

²⁵ Абдурахимова Н.А. Ўзбекистон Россия империяси таркибида // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 131.

²⁶ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI – XX asr boshlari). K.2. – Т.: «Sharq», 2010. – Б. 165.

Kattaqo‘rg‘on va Zarafshon daryosining yuqori qismi xonlikdan ajratib olinib, Rusiya tarkibiga kiritiladi. Amir tovon sifatida 500 ming so‘m tilla pul to‘lashga va xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa o‘rnatmaslikka rozilik beradi. Shuningdek Rusiya savdogarlariga xonlikning tasarrufida bemalol savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanishga hamda karvonsaroylar qurishga ijozat etiladi. Ular to‘laydigan boj miqdori buxoroliklar to‘laydigandan oshmasligi kerak edi. Xullas, shartnoma tuzilganidan so‘ng Buxoro amiri urushni rasman to‘xtatib, Rusiya davlatiga tobeligini tan oldi. Shundan so‘n amir o‘g‘li Abdumalik to‘radan xavfsirab, uni bo‘ysundirishga harakat qilgan²⁷.

1870- yil 14- avgustda Kitob shahri shiddat bilan qo‘lga olingach, Jo‘rabek va Bobobek Qashqar tomon yo‘l oladilar. Ular Mahram ostonalaridagi Qo‘qon sarbozlari tomonidan hibsga olinadi va Xudoyorxon amri bilan Kaufmanga topshiriladi. General Kaufman esa ularni o‘z xizmatiga olib rus qo‘shini zobitlari unvonini beradi.

Sulton Sodiq esa Qizilqum orqali Xiva xonligi hududiga o‘tib ketadi. Buxoro amiri Kaufman bilan tuzilgan sulh shartnomasiga ko‘ra Samarqand hamda Kattaqo‘rg‘ondan ajrabgina qolmay, o‘zining siyosiy mustaqilligidan ham mahrum bo‘ladi. Buxoro amiri rus saltanatining vassaliga aylanib, mamlakat Rossiya saltanati qaramligidagi yurtga – yarim mustamlaka ahvoliga tushib qoladi.

Rossiyaning hukmron doiralari Turkiston general-gubernatorligini o‘zining O‘rta Osiyodagi harbiy rejalarini amalga oshirish uchun tayanch markaziga aylantirib, bu safar istilo tig‘ini Xiva xonligini to‘la bo‘ysundirishga qaratdilar. Ular Pyotr I vasiyatini sira unutmagan edilar. 1717- yilgi Bekovich-Cherkasskiy qo‘shinining halokati va 1839- yilda Perovski yurishining barbod bo‘lganligi rus generallarining xotirasidan chiqmagan edi. Pyotr I ning bosqinchilik rejasini to‘la amalga oshirish uchun tayyorgarlik ishlarini poyoniga yetkazishgach, istilochilar Xiva xonligiga ko‘z tika boshlaydilar. Fon Kaufman yurish oldidan Xivani siyosiy tarafdin ham yakkalab qo‘yish choralarini ko‘radi. U Buxoro amiri va Qo‘qon xoniga tahdidli maktublar yo‘llab, ularni Xivaga yordam bermaslikka chaqiradi.

²⁷ Qarang: Мирзо Абдулазим Сомий. Тарихи салотини Манғитийа. – М., 1962. – Б. 89.

Shunga qaramay, harbiy ta'lim olgan, bosh shtab akademiyasini bitirib, boy nazariy va jangovar malaka hosil qilgan rus generallari va zobitlari ixtiyorida eng zamonaviy to'p, raketa otuvchi moslamalar, pulemyotlar bo'lsa ham, ular erksevar va ikki bor rus qo'shinlarini mag'lub qilgan Xivadan baribir hayiqishgan. Rossiya imperiyasi hukumati Knyaz Bekovich-Cherkasskiy alamini olish va podsho Pyotr I armonlarini ro'yobga chiqarish maqsadi bilan Xiva xonligiga qarshi urushga alohida tayyorgarlik ko'radi.

Rossiya imperiyasi hukumati Xivaga qarshi yurish uchun turli xildagi ig'vogarlik va bahonalarni izlaydi. 1872- yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi pobshe noiblari ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilinadi. Generallar rejasiga ko'ra Turkiston general-gubernatorligiga qarashli kuchlar sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibligi ixtiyoridagi harbiy kuchlar esa g'arbdan va shimoliy g'arbdan Xiva ustiga yurishlari kerak edi. Rossiyaning tajovuzkorona niyati Xiva xoni va uning oliy mansabdorlariga sir emas edi. Sayid Muhammad Rahimxon II (1864–1910) 1872- yilda Hindiston vitse qiroli huzuriga elchi jo'natib ruslar tahdidiga qarshi Angliyadan madad so'ragan edi. Xonning elchisi Aminboy Muhammad o'g'li Kalkutta shahrida Lord Norsbruk bilan muzokaralar olib boradi. Ammo Angliya Xivaga yordam ko'rsata olmaydi, u Rossiya bilan aloqani buzishni xohlamagan²⁸.

Fon Kaufman 1873- yil bahorda 12 mingdan ortiq zobit va askar, 56 ta to'p-zambaraklar bilan Xiva xonligiga yurish boshlagan²⁹.

Xiva endi o'z kuchi va imkoniyatiga qarab ish ko'rishi lozim edi. Xonlikning qo'shinida hammasi bo'lib 27 eski zambarak, 2 ming otliq askar, 4 ming navkardan iborat qo'shin, ular ham asosan poytaxtda jamlangan edi³⁰.

²⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.1. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 139.

²⁹ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – Т.: «IQTISOD–MOLIYA», 2006. – Б. 225.

³⁰ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.1. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 139.

Xiva xoni masalani tinch yo‘l bilan hal qilishga urinishlari behuda ketgach, harbiy kengash chaqirib, mudofaa rejalarini tuzadi va dushman istilochilarga qarshi o‘zining lashkarboshilarini safarbar qiladi.

1873- yil 29- may oyida Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Xiva ostonalariga yetib keladi. Rossiya qo‘shini hujumini qaytarishga uringan Muhammad Rahimxon II qo‘shinlari yengiladi. Muhammad Rahimxon II bosqinchilarga asir tushishni sharmandali bir hol deb bilib, o‘ziga sodiq bir to‘p yigitlari bilan yovmut turkmanlari yashaydigan tomon Badirkentga – Ismomut ota qabrisoniga chekinadi. Muhammad Yusufbek Bayoniyning ma’lumotiga ko‘ra bu davrda xonning inilari Amir va Otaxon to‘ra Muhammad Rahimxon II yonida turib umumiy dushmanga qarshi xalqni birlashtirib jang qilish o‘rniga taxt talashmoq bilan ovora edilar. Xonning qochganligidan foydalanib inilari Amir va Otaxon to‘ra sotqin mahramlar bilan til biriktirib Kaufman huzuriga non-tuz ko‘tarib boradilar. Rus generali mag‘lublarni juda iliq qabul qiladi-yu, biroq ularni Xiva xoni qiyofasida ko‘rmaydi. General Kaufman xonning o‘zini kelishini talab qiladi. Muhammad Rahimxon general Kaufmanga chopar yo‘llab, taslim bo‘lganini bildirgach, harbiy harakatlar to‘xtatiladi. 1873- yil 12- avgustda Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan general Kaufman o‘rtasida Gandimiyonda sharmandali o‘zaro sulh bitimi imzolanadi. 18 moddadan iborat bu bitim imzolanishi tufayli Xiva xonligi o‘zining siyosiy mustaqilligini yo‘qotadi³¹.

Bu davrda Qo‘qon xonligi o‘z boshidan og‘ir vaziyatni kechirayotgan edi. Bu davlatga shimoldan Rossiya, janubdan Xitoyning hujumi xavf tug‘dirayotgan edi. 1865- yili Sharqiy Turkistonda xitoyliklarga qarshi yangi milliy isyon boshlangan edi. Qo‘qon xonligida bu isyonga xayrixohlik bildiriladi. Yoqubbek boshchiligida harbiy qo‘shin Sharqiy Turkistonliklarga yordamga keladi va xitoyliklar bu mintaqadan quvib chiqariladi. Mustaqil Sharqiy Turkiston davlati vujudga keldi. Bu davlat Qo‘qon xonligi va Turkiya davlatlari bilan yaqin aloqa o‘rnatishga harakat qiladi. Ammo Yoqubbek tashkil etgan mustaqil Sharqiy Turkiston davlati Xitoy tomonidan 1875- yili bosib olinadi.

³¹ Абу Тахирхожа ва бошқ. Шажараи Хоразмшоҳий / Баёний. – Т.: Камалак, 1991. – Б. 231.

Ayni shu vaqtda chor istilochilari Qo‘qon xonligini tugatishga kirishadilar. Ular Turkiston, Chimkent, Toshkent va boshqa joylarni bosib olib Qo‘qon xonligiga qattiq zarba bergan edilar. Qo‘qon xoni Xudoyorxon qo‘rqoq va tadbirsiz bo‘lganligi uchun Vatan himoyasi yo‘lida biron arzigulik ish qilmaydi. Aksincha, Rossiya imperiyasi hukumati panohida o‘z taxtida o‘tirishni o‘ylardi, xolos³². U 1868- yili chorizm bilan sulh tuzadi va amalda Rossiyaga qaram bo‘lib qoladi, uning itoatkorligini taqdirlagan Rossiya imperiyasi hukumati Xudoyorxonni Rossiya davlati ordeni bilan mukofotlaydi va unga «Aslzoda» degan faxriy unvon beriladi.

Yurtni sotganligi uchun Xudoyorxon va yaqinlariga qarshi g‘azovat e‘lon qilinadi. Xudoyorxon 1875- yil 2- iyul kuni o‘z oilasi bilan Toshkentga, rus elchixonasi panohiga qochib boradi. Tarixchi olim X. Bobobekovning yozishicha 1875- yil yozida, Qo‘qon xoni Xudoyorxon 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari, 40 arava xazina bilan Toshkentga Turkiston general gubernatori fon Kaufman huzuriga panoh tortib kelgan³³. Kaufman 40 arava xalq boyligini olib Xudoyorxonning o‘zini Orenburgga surgun qilgan. Keyinchalik xon Orenburg tutqinligidan qochgan.

Shunday qilib O‘rta Osiyodagi Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘z mustaqilliklarini qo‘ldan boy berib, o‘zi mustaqil harakat qila olmaydigan, Rossiya imperiyasi tarkibidagi qaram bir davlatga aylangan bo‘lsa, Qo‘qon zodagonlari esa mamlakatning erkini berib, faqat o‘z jonlarini saqlab qolganlar, xolos.

1.2. Turkistonda Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimining o‘rnatilishi

Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olgach, jahonning eng yirik mustamlakachi davlatiga aylangan. Yevropa va Osiyoning bir qismini o‘z ichiga olgan bu imperiya boshqa mustamlakachi davlatlardan farqli ravishda o‘ziga xos mustamlakachilik tizimini yuzaga keltirgan. Bunday zo‘ravonlik va zulmga

³² Qarang: Bobobekov X. Kўkon tarixi. – T.: «Fan», 1996. – B. 70.

³³ Bobobekov X. Kўkon hazinasini kaerda? // «Xalq sўzi», 1991 йил, 20 fevral.

asoslangan mustamlakachilik tizimi Turkistonda keng ko‘lamda amalga oshirilgan. Bu siyosat mahalliy halqlarga mutlaqo ishonmaslik, ularni nazarga ilmaslik kabi o‘ta millatchilik ruhidagi siyosat asosiga qurilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi O‘rta Osiyo xalqlari taqdirida keskin va fojiali burilish yasalgan davr bo‘lgan. Rossiya imperiyasining XIX asr 60–80- yillaridagi harbiy yurishlari natijasida ular avval boshdan «chet o‘lka» yo‘nalishida va Rossiyaga bog‘liq holda yuzaga kelgan, rivojlangan yangi huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimiga kiritilgan. Zo‘ravonlik yo‘li bilan joriy qilingan bu munosabatlar o‘lkada an‘anaviy qaror topgan munosabatlarni va ularning milliy asosda rivojlanish imkoniyatlarini qo‘porib tashlagan³⁴.

Rossiya hukumatining Turkiston o‘lkasi uchun 1865–1916- yillar oralig‘ida ishlab chiqqan hamda amalga tadbiiq etilgan o‘nta qonun loyihalari (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916- yillar)da va ularning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o‘zgarishlarda ana shu holat o‘z aksini topgan. Bu qonunning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o‘zgarishlarda Turkistonni boshqaruvidagi harbiy-mirshablik ruhi aniq o‘z ifodasini topgan. Yuqoridagilarni isboti sifatida Rus zodagonlaridan biri A. B. Vrevskiy «Turkiston xalqlari o‘zlarini boshqaruvchi va sud qiluvchi yagona hokimiyatga o‘rgangan», deb o‘lkada qattiqo‘l mustabid idora zarurligiga ishora qiladi³⁵.

Toshkent shahri bosib olinganidan so‘ng 1864–1865- yillarda zabt etilgan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida (1865- y.) harbiylashgan ma'muriy boshqaruv tartiblariga asoslangan Turkiston viloyati tashkil etilib, unga general- mayor M. G. Chernyayev gubernator etib tayinlanadi. Turkiston viloyatini boshqarish uchun 1865- yil 6 avgustda «Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizom» qabul qilinib, unga muvofiq harbiy va fuqarolik hokimiyati harbiy gubernator qo‘lida bo‘limlarga bo‘linib, ularni bo‘lim boshliqlari boshqargan. Bo‘lim boshlig‘i bir vaqtning o‘zida bo‘lim harbiy

³⁴ Абдрахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: «Академия», 2002. – Б. 29.

³⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 191.

komendanti ham hisoblangan. Bo‘lim boshliqlariga mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi va rus amaldorlaridan tayinlanadigan boshqaruvchilar bo‘ysungan. Shuningdek, bu «Nizom»ga ko‘ra, Turkiston viloyati gubernatori, «biy, oqsoqol, rais va qozi lavozimidagi tub joy aholi vakillarini egallab turgan lavozimiga tasdiqlash, bo‘shatish, almashtirish vakolatiga ega bo‘lgan»³⁶.

Dastlab, Turkiston viloyatining ma‘muriy markazi qilib Chimkent shahri belgilangan. Rus qo‘shinlari Toshkentni egallaganidan so‘ng, to u Rossiya tarkibiga rasman kiritilguniga qadar, bu shahar Turkistonning ma‘muriy markazi bo‘lib turdi. 1866- yilda Imperiyaga rasman qo‘shib olingan Toshkent va uning atrofidagi hududlar Toshkent rayoni deb atalgan alohida birlikni tashkil qildi. 1866- yili Turkiston viloyati tarkibida Erjar Zomin bo‘limlari, O‘ratepa va Jizzax rayonlari tashkil qilingan. Mustamlaka o‘lkalarni boshqarish asoslari absolyutizm davridayoq yuzaga kelgan bo‘lib, ular samoderjaviya (podsho hokimiyati)ning Volgabo‘yi, Sibir, Qozog‘iston, Kavkaz va boshqa qator hududlardagi manfaatlarini ozmi-ko‘pmi ta‘minlab kelgan. Ular zamirida harbiy va harbiy bo‘lmagan hokimiyat birlashar hamda ma‘muriy, sudlov xo‘jalik va boshqa vazifalar bitta muassasa qo‘lida jamlangan. Huddi shunga o‘xshash boshqaruv usuli, deyarli o‘zgarmagan tartibda zamonga moslangan holda Turkiston o‘lkasida ham sekin astalik bilan joriy qilina boshlangan.

«1865- yilgi muvaqqat Nizom»ga ko‘ra boshqaruv apparatida «mahalliy» deb ataluvchi ma‘muriyat ko‘makchi rol o‘ynagan. Xonliklar davrida bo‘lgani kabi shaharlarning tub aholisi yashaydigan mahallalarni oqsoqollar boshqarar edi. Bosh oqsoqolga mahalla tomonidan saylanuvchi shahar tumanlari oqsoqollari bo‘ysunardilar. Politsiya vazifasini raislar bajarardilar. Ular bozorlarda asosan tosh-tarozini, savdo va jamoat tartibini nazorat qilardilar. Soliq yig‘imlari bilan zakotchi shug‘illangan.

Mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi boshqaruvchilarning vazifalari joylarda tinchlikni saqlash, karvonlar xavfsizligini ta‘minlash, o‘rmon, suv inshootlarini qo‘riqlash, o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi janjallarni hal

³⁶ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 423.

qilish, aholiga soliq va majburiyatlarni belgilash, ularni o'z vaqtida va o'z miqdorida to'lashni nazorat qilish, nazorat natijalarini bo'lim boshlig'iga yetkazishdan iborat bo'lgan. Mahalliy aholining o'troq hayot kechiruvchi qismida sud ishlari bo'yicha qozilar chiqargan hukmlar harbiy gubernator tomonidan tasdiqlanishi lozim bo'lib, qozilarning chiqargan hukmlarini harbiy gubernator o'zgartirish huquqiga ega bo'lgan. Ko'chmanchi aholining biy sudlari mahalliy aholi boshqaruvchilarining ruxsati bilan o'tkazilgan. Biy sudlarida ishlar odat qoidalari asosida ko'rilgan³⁷.

1865- yildayoq Rossiya imperatori Aleksandr II ning farmoni bilan Orenburg va G'arbiy Sibir general-gubernatorliklari hamda Turkiston viloyati turmush tarzi va umumiy ahvolini o'rganish uchun «Dasht komissiyasi» tuzilib, O'rta Osiyoga jo'natiladi. Ushbu komissiyaning vazifasi bosib olingan hududlardagi sharoitni o'rganish hamda ularni qanday boshqarish haqida nizom tuzish uchun ma'lumotlar to'plashdan iborat edi.

Dasht hay'ati tomonidan ishlab chiqilgan «Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi qoidalar loyihasi» bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan qarorda quyidagilar qayd etilgan edi:

1. Loyihada ko'rsatilgan hududlarda Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari tarkibida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilsin.
2. General-gubernatorga o'lkani boshqarish uchun loyihada nazarda tutilgan shtatlardan kelib chiqqan holda, boshqarish uchun amaldorlar olishga imkoniyat berilsin.
3. General-gubernatorga loyihada ko'rsatilgan yerlarda, o'lkadagi mahalliy sharoit, tuzem (mahalliy) xalqlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda so'nggi marta qonuniy tartibda ko'rib chiqish va qabul qilish uchun uning qismlari bo'yicha va yaxlit holda o'zining xulosasini berish topshirilsin. Ungacha loyihada

³⁷ Абдурахимова Н.А. Ўзбекистон Россия империяси таркибида // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 135.

ko'rsatilgan holatlarni asos sifatida qabul qilib, o'lka tuzilishi uchun favqulodda muhim va foydali deb hisoblangan hamma choralarni ko'rish topshirilsin³⁸.

Chor mustamlakachilari qishloqlarni boshqarishda 1867- yilgi Turkiston general-gubernatorligining viloyatlarni boshqarish haqidagi «Vaqtli nizom loyihasi» deb atalgan hujjatlar majmuasiga amal qildilar. Unga ko'ra ko'chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqollar) boshqaruv tizimi joriy etildi.

Turkiston viloyatining ko'chmanchi aholisi urug'lar, bo'limlar va guruhlariga bo'linardi. Urug'larni urug'boshilar – manaplar, sultonlar va katta biylar; bo'limlarni – biylar; guruhlarini – to'g'ochlar boshqarganlar. Sulton, manap va biy unvonlari asosan otadan bolaga meros bo'lib o'tardi. Shunga qaramay, sulton, manap va biylarning o'rniga saylangan yangi shaxslar mahalliy aholi boshqaruvchisi, chor harbiy amaldorining tasdig'idan o'tishlari lozim bo'lgan³⁹.

1867- yil 11 iyulda imperator Aleksand II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etdi va O'rta Osiyoda bosib olingan va saltanat tarkibiga kiritilgan hududlar hisobidan Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risida farmon e'lon qiladi.

1867 yilgi «Nizom» loyihasida Turkiston o'lkasining Rossiya harbiy vazirligi tarkibida bo'lishi, o'lka harbiy hokimiyat orqali boshqarilishi, general-gubernator o'lkada joylashgan qo'shinga qo'mondonlik qilishi, boshqaruvning quyi bo'g'iniga yerlik aholi vakillari saylov orqali saylanishi, o'lka boshqaruvini Rossiya imperiyasidagi mavjud boshqaruv tizimiga yaqinlashtirib, keyinchalik o'lkani imperiyaning ajralmas bir qismiga aylantirish, o'lkaning ma'muriy-hududiy bo'linishida esa imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va strategik maqsadlaridan kelib chiqib ish tutilishi ko'rsatib o'tilgan.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida o'z hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblangani uchun ham boshqaruv sohasida dastlab katta o'zgarishlarni amalga

³⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 192.

³⁹ Абдурахимова Н. Туркистонда чор мустамлакачилик тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – Б. 33.

oshirmagan. Yuqori organlar nazoratida bo'lgan quyi boshqaruv organlari, soliq tizimi saqlab qolingan. Quyi boshqaruvning dastlab saqlanib qolinishiga asosiy sabab mahalliy aholining ichki hayotiga dastlabki davrda keskin aralashish va aholining turmush tarziga katta o'zgarishlar kiritish salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Undan tashqari, yangi bosib olingan yerlarda hali qarshilik va norozilik harakatlari davom etayotganligi, boshqaruv tizimida faoliyat olib borayotgan o'z odamlari bo'lmaganligi, mahalliy sharoitni to'liq bilmaslik kabilar ham an'anaviy boshqaruv tizimini ma'lum muddat saqlab qolishga majbur qilgan⁴⁰.

1868- yilda imperiya Ministrlar Kengashi tomonidan Turkiston general-gubernatoriga ikki yil ichida yangi «Nizom» loyihasini tayyorlab taqdim qilinishi to'g'risida ko'rsatma beriladi. 1871- yilda fon Kaufman rahbarligida Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida «Nizom» loyihasi tayyorlanib taqdim etilsa-da, muhokamada tasdiqlanmay qaytariladi. Ushbu loyiha 1873- yilda qayta ishlanib, ikkinchi marotaba Ministrlar kengashiga jo'natiladi. Ammo, bu safar ham «Nizom» loyihasida kamchiliklar mavjud bo'lib, «qoniqarsiz, yer masalasi tartiblari esa siyosiy jixatdan xavfli» bo'lganligi tufayli 1874- yilda tasdiqlanmay, qaytariladi. Ammo, shunga qaramasdan ushbu «Nizom» loyihasidagi tartiblar 1876- yilda yangi tashkil etilgan Farg'ona viloyatiga joriy etiladi.

1882- yil 8 mayda imperatorning Turkiston general-gubernatorligini taftish qilish to'g'risidagi farmoni e'lon qilinadi. Taftish ishlariga rais qilib «Dasht komissiyasi»ning sobiq raisi, maxfiy maslahatchi F. K. Girs tayinlandi. 1883- yilda Girs taftish ishlarini tugallab, imperatorga general-gubernatorlik va unga qarashli tashkilotlarning ahvoli to'g'risidagi hisobotni, «O'lkani boshqarish to'g'risidagi nizom loyihasi»ni qo'shib taqdim etgan⁴¹.

1884- yil 21 yanvarda imperator Aleksandr III ning ko'rsatmasi bilan Davlat Kengashi a'zosi, general-ad'yutant, graf N. Ignatev raisligida «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizomning qayta ishlangan so'nggi loyihasini ishlab chiqish» bo'yicha komissiya tashkil qilinadi. Rossiya imperiyasining oliy doiralari

⁴⁰ Тиллабоев С.Б. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан, 2008. – Б. 32.

⁴¹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, – Б. 427.

tomonidan tuzilgan ushbu komissiyaning asosiy vazifasi – «O‘lkani Rossiyaga qat’iy qaram qilib qo‘yish maqsadlari va uni boshqarishda xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni esa oshirishga, shuning bilan birga, fuqarolarni boshqarish talablariga va joylarning shart-sharoitlariga to‘g‘ri keladigan nizom» tuzilishini amalga oshirishdan iborat edi.

Rossiya imperatori tomonidan «Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom» 1886- yil 12 iyunda tasdiqlangan bo‘lsa-da, ma'muriy tizim bo‘yicha e'tirozlar davom etdi. Ammo, imperator Turkiston o‘lkasida sobiq general-gubernatorlik boshqaruvining asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda unga ba'zi o‘zgarishlar kiritdi. Umuman olganda, Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasi hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to‘ldirilib, o‘zgartirilib turildi. Chunki Rossiya imperiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaruv tizimiga kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo‘yicha dasturiy hujjatlar ishlab chiqishda «harbiy vaziyat» omili hal qiluvchi bo‘lgan. Bunday hujjatlar Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklarining yangidan-yangi hududlarini bosib olishi munosabati bilan vujudga kelgan va aynan shuning uchun ham doimo «muvaqqat» yoki «vaqtinchalik» xarakterga ega bo‘lgan. Misol uchun, 1867- yilda chiqarilgan «Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom» «tajriba tariqasida» uch yil muddatga joriy qilingan bo‘lib, 20- yil davomida amal qilgan. 1868- yildagi «Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari», 1874- yildagi «Amudaryo bo‘limini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari» va 1876- yilgi «Farg‘ona viloyatini boshqarish bo‘yicha vaqtinchalik Nizom» to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin⁴².

Turkiston general-gubernatori o‘z qo‘lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. Bir vaqtning o‘zida u podsho noibi, harbiy okrug qo‘shinlari

⁴² Абдурахимова Н.А. Ўзбекистон Россия империяси таркибида // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 135.

qo`mondoni, Yettisuv kazak qo`shinlari qo`mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror vazifalarini ham o`tagan. Unga Buxoro amiri va Xiva xoni ham bo`ysungan.

Bosh boshqarmaning ijroiyy organi bo`lgan general-gubernator mahkamasi dastlab to`rt bo`limdan iborat bo`lgan. Birinchi bo`lim ma`muriy va nazorat ishlarini boshqargan. Ikkinchisi bosh boshqarmaning moliyaviy- xo`jalik ishlariga qaragan. Uchinchi bo`lim soliqlar, shaharlar mablag`lari hamda boshqaruvga doir nizomlar loyihalarini tayyorlash bilan shug`ullangan. To`rtinchi bo`lim esa maxsus bo`lim hisoblanib, uning faoliyat doirasi g`oyat keng va serqirra bo`lgan. 1886-yilgach mustaqil ish ko`rgan bu bo`lim harbiy va adliya vazirlari ko`rsatmalaridan mustasno ravishda sud qarorlarini ham qayta ko`rish huquqiga ega bo`lgan.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimi markaziy, viloyat, uyezd, uchastka (volost), shahar, qishloq va ovul boshqaruvi shakllaridan iborat bo`lgan. General-gubernatorlik dastlabki tashkil etilgan paytda ikkita – markazi Toshkent bo`lgan Sirdaryo va markazi Verniy (Olmaota) bo`lgan Yettisuv viloyatlaridan iborat bo`lgan. Sirdaryo viloyati hududiga aosan ilgari Turkiston viloyatiga tegishli bo`lgan yerlar va Qo`qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Alatavsk okrugi hududlari hamda Turkiston viloyatining bir qismidan iborat hududlarda tashkil etilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy-hududiy jihatdan Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg`ona va Kaspiyorti (Zakaspiy) viloyatlari hamda Amudaryo bo`limidan iborat edi. Viloyatlar uyezdlarga bo`lingan bo`lib, ular quyidagilar edi: Sirdaryo viloyati – Avliyoota, Kazalinsk, Qurama, Perovsk, Turkiston, Chimkent; Toshkent shahri markaz sifatida general-gubernatorga bo`ysungan; Amudaryo bo`limi ham Sirdaryo tarkibida bo`lgan; Yettisuv viloyati – Verniy, Kopal, Jarkent, Lepsin, Pishpek, Prjevalsk, To`qmoq; Farg`ona viloyati – Andijon, Qo`qon, Marg`ilon, Namangan, O`sh, Chust va Chimyon; Samarqand viloyati – Samarqand, Kattaqo`rg`on, Xo`jand va Jizzax; Kaspiyorti (Zakaspiy) viloyati – Mang`ishloq, Krasnovodsk, Ashxobod, Tajan va Marv uyezdlari.

Viloyatlar boshqaruvi harbiy gubernator va viloyat boshqarmasi tomonidan amalga oshirib borilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, harbiy gubernator xarbiy va harbiy fuqarolik xususiyatiga ega bo'lgan. Harbiy gubernator qoshida amaldorlar va viloyat boshqarmasi mavjud bo'lib, viloyat boshqarmasiga harbiy gubernatorning yordamchisi raislik qilgan. Bu yordamchi harbiy gubernator bilan kelishilgan holda imperator yorlig'i bilan vazifasiga tayinlangan va ozod etilgan. Harbiy gubernator bo'lmagan paytlarda uning vazifasini yordamchisi bajargan⁴³.

Viloyat boshqarmasi uchta bo'lim – farmon beruvchi, xo'jalik va sud bo'limlaridan iborat bo'lgan. Bo'lim boshliqlari general-gubernator tomonidan tayinlangan hamda vazifasidan ozod etilgan. Uyezdlarni uyezd boshliqlari idora qilgan. Ular general-gubernator tavsiyasiga binoan oliy yorliq bilan vazifasiga tayinlangan va ozod etilgan. Uyezd boshliqlari ma'muriy va politsiya vazifasini bajargan hamda qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilgan.

Mahalliy boshqaruv ko'chmanchi aholini boshqarish va o'troq aholini boshqarishga bo'lingan. Har bir uyezdagi ko'chmanchi aholi viloyatlarga, volostlar esa ovullarga bo'lingan. Volost (bo'lis)lar – volost boshqaruvchilari, ovullar esa oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Viloyat boshqaruvchilari va unga nomzodlar harbiy gubernator tomonidan, ovul oqsoqoli va unga nomzodlar uyezd boshlig'i tomonidan tayinlangan. Volost boshlig'i politsiya va ma'muriy hokimiyatni amalga oshirgan. O'troq aholini boshqarish qishloqlarda ma'muriy va politsiya vakolatlariga ega bo'lgan oqsoqollar tomonidan amalga oshirilgan. O'troq aholi uyezdlarda volostlarga, volostlar esa qishloq jamoalari (oqsoqolliklar)ga bo'lingan.

1886- yilga «Nizom»ga ko'ra, Turkiston o'lkasini boshqarish quyidagicha bo'lingan:

1. Bosh boshqarma.
2. Turli tarmoqlarning alohida qismlarini boshqarish.
3. Mahalliy ma'muriy boshqaruv: viloyat – uyezd – volost – qishloq.
4. Sud boshqaruvi.

⁴³ Саидахмедов И. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т.: Фан, 2006. – Б. 196.

Turkiston general-gubernatori huzurida Kengash, maxsus topshiriqlarni bajarish uchun amaldorlar, tarjimon va devonxona mavjud bo'lgan. Kengash vakolatlariga barcha qonunchilik masalalari, general-gubernator topshirgai vazifalarni ko'rib chiqish kirgan. Ammo u, o'lkani umumiy boshqarish bo'yicha maslahat ovozigga ega bo'lgan⁴⁴.

Uyezd boshqaruvi bo'yicha Amudaryo bo'limi alohida maqomga ega bo'lgan. Amudaryo bo'limi boshlig'i uyezd boshlig'i maqomiga ega bo'lib, ma'muriy va politsiya boshqaruvi uning ixtiyorida bo'lgan. Bo'lim boshlig'i huzurida yordamchi va devonxona mavjud bo'lgan,

Volost boshliqlari va ularning yordamchilari aholi tomonidan uch yilga saylangan hamda harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan. Volost boshqaruvchilari sud hukmlarini ijro etgan, aholining kelib-ketishini nazorat qilgan hamda soliqlarning o'z vaqtida yig'ilishini ta'minlagan.

1867- yilgi «Muvaqqat Nizom»ga ko'ra, Turkiston o'lkasining sud va politsiya tizimi – harbiy sud, imperiyaning umumiy qonunlari asosida sud va xalq sudidan iborat bo'lgan bo'lsa, 1886- yilgi «Nizom»ga ko'ra, ularga o'zgartirishlar kiritilib, quyidagicha bo'lgan: sudlov palatasi, okrug sudlari, qo'shimcha mirovoy (sulhparvar) sudyalar, faxriy mirovoy sudyalar.

Mahalliy aholining sudlari alohida tartib asosida tuzilib, xalq sudlari deb nomlangan. Xalq sudlari alohida rus sudlariga tegishli ishlardan tashqari sodir etilgan ishlarni, biror xalq sudiga tegishli bo'lgan hamda rus xujjatlari asosida bo'lmagan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqqan. Xalq sudlari – xalq tomonidan saylanib qo'yilgan biylar tomonidan amalga oshirilgan. Ular harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan. O'troq aholi uchun qozi sudlari amal qilgan bo'lib, ular aholi tomonidan saylangan hamda harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan.

Turkiston o'lkasida viloyat va uyezd (tuman) boshqarmalari shaharlarda joylashgan. Toshkent, Samarqavd, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Ashxobod, Chimkent, Jizzax, Kattaqo'rg'on kabilar mavqega ega bo'lgan asosiy shaharlar edi. Shaharlar ichida general-gubernatorlikning siyosiy, ma'muriy va

⁴⁴ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 434.

madaniy markazi boʻlgan Toshkent shahriga alohida e'tibor berilgan. Xususan, 1865- yilda general-mayor Romanovskiy rus zobitlari va amaldorlari uchun shaharning sharqiy qismidan joyni tanladi va qisqa muddat (1866–1868- yy.) rus aholisi yashaydigan «Yangi shahar» barpo etilgan.

1868- yil 27- fevralda Toshkentning «Yangi shahar» qismida harbiy – xalq boshqarmasi tuzilib, statistik maslahatchi Rossitskiy uning boshligʻi etib tayinlangan⁴⁵. Ushbu boshqarmaning dastlabki qaroriga koʻra Toshkentning «Yangi» qismida quyidagi ishlarni amalga oshirish koʻzda tutilgan:

1. Reja tuzish, uy qurishga yer ajratish, koʻcha va maydonlar barpo etish.
2. Soliqlar va turli tushumlarni tartibga keltirish hamda undirish, shuningdek, shaharning daromad va xarajatlar smetasini tuzish.
3. Shahar irrigatsiya tizimi va obodonchiligini boshqarish.

Turkistondagi mustamlaka boshqaruvi 1898- yilgacha «harbiy-xalq boshqaruvi», undan keyin esa «ma'muriy politsiya boshqaruvi» deb atalgan boʻlsa ham uning mohiyati mazmunan oʻzgarmagan. Barcha vakolatlar avvalo, general-gubernator, qolaversa, u boshchiligidagi rus ma'muriyati qoʻlida toʻplangan boʻlib, Rossiya imperiyasi Oʻrta Osiyoda oʻzbek davlatchiligi va boshqaruvining barcha koʻrinishlarini butunlay yoʻqotish va ruscha idora usulini qatʼiy joriy etish boʻyicha izchil faoliyat olib bordi. Ma'muriy boshqaruv tizimi ana shu maqsadga qaratilib, buning uchun barcha choralar koʻrilgan edi.

Turkiston Rossiya tojidagi bebaho javohir ekanligini qayta-qayta ta'kidlagan Rossiya imperiyasi ma'murlari, koʻrilayotgan chora-tadbirlar oʻlkada mustahkamlanib olish uchun yetarli emasligini bilib, bu yerga Rossiyaning markaziy rayonlaridan «ortiqcha» notinch aholini koʻchirish siyosatini olib bordilar. Rossiya imperiyasi turli yoʻllar va vositalar bilan mahalliy xalqlarning yerlarini rus mujiklari foydasiga musodara qilishga urindi. Yerga soliqlar miqdorini haddan tashqari oshirib yuborish ana shunday vositalardan biri boʻldi. Natijada aholi oʻz yerlarini sotishga yoki undan butunlay voz kechishga majbur boʻldi.

⁴⁵ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. – Т.: Фан ва технология, 2004. – Б. 18.

Rossiyadan Turkistonga «ortiqcha» aholini ko‘chirish Rossiya imperiyasi uchun bu yerda strategik jihatdan mustahkamlanib olish, mustamlakachilik tartiblarini o‘rnatish, o‘lkada tayanch punktlarini kuchaytirish uchun zarur edi. Dastlab ruslarni Turkistonga ko‘chirib keltirish siyosati majburiy amalga oshirilgan. Keyinchalik, ixtiyoriy ko‘chib keluvchilarning soni tobora ko‘payib borgan. Markaziy Rossiyadan Turkistonga doimiy yashash uchun ko‘chib keluvchilarning soni yildan- yilga ko‘payib borgan. Jumladan, manbalarga ko‘ra 1875- yildan 1890- yilgacha Turkistonga 1300 ta oila ko‘chirilib, 19 ta rus qishlog‘i paydo bo‘lgan bo‘lsa, 1891–1892- yillar Rossiyada ocharchilik kuchaygan vaqtda bu qishloqlarning soni 25 taga yetdi. XIX asrning oxirlarida o‘lkada 116 ta rus posyolkalari qurilib, ularda 70. 745 kishi yashagan bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib, Turkistondagi rus aholisining soni 197. 420 kishiga yetgan.

Xullas, Turkiston o‘lkasida rusiyazabon aholiga juda ko‘plab imtiyozlar berilgan bo‘lib, bunday imtiyozlar mahalliy aholiga tegishli bo‘lmagan. Rus mustamlakachilik tartiblari, idora uslubi va ruslashtirish siyosatidan norozilik quyi ma'muriyat saylovlarida ochiqdan ochiq siyosiy chiqishlar shaklida namoyon bo‘ldi. Mustamlaka sharoitidagi milliy va sinfiy tengsizlik hamda rus ishchilarining imtiyozlari va ularning mahalliy ishchilardan keskin farqlanuvchi hukmron mavqei, Rossiya imperiyasining ruslashtirish siyosati, ko‘chirib keltirilgan rus aholisiga mahalliy aholi yerlarining bo‘lib berilishi milliy-ozodlik harakatlariga sabab bo‘lgan edi.

1.3. Turkistonda ijtimoiy ahvol

1917- yilning boshlarida butun Rossiyada bo‘lgani kabi Rossiyaning «sof turdagi mustamlakasi» bo‘lgan Turkistonda ham inqilobiy tanglikning barcha alomatlari har tomonlama pishib yetildi.

Bu inqilobiy tanglik 1917- yil 27 fevralda Petrograd da chor monarxiya tuzumining ag‘darilishiga olib keldi. Mamlakatda ikki hokimiyatchilik vujudga keldi. Bir tomonda knyaz Lvov boshchiligida burjua-pomeshchiklar hukumati-muvaqqat hukumat, ikkinchi tomondan esa, ishchi va dehqonlarning demokratik

diktatura organi bo'lgan ishchi, dehqon va askarlar deputatlari soveti ish boshladi. Ishchi, dehqon va askarlar sovetiga mensheviklar, kadetlar va eserlar boshchilik qildilar.

Rossiyada qariyb 300- yil hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining taxtdan ag'darilishi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga jiddiy ta'sir qildi.

Inqilob g'alabasini Rossiya fuqarolari zo'r shodu-hurramlik bilan qarshi oldilar. Chunki uning ezgu shiori ozodlik, tenglik va birodarlik edi. Fevral inqilobi asrlar osha Rossiyaning barcha mehnatkash va mazlum xalqlariga baxt-saodat yo'lini ko'rsatdi, katta kichik millatlarga o'z taqdirini o'zi hal qilishiga imkoniyat yaratdi, vijdon erkinligini joriy qildi, mahalliy idoralarni saylashda umumiy bevosita teng va mahfiy ovoz berishni yo'lga qo'ydi. Muvaqqat hukumat mahalliy xalq vakillaridan front orqasidagi ishlarga mardikorlikka, ishga olishga chek qo'yildiki, bu tadbirlar millati, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha xalqlarning istak-orzulariga javob berar edi. Rossiyadagi barcha o'n bitta partiya erkin suratda o'z faoliyatini olib bora boshladi. Xullas qisqa muddat ichida fevral inqilobi g'alabasi tufayli Rossiya harbiy feodal monarxistik davlatdan dunyoda eng ilg'or demokratik davlatga aylandi.

Fevral inqilobi (1917) Rossiyaning xalqaro maydondagi ahvoliga ham jiddiy o'zgarishlar kiritish imkoniyatini yaratdi. Inqilob sharofati tufayli Rossiya uzoq davom etayotgan jahon urushidan chiqib ketishi va mamlakat fuqarolarining ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishi mumkin edi. Umuman aytganda fevral inqilobi jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv rivojlanishi qonunlaridan kelib chiqqan hayotiy zarurat edi. U chinakam xalq inqilobi edi. Shu bois bu fevral inqilobining g'alabasini Turkiston xalqi ham zo'r xursandchilik va katta umidlar bilan kutib oldilar. Podsho Nikolay II ning taxtdan ketganligi to'g'risidagi xabar Toshkentga 28 fevralda kechasi yetib keldi. Ammo Turkiston general-gubernatori Kuropatkin monarxiyaning qayta tiklanishidan umidvor bo'lib bu xabarni xalqqa bildirishni istamadi. 3- martda fevral inqilobining g'alabasi to'g'risidagi telegramma matbuotda bosilgach uning siri fosh bo'ldi. Bu inqilobga nisbatan mamlakatimiz

jadidchilari ham hayrixohlik hissi bilan qarab baho beradilar. Jumladan, endigina 19 bahorni qarshilagan Abdulhamid Cho'lpon 1917- yildagi fevral inqilobini 1789–1793- yillardagi buyuk fransuz inqilobiga o'xshatgan edi⁴⁶.

Fevral inqilobi ta'siri ostida Turkiston o'lkasida ommaviy milliy-ozodlik harakatlar avj olib ketdi. O'lkaning yirik shaharlari: Toshkent, Samarqand, Skobelev (Farg'ona), Andijon, Kogon, Namangan, Qo'qon, Petro-Aleksandrovska (To'rtko'l) va boshqa joylarda ko'p ming kishilik miting va namoyishlar bo'ldi. Fevral inqilobi haqidagi xabar matbuotda e'lon qilingan kuniyoq Toshkentda katta miting va namoyish bo'ldi. Namoyish qatnashchilari shaharning Skver (hozir Amir Temur hiyoboni) va Soborniy (hozirgi mustaqillik) maydonlari tomon ko'chalar bo'ylab bayroqlar ko'tarib, ashulalar aytib yurish qildilar. 5 martda Samarqand shahrida ko'p ming kishilik miting uyushtirildi. Kogon (Buxoro)dagi namoyishchilar soni 6 ming kishiga yetdi. 7 martda Petro-Aleksandrovska bo'lgan ommaviy mitingda Amudaryo garnizoni askarlari ham qatnashdilar. Amudaryo bo'limining boshlig'i va shahar pristavi mitingni tarqatishga harakat qildi. Bunga javoban miting qatnashchilari ularni quolsizlantirib, qamab qo'ydilar.

Askarlarning namoyishkorona chiqishlari 10 martda Samarqand shahrida ham bo'ldi. Unda 12 mingga yaqin kishi qatnashdi. Xullas mehnatkashlar ommasi va qo'shinlarning ommaviy miting va namoyishlari Turkiston o'lkasining boshqa hududlarida butun mart oyi va undan keyin ham to'htamadi. Ammo ko'rinib turibdiki, bu miting va namoyishlarning tashabbuskorlari va faol qatnashchilari asosan Rossiyadan Turkistonga kelgan o'zga millatlarning vakillari edilar. Ammo bundan tub yerli mahalliy xalqlar bunday miting va namoyishlardan chetda turdilar degan xulosa chiqmaydi. Turkiston o'lkasining bir qator uyezd va shaharlarida jadidlar, islom dini ulamolari rahbarligida tub yerli aholi qatnashgan miting namoyishlar bo'lib o'tdi. Jumladan, 6, 9 va 13 mart kunlarida Toshkentning Eski Juva, Shayxontoxur va boshqa mavzellarida jadidlar tashabbusi bilan ko'p ming kishilik musulmon ahlining miting va namoyishlari uyushtirildi. Demokratik

⁴⁶ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). K.3. – T.: «Sharq», 2009. – B. 8.

inqilob va uning maqsad-vazifalariga katta umidvorlik bilan qaragan jadidlar, mehnatkashlar ommasini milliy istiqlol, erk va ozodlik uchun milliy birlik, jipslik va ahilikka chaqirdilar. Ana shunday mitinglardan biri 9 martda Toshkentning Chorsu maydonida bo'ldi. Jome masjidi oldida to'plangan 20 ming kishilik mitingni jadidlarning «Turon» jamiyati uyushtirdi va unga Munavvar Qori Abdurashidxonov, Islombek Xudoyorxonov va boshqa jadidlar rahnamolik qildilar. Ana shunday miting Andijonda, Jome masjidi oldida bo'ldi. Unda «Taraqqiyparvar»chi 27 yoshli Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev nutq so'zlab fevral inqilobi mohiyatini tushuntirib beradi⁴⁷.

Fevral inqilobi ta'siri ostida o'lka musulmonlarining ommaviy harakatlari Qo'qon, Namangan, O'sh, Jalolobod, Samarqand, Andijon, Kattaqo'rg'on muzofotlari va boshqa hududlarda ham sodir bo'ldi. Turkiston o'lkasidagi ana shu ommaviy chiqishlar va xalq harakatlari ta'siri ostida (sovetlar) birin-ketin vujudga kela boshladi. Turkistonda ishchi deputatlarining birinchi soveti Toshkentda 2 martda O'rta Osiyo temir yo'li Bosh ustaxonasi (Hozirgi Temir yo'llar teplovoz vagon ta'mirlash zavodi)da rus ishchilari tashabbusida tashkil etildi. Sovet tarkibiga shu kuni bo'lib o'tgan mitingda 12 kishi saylandi. Ular orasida A. Ya. Pershin, V. S. Lyapin, A. A. Kazakov, N. Kalugin va boshqalar bor edi. Bunday Sovetlar Toshkent shahrining boshqa zavodlari, ustaxonalari, korxonalar va jamoat tashkilotlarida ham saylandi. Zavodlar, ustaxonalar, korxonalar va jamoat tashkilotlaridan saylangan vakillardan 3 martda Toshkent ishchi deputatlari Soveti tuzildi. 4 martda Soldat deputatlarining Toshkent Soveti tashkil topdi. Mart oyining oxirlarida Toshkent ishchi deputatlari Soveti bilan askar deputatlari Soveti birlashdi. Ular o'zaro birlashib «Nasha gazeta»si chiqarishni yo'lga qo'ydilar. Gazetaning birinchi soni 1917- yil 2 aprelda bosib chiqdi.

Fevral inqilobining dastlabki kunlaridanoq ishchi va soldat deputatlari Sovetlari Samarqand, Yangi Buxoro (Kogon), Andijon, Namangan, Qo'qon, Skobelev va boshqa shaharlarda vujudga keldilar. Faqat mart oyining o'zida 75 ishchi va soldat deputatlari Sovetlari Turkistonda faoliyat ko'rsata boshladi. Bu

⁴⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарк, 2000. – Б. 23.

umumrossiya ko'rsatkichining 13,5 foiziga teng (Rossiyada jami bo'lib 600 ta Sovet tashkil etilgan) edi⁴⁸. Ammo bu Sovetlar tarkibidagi a'zolar asosan yevropalik aholi vakillaridan bo'lib, uning rahbariyatida yerli tub millatlarning vakillari umuman yo'q edi. Buni Toshkent Soveti rahbariyati misolida ko'rsa ham bo'ladi. Toshkent Soveti rahbarligiga I. I. Belkov, A. Ya. Pershin, A. S. Lyapin, A. A. Kazakov, N. Kaluginlar saylandilar 6 martda saylangan Andijon ishchi va askar deputatlari Soveti hay'atiga V. A. Chaykin (rais), ishchi Pershin, askar Maslov (o'rinbosarlar) kirgan edi. Sovetning 7 a'zosidan 4 tasi ishchi, 3 tasi askar bo'lib, ularning hammasi yevropa millatiga mansub kishilar edilar.

Shaharlar bilan bir qatorda viloyatlarda ham sovetlar shakllana bordi. Turkiston o'lkasida mana shunday sovetlardan birinchisi 1917- yil mart oyining o'rtalarida vujudga kelgan Farg'ona viloyati Soveti bo'ldi. Aprel oyida Sirdaryo viloyat Soveti va may oyida Samarqand viloyat Soveti vujudga keldi. Turkiston o'lkasi Sovetidan tortib to viloyatlar, shaharlar va uyezdlar Sovetlarigacha barcha rahbarlik lavozimlarini Rossiyaning markazida tashkil etilgan mensheviklar va eserlar partiyalariga mansub bo'lgan yevropa millati vakillari egallab oldilar. Jumladan, Turkiston o'lkasi Sovetining raisi menshevik M. Fiterman, rais o'rinbosari qilib esa menshevik G. I. Broydo, Farg'ona viloyati Sovetiga eserlardan V. A. Chaykin, V. D. Doriomedov, L. A. Mayevskiylar saylandilar. Toshkent, Andijon shaharlari, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida ham huddi ana shu vaziyat bo'lganligi haqida yuqorida ta'kidlandi. Bu davrda bolsheviklar vakillari Turkistonda sonida ham hisobda ham Sovetlarda hech qanday ta'sirga ega emas edi.

Mahalliy tub yerli aholi tili, dini, urf-odati, maqsadi-muddaosi boshqa bo'lgan Yevropa millati vakillari bosh bo'lgan mazkur Sovetlarga ergashmadi, ularga ishonmadi va kofirlar deya begonasirab qaradi. Mahalliy aholi asosan musulmon ulamolari va jadidlar tashabbusi bilan va rahbarligida tashkil etilgan musulmonlar Sovetlariga ergashdilar va ularni qo'llab-quvvatladilar. Bunday

⁴⁸ Шамсугдинов Р.Т. К вопросу об особенностях становления и развития Советов в Средней Азии и Казахстане (1917 – 1925 гг.) // «История СССР», – М., 1985. № 5.

Sovetlar Toshkentning Eski shaharida, Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona, Andijon va boshqa viloyatlarda tashkil topdi. Musulmon ishchi-dehqon Sovetlari o‘z majlislarida harakat birligini ta‘minlash va ommaning siyosiy kurashiga boshchilik qilish maqsadida siyosiy tashkilot tuzishga kirishdilar. Ana shunday tashkilotlardan dastlabkisi «Soveti Islomiya» edi. 1917- yil 14 martda «Soveti Islomiya»ning Toshkentda majlisi bo‘ldi⁴⁹. Unda tashkilot faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi 15 kishidan iborat rayosat saylandi. Rayosatni tuzishda jadidlarning rahbarlaridan biri Munavvar Qori Abdurashidxonov boshqardi. Rayosat a'zolariga shoir Fitrat II Davlat dumasining a'zolari Abdulvohid Qori, Mirkomilboy Mirmo‘minboyev, Ahmadbek Hoji Temirbekov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Shokirjon Rahimiy, Ashurali Zohiriy, Salimxon Tillaxonovlar saylandilar. «Soveti Islom» va uning markaziy rayosati Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o‘rin tutdi. Turkistonning turli shahar va qishloqlarida «Soveti Islomning» quyi sho‘balari tashkil topdi. Toshkentda tashkil etilgan «Soveti Islom»dan tashqari «Turon», «Ittihodiy va taraqqiy» tashkilotlari, 5 martda Eski shaharda ziyolilarning «erlilar» qo‘mitasi, 8 martda o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, muassasa xizmatchilari jamiyatlari: Andijon shahrida «Ozod xalq», «Hurriyat», «Ma'rifat», «Muftaxul maorif» va boshqa tashkilotlar, Samarqandda – «Muravajjul Islom», «Qlub Islomiya», «Musulmon mehnatkashlari ittifoqi», Kattaqo‘rg‘onda «Ravnaqul Islom», «Guliston», Xo‘jandda – «Muinut tolibin» kabi tashkilot va to‘garaklar ana shular jumlasidandir. Bundan tashqari o‘lkaning katta shaharlarida «Soveti Islom», «Ulamo», «Turon», «Tujkor», «Musklub» («Musulmonlar klubi») kabi tashkilotlar harakat maydoniga keldilar. Bu bejiz emas edi, albatta.

Chunki jadidlar harkatining rahnamolaridan biri Maxmudxo‘ja Behbudiyning shiori «Haq olinur, berilmas» bo‘lsa, Munavvar Qori Abdurashidxonov esa: «Hurriyat olinur, berilmas» der edi.

«Soveti Islomiya» va yuqorida nomlari tilga olingan tashkilot va jamiyatlar o‘z matbuot organlarini tashkil qildilar. Bular: Toshkentda – «Xurshid», «Sadoi

⁴⁹ Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи жилд. – Т.: Фан, 1971. – Б. 53.

Turkiston», «Turon», «Turk eli». «Najot», «Kengash», «Soveti Islom», «Ulug' Turkiston»; Samarqandda – «Oyna», «Hurriyat»; Buxoroda – «Turon», «Buxoroi Sharif»; Qo'qonda – «Sadoi Farg'ona», «Tirik so'z», «Kengash», «Yurt», «Hurriyat»; Farg'onada – «Farg'ona nidosi»; Namanganda – «Farg'ona sahifasi» va boshqa chop etilgan gazeta va jurnallar ana shular jumlasidandir⁵⁰.

Mazkur ommaviy axborot vositalari sahifalarida milliy istiqlol vazifalari omma o'rtasida keng muhokama qilindi, tag'ribot etildi. Bu dasturiy vazifalarning asosiy yo'nalishlari «Soveti Islomiya» tashkilotining tashabbusi bilan 1917- yil 16 aprelda Toshkentda bo'lib o'tgan Umumturkiston musulmonlarining birinchi qurultoyida ishlab chiqildi. Unda Turkiston o'lkasi mahalliy aholisi vakillaridan 150 kishi ishtirok etdi.

Qurultoy hay'ati tarkibida Mustafó Cho'qayev, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Sherali Lyapin, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Sobirjon Yusupov, Ahmad Zaki Validiy, Sodiq Sattarov, Islom Shoahmedov, Serikboy Akayev, Ahmadbek Qo'yboqarov, Abdurahmon Mustafó Cho'qayev O'razayev, Mulla Abduljabbor Mahmudovlar a'zo edi. Qurultoy ishida muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi rahbari N. Shchepkin va qo'mita a'zolari A. Davletshin, S. Maqsudiy, M. Tinishboyevlar ham ishtirok etdilar⁵¹. Kun tartibiga: Muvaqqat hukumatga munosabat, Rossiyada boshqaruv shakli, Butun Rossiya Ta'sis Majlisiga tayyorgarlik, Turkistonda mahalliy fuqarolik muassasalari, o'lkadagi diniy muassasalar, moliyaviy ishlar, oldingi zamonlardan qolgan muassasalarni yangilash, oziq-ovqat masalasi, urushga mardikorlar munosabat masalasi, o'lka «Soveti Islomiya»sini tashkil etish, umumrossiya musulmonlari qurultoyiga vakillar saylash, yer va suv ishlari, maktab, madrasa va vaqf ishlari masalalari qo'yilgandi.

Qurultoy Rossiyada boshqarishning bo'lajak shakli va Turkiston musulmonlarining tashkiliy birdamligi masalasiga alohida ahamiyat berdi. Mazkur masala haqida so'zga chiqqan Ahmad Zaki Validiy federatsiya g'oyasini ilgari

⁵⁰ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – T.: «IQTISOD–MOLIYA», 2006. – B. 250.

⁵¹ Аъзамхўжаев С. Туркiston Мухторияти. – Т.: «Маънавият», 2000. – Б. 66–67.

surdi. Bu g'oyani taniqli jadidlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Obidjon Mahmudov, Muhammadjon Tinishboyev va sotsialist inqilobchi Vadim Chaykinlar qo'lladilar. Jadidlardan Sadri Maqsudiy, Kabir Bakir va boshqalar esa «Demokratik Rossiya respublikasi» g'oyasini ilgari surdilar. Bu g'oyani Munavvar Qori Abdurashidxonov va Ubaydullaxo'jayevlar quvvatladilar.

Qurultoy Turkistonning bo'lajak davlat qurilishi masalalariga ham katta e'tibor berdi. Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mustafó Cho'qayev va Sadri Maqsudiy milliy-hududiy boshqarish g'oyasi talabiga qarshi chiqdilar. Ularning fikricha musulmonlar yer-suv ishlarini boshqarishni o'zlari uddalay olmaydi. Shu bois hozircha madaniy-ma'rifiy masalalardagina muxtoriyatga erishishning o'zi yetarlidir. Umuman ushbu masalada yakdillik bo'lmadi: Turkiston, Qirg'iziston, Kavkaz va Qrim musulmonlari vakillari qurultoyda federativ jumhuriyat tarafdorlari bo'ldilar. Shu boisdan ular o'zlarini «federalistlar»⁵² deb atadilar. Volga bo'yi musulmonlari vakillari esa unitar, ya'ni yagona bir butun qo'shni respublika tarafdori bo'lganliklaridan ular tarixda «unitaristlar»⁵³ nomini oldilar.

Qurultoy qatnashchilari demokratik va federativ tamoyillar asosida tayyorlanadigan Rossiyaning bo'lajak konstitutsiyasida musulmonlar uchun teng huquqlar ishlab chiqishga chaqirdilar. Mazkur Konstitutsiyada barcha viloyatlar qatorida Turkiston o'lkasiga ham muxtoriyat huquqini beradigan Rossiya federativ Demokratik V. A. Chaykin Respublikasi asoslanishini ilgari surdilar. Bu g'oyani amalga oshirish uchun Turkiston xalqiga Ittifoq, Hamkorlik va Birlik kerakligini qurultoy qatnashchilari yaxshi bilar edilar. Turkiston o'lkasi musulmonlarining birinchi qurultoyi Markaziy rahbar organ – Turkiston o'lka musulmon soveti (Kraymus-sovet)ni tashkil etish to'g'risida g'oyatda muhim qaror qabul qildi. Uning birinchi majlisida Mustafó Cho'qayev Markazning raisi, Munavvar Qori Abdurashidxonov rais muovini, Ahmad Zaki Validiy To'g'on kotib, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevlar va boshqalar a'zo etib saylandilar. Markaziy Sovet tashkiliy bo'limiga Ahmad Zaki Validiy To'g'on, Farid Toxiriy,

⁵² «Federalistlar» – ayrim mustaqil davlatlarning birlashuvidan tashkil topgan yaxlit bir davlat.

⁵³ «Unitaristlar» – qo'shma, birlashgan, bir butunlikni xosil qiladigan unitar (qo'shma) respublika (hamma qismi birlashgan, yaxlit).

Tolibjon Musaboy, Ibn Yamin Yanbayev, Muhammadamin Afandizoda, Nizomiddin Asomiy, Abdusami Qori, Murodxo‘ja Solixo‘ja, Shokirxo‘ja Raximiy, Tuzel Jonboy, Abdulla Avloniy, Salohiddin Muftizoda, Piri Mursilzoda, Muhamadjon Toshxo‘jayevlar kirdi. Markaziy Sovet qoshida tashkil etilgan yana bir muhim bo‘lim maorif bo‘limi edi. Uning tarkibiga: Munavvar Qori Abdurashidxonov, Zaki Validiy, Burxon Xabib, Po‘latxon Poshshabekov, Abulqosim Aminzoda, Abdusami Qori, Rustambek Yusufbek, Hoji Ibrohim Toxiriy, Nushirovon Yavunev va boshqalar kirdi. Markaziy Sovet zimmasiga o‘lkadagi barcha tarqoq bir-biri bilan bog‘lanmagan, nizom va dasturga ega bo‘lmagan jamiyat va tashkilotlarni birlashtirish vazifasi qo‘yilgan. Bunday jamiyat va tashkilotlar (ularning nomlari yuqorida ta'kidlandi). Turkiston o‘lkasida juda ko‘p edi va har qaysi biri o‘ziga mustaqil faoliyat ko‘rsatar edi. Zaki Validiy To‘g‘on faqat Toshkent shahrining o‘zida 20 ga yaqin jamiyat va tashkilotlar bo‘lganligini ko‘rsatgan edi. Andijonda shunday jamiyatlar soni 47 taga yetgan edi. Bu tarqoq jamiyat va tashkilotlarni birlashtirib boshini qovushtirishga qurultoy qaroriga asosan Markaziy Sovetning joylarda sho‘ba (bo‘lim) larining tashkil etilishi g‘oyat muhim o‘rin tutdi. Samarqand sho‘basini M. Behbudiy, Farg‘ona sho‘basini Nosirxon To‘ra, Toshkent sho‘basini Munavvar qori Abdurashidxonov boshqardi.

Demokratik ziyolilar va jadidlar ommaga tushuntirdilarki, musulmonlarning kuch-qudrati siyosiy tashkilotidadir. Agar ular ana shu siyosiy tashkilotga birlashmas ekanlar o‘z maqsad muddaolariga erisha olmaydilar, musulmonlarning muxtoriyat uchun kurashi barbod bo‘lishi mumkin. Bu borada Zaki Validiy To‘g‘onning quyidagi fikrlari g‘oyatda qimmatlidir: «Ma'lumki, hozir dunyoda xalq o‘z maqsadiga faqat yaxshi jipslikdagini erishadi. Buning uchun tashkilot kerak. Agar xalq tashkilotga ega bo‘lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Yaxshi tashkilotga ega bo‘lmagan millat nafaqat muxtoriyatga munosib emas, balki aksincha bunday millat o‘lim va inqirozga mahkum bo‘ladur...Turkiston

musulmonlari, qo‘lni-qo‘lga bering. Va hammamiz bir yo‘ldan yurib, bu maqsadni vujudga chiqaring. Birlikda quvvat degan so‘zni aslo xotiradan chiqarmang»⁵⁴.

Umuman olganda qurultoy 1917- yil fevral inqilobining natijasi o‘laroq vujudga kelgan muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlash shiori ostida o‘tdi. Tatar jadidlarining faollaridan bo‘lgan Sadri Maqsudiy qurultoyda so‘zlagan nutqida muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlagani holda turkiy musulmon xalqlari birligi g‘oyasini ilgari surdi. Turkiston o‘lka qurultoyida qatnashgan muvaqqat hukumatning Turkistondagi vakili kadet N. Shchepkin qurultoyini va uning qatnashchilarini tabrikladi. U o‘z nutqida qurultoyda ilgari surilgan qoidalar bizning dasturimizga to‘la muvofiq keladi va shu boisdan muvaqqat hukumat sizga va sizning qo‘llab-quvvatlashingizga ishonadi,— dedi. N. Shchepkin muvaqqat hukumat nomidan gapirar ekan, sizlarning asosiy vazifangiz Sovetlarga emas, balki ta‘sis majlisini himoya qilishdan iboratdir, deb qurultoy qatnashchilariga da‘vat etdi.

Xullas, qurultoy muvaqqat hukumatga to‘la ishonch bildirdi va mahalliy aholini Milyukov, Kerenskiy atrofida jipslashishga chaqiruvchi qaror qabul qildi. Trukistonda voqyealarning bu tahlitda rivojlanib borishi kadetlarning mehnatkash omma o‘rtasida ta‘sir doirasining kuchayib borayotganligidan darak berar edi. O‘lka musulmon soveti borgan sayin harakat faoliyatini jadallashtirdi. 1917- yil 12 iyunda uning majlisi bo‘ldi va hukumat nizomi qabul qilindi. Mazkur nizomga ko‘ra «Soveti islomiya», «Ravnaqul islom», «Mirvaj ul-islom», «Muallimlar jamiyati», «Talabalar jamiyati» kabi musulmon jamiyat va tashkilotlari milliy va sinfiy farqlarga qaramasdan viloyat, shahar va uyezd musulmon deputatlari bo‘limlari soveti (Markaziy soveti)ga bo‘linishlari kerak edi.

I bob bo‘yicha xulosa:

O‘rta Osiyo xonliklari o‘z mustaqilliklarini qo‘ldan boy berib, o‘zi mustaqil harakat qila olmaydigan, Rossiya imperiyasi tarkibidagi qaram bir davlatga aylangan bo‘lib, imperiyanig xom ashyo bazasi hamda tashqi bozoriga aylanib qoldi. Turkiston o‘lkasida o‘rnatilgan mustamlakachilik boshqaruv tizimi ham

⁵⁴ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). K.3. – T.: «Sharq», 2009. – B. 13.

chuqur o'ylangan bo'lib, o'lkani boshqarish to'g'risidagi Nizomlarda garchi mahalliy aholi vakillari boshqaruvga jalb qilingan. Biroq, amalda ularga hech qanday vakolat berilmagan edi. Turkiston milliy istiqloli uchun o'lkadagi barcha musulmonlarning yagona jabha va yakdil qadami qo'yildi. Tarixda ilk bor Turkiston o'lkasi musulmonlari qurultoyi chaqirildi va unda muhim qarorlar qabul qilindi. Qurultoyda asoslangan maqsad va harakatlarning ifodasi o'laroq Turkiston musulmonlari Markaziy Soveti paydo bo'ldi. Bu tashkilot umum Turkiston jamoatchiligi, ayniqsa milliy istiqlol uchun kurashning oldingi safida boruvchi, uning ilg'or qismi, xususan, jadidlar tomonidan milliy markaz sifatida tushunildi. Albatta bu katta muvaffaqiyat edi. Bu hol Rossiya mustamlakachilarini, shu jumladan muvaqqat hukumatni boshqargan hukmdorlarni ham tashvishga solar edi, ular bu jarayonga befarq qaray olmas edilar. Rossiya imperiyasi o'rniga kelgan muvaqqat hukumat va undan keyingilari ham o'lka vakillari o'zlarining mustaqil, milliy davlatlarini qurishlari mumkin desalar ham amalda bunga imkon qoldirmaslikka harakat qilganlar.

II BOB. TURKISTON ASSRDA IJTIMOYIY-SIYOSIY, HARBIY AHVOL

2.1. Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi: ijtimoiy ahvol

1917- yil 27- fevralda Petrogradda demokratik inqilob g‘alaba qozonib, Rossiya imperatori Nikolay II taxtdan ag‘darib tashlangach, mazkur inqilob Turkiston o‘lkasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xususan, Turkiston jadidlari, ziyolilari va islom ulamolarining tashabbusi bilan 1917- yil martida «Sho‘roi Islomiya», 1917- yil iyunida «Sho‘roi Ulamo», 1917- yil iyulida «Turk Adami Markaziyati» (Turk federalistlari partiyasi), 1917- yil sentabrda «Ittifoqi musulimin» kabi siyosiy partiyalar tuzilgan.

1918- yil 19-26- yanvarda bo‘lib o‘tgan o‘lka sovetlarining IV s‘yezdida bolshevik-delegatlar Turkistonga «proletar muhtoriyati» berilishi uchun jonbozlik ko‘rsatganlar, chunki «markaziy ishchi-dehqon hukumati» bu muhtoriyatni tasdiqlashiga ishonganlar. Shuning uchun ham o‘lka bolsheviklari Turkiston xalqlariga, aniqrog‘i, ularning mehnatkashlar ommasiga sovet andozasidagi muhtoriyat berilishini astoydil yoqlab chiqqanlar. Ayniqsa so‘zga chiqqan baynalmilalchi-menshevik Pavlichenko buyuk davlatchilik shovinizmi masalasida bolsheviklardan ham o‘zib, «Biz musulmonlarga hech narsa bermoqchi emasmiz», deb ochiqchasiga gapirgan. Toshkentlik baynalmilalchi-mensheviklar yetakchisi o‘zining nutqida «Keng demokratik asosdagi muhtoriyat»ni himoya qilib, ayni vaqtda uni darhol e‘lon qilib bo‘lmaydi, buning uchun sinchiklab tayyorgarlik ishlari olib borish kerakligini aytgan⁵⁵.

Toshkentda 1917- yil 15–22- noyabrda bo‘lib o‘tgan sovetlarning III o‘lka s‘yezdida bo‘lganidek Turkiston xalqlari uchun g‘oyat muhim bo‘lgan o‘lkaning muhtoriyati masalasi tor doiradagi «rus demokratiyasi» vakillari tomonidan hal qilingan, amalda Turkiston xalqqarining vakillari ishtirok etmadi.

Keyinchalik 1917- yil 28- noyabrda Turkiston Muhtoriyati e‘lon qilingan bo‘lsa-da, mahalliy aholi vakilrining hohish-irodasi hiobga olinmadi. Turkiston

⁵⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 69.

bolsheviklari o'lkada «millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash» siyosatini sovetlar andozasi asosida amalga oshirishga qaratilgan yo'lni qat'iyat bilan olib borganlar.

Mazkur masala yuzasidan bolsheviklar fraksiyasi taklif etgan va s'yezd qabul qilgan rezolyusiyada joylarda hokimiyat sovetlarga tegishli bo'lishi lozim, deb aytilgan. «Burjua muhtoriyati» sifatida ta'riflangan Turkiston Muhtoriyatiga qarama-qarshi o'laroq bolsheviklar rezolyusiyasi Turkistonda hali shakllanmagan «o'lkaning proletar muhtoriyati»ni taklif qilgan, unga tayyorgarlik kurishni «proletariatning musulmon qatlamlari orasida sinfiy ongni ko'tarish uchun» kasaba uyushmalarida va sovetlarda «musulmon proletar ommasini»ni tashkil etish yo'li bilan boshlash kerakligini uqtirgan. Rezolyusiyada to'g'ridan-to'g'ri «biz halqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyilini umuman sotsializmga bo'ysundiramiz. Biz halqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashini mehnatkash sinflarning o'z taqdirini o'zi belgilashi sifatida tushunamiz», deb ko'rsatib o'tilgan. Shunday qilib, s'yezdda bolsheviklar «millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash» tamoyilini «mehnatkash sinflar»ning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili bilan almashtirganlar, ya'ni «millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi» asosiga butunlay sinfiy tus berganlar⁵⁶.

Oktabr to'ntarishidan keyingi bolsheviklar rejimi o'rnatilgan dastlabki kunlardan o'z milliy siyosatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash, mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqishgacha bo'lgan huquqini e'lon qilib, mazkur insonparvar huquqni amalda ro'yobga chiqarishga sinfiy yondashib, bu huquqni o'z taqdirini o'zi belgilovchi butun millat doirasida emas, balki faqat «mehnatkash omma» qatlami bilangina chegaralanganlar.

Musulmon jamoatchiligi tomonidan mahalliy aholiga o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqini berish haqidagi ko'p marta qilingan iltimoslariga qaramasdan, bolsheviklar va so'l eserlar Turkiston xalqlari uchun hayot-mamot hisoblangan muammoga, ya'ni o'lkada milliy davlatchilikni barpo etish masalasiga buyuk davlatchilik-shovinistik nuqtai nazaridan qaraganlar, bu halqlarning ishtirokisiz,

⁵⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 70.

ularning orzu-umidlarini hisobga olmasdan o'zlaricha hal qilganlar. Shu munosabat bilan 1918- yil yanvarda «Ulamu» tashkilotining yetakchisi Sherali Lapin «rus sotsialistlariga» maktub bilan murojaat qilgan, unda quyidagilar ta'kidlangan: «Agar siz, bolshevik fuqarolar, chinakam sotsialistlar bo'lsangiz va Turkistonning musulmon halqiga yaxshilik istasangiz, unga o'z hayotini yangicha demokratik asoslarda barpo etishiga yordam berishingiz lozim. Siz unga siyosiy erkinlik berdingiz, endi uning mustaqil ravishda o'z taqdirini o'zi belgilashi uchun imkoniyat bering»⁵⁷. Sovetlarning IV o'lka s'yezdida Turkiston Muhtoriyati to'g'risidagi masalaning muhokama qilinishi yakunlariga qaraganda, bolsheviklar musulmon jamoatchiligining bu iltimosiga mutlaqo e'tibor bermaganlar.

Milliy-davlatchilik qurilishi muammolariga sinfiy yondashuv Rossiyaning boshqa mintaqalaridagi bolsheviklar uchun ham, umuman butun bolsheviklar rejimiga xos xususiyat edi. RSFSR Millatlar xalq komissarligining 1918- yil mart-aprelda qabul qilgan Direktivalarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilganidek muhtoriyatni joylardagi sovetlar negizida qurish zarur, toki «Muhtoriyat mazkur millatning yuqori tabaqalariga emas, balki quyi tabaqalariga hokimiyatni ta'minlab bersin». Stalin boshchilik qilayotgan Millatlar xalq komissarligi shuni ma'lum qilganki, sho'ro hukumati joylarda vujudga kelgan har qanday milliy davlat tuzilmasini emas, balki faqat sovetlarga tegishli bo'lgan tuzilmalarnigina e'tirof etadi. RSFSR Millatlar xalq komissarligining «Qozon, Ufa, Orenburg, Yekaterinburg sovetlariga, Turkiston o'lkasi xalq komissarlari kengashiga va boshqalarga» yuborgan murojaatnomasi ana shundan dalolat beradi. Ularda sovet hukumati «Tatar-Boshqird hududining muhtoriyatini e'lon qiladi... Qirgiz hududini, Turkiston o'lkasining hududini muhtoriyat deb e'lon qilish loyihalashtirilmoqda»⁵⁸, deyilgan. Bu Rossiyada sovet tasarrufidagi muhtor tuzilmalarning tashkil etilishi chekka o'lkalar halqlarining tashabbusi bilan emas, balki yuqoridan bo'lgan ko'rsatma asosida va RSFSR Millatlar xalq komissarligining bevosita rahbarligi ostida sodir bo'lgan.

⁵⁷ Абдуллаев Р. Туркестанские прогрессисты и национальное движение // «Звезда Востока». 1992, №1. – С. 113.

⁵⁸ История Советской Конституции // Сборник документов. 1917–1957 гг. – М., 1957. – С. 7.

RSFSR Millatlar xalq komissarligining bu direktivasi, uning nomidan ko‘rinib turganidek Turkistonga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador edi. 1918- yil 20 martda Toshkentdan RSFSR Millatlar xalq komissarligiga telegramma yuboriladi, unda «shoshilinch ravishda ichki Rossiya musulmonlari ishlari yuzasidan bitta komissarni yuborish, uni to‘liq yo‘l-yo‘riqlar bilan ta‘minlash» iltimos qilingan. Ana shu iltimosga javoban Turkistonga sovet hukumatining O‘rta Osiyo va Cho‘l o‘lkasidagi komissari N. A. Kobozev hamda RSFSR Millatlar xalq komissarligining vakillari – A. Sh. Klevleyev va X. Ibroximov yuboriladi, ular Turkiston sovet muhtoriyatini tayyorlashda bevosita ishtirok etganlar⁵⁹.

Markaz vakillarining rahbarligida turkistonlik bolsheviklar sovet muhtoriyati g‘oyalarini keng targ‘ib qilishni avj oldirib yuborganlar. Matbuot sahifalarida, bolsheviklarning yig‘ilishlarida aholiga o‘lkaga faqat sovet asoslarida muhtoriyat berilishi, hokimiyatga uning «mehnatkash qatlamlarini keng jalb qilish, milliy tilni va madaniyatni rivojlantirish, milliy urf-odatlar va an‘analarni saqlab qolish va boyitish imkoniyatini, butun hokimiyatni to‘la-to‘kis xalqning qo‘liga beradi», deb ishontirishga uringanlar.

Ayni vaqtda 1918- yilning bahorida mahalliy sovetlarni qayta saylash yuzasidan keng tadbir o‘tkazildi, buning natijasida sovetlardan, bir tomoidan, eserlar va mensheviklarning vakillari siqib chiqarildi, ularning o‘rnini bolshevik deputatlar va so‘l eserlar egallaganlar, ikkinchi tomondan, sovetlarga «mehnatkash qatlamlar»dan bo‘lgan mahalliy aholi vakillari jalb qilingan. mahalliy sovetlarni qayta saylash natijasida mahalliy millat vakillari Andijon kengashi a'zolari orasida 50 foizni, Namangan kengashi a'zolari orasida 40 foizni, O‘sh kengashi a'zolari orasida 30 foizni tashkil etdi va hokazo. Faqat Toshkent kengashi tarkibida o‘zbek «proletariati»ning 100 dan ortiq vakili bor edi⁶⁰. Shu munosabat bilan P. A. Kobozev 1918- yil 16 aprelda RSFSR Xalq Komissarlari Kengashiga yullagan telegrammasida quyidagilarni ma'lum qilgan: «Toshkent proletar parlamenti saflarida oq musulmon sallalari sezilarli ravishda ko‘payib qoldi, uning tarkibidagi

⁵⁹ Qarang: Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т.: Шарк, 2000. – С. 115.

⁶⁰ Иноятов Х.Ш. Октябрьская революция в Узбекистане. – М., 1958. – С. 300.

a'zolarining uchdan bir qismiga yetdi». Mahalliy sovetlar tarkibida mahalliy millatlar deputatlari soni 1918- yil bahoridagi qayta saylovlar natijasida qisman ko'payganligini e'tirof etgan xolda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, saylangan deputatlarning umumiy soniga nisbatan mahalliy millatlar deputatlari soni avvalgidek sovetlarda mutlako ozchilikni tashkil etayotgan. Shahar va viloyat sovetlarining rahbarlari orasida ular umuman yuq edi. Yana shu muhim narsani ham unutmash kerakki, saylangan deputatlar butun mahalliy aholining manfaatlarinigina emas, balki faqat uning «proletar» qismining manfaatlarini ifodalay edi. Mahalliy aholi orasida esa «proletar» qatlam mutlako ozchilikni tashkil qilay edi.

Turkistonda bolsheviklar rejimining qaror topishi va mustahkamlanib borishiga qarab xalq komissarlari kengashi va mahalliy sovetlar tomonidan avvalgi hokimiyat organlari – ijroiya qo'mitalar va jamoat xavfsizligi qo'mitalari, shahar dumalari va zemstvo mahkamalari tarqatib yuborilgan. Muvaqqat hukumatning uyezd komissarlari lavozimlari bekor qilingan. Joylardagi hokimiyatning butun vakolatlari to'laligicha mahalliy sovetlar qo'lga o'tdi. Shu bilan bir qatorda milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar («Sho'roi Ulamo», «Sho'roi Islom» va boshqalar) tarqatib yuborildi, gazeta va jurnallar, shu jumladan, «Ulug' Turkiston», «Izoh», «Izhor ul-haq» va boshqalar yopildi, bu nashrlar bolsheviklar rejimini, uning halqqa qarshi qaratilgan xatti-harakatlarini fosh etgan⁶¹. Shoshilinch ravishda yangi hokimiyatning markaziy va mahalliy apparati, dastavval uning jazo organlari – favqulodda komissiyalar, inqilobiy tribunallar tashkil etilgan. Inqilobiy tribunallar boshqacha fikrlovchilarni, erkinlik va demokratiyani bostirishda bolsheviklar rejimining muhim quroli bo'lib xizmat qilgan va mustabid tuzum tarixiga ko'pgina dahshatli sahifalar yozdi. Yangi hokimiyat farmoni bilan yopib qo'yilgan gazeta va jurnallar o'rniga bolsheviklar izmidagi hukumat organlari va mahalliy sovetlar organlari bo'lgan yangi gazeta va jurnallar hamma joyda chiqay boshlagan.

1918- yil 20 apreldagi Toshkentda sovetlarning V o'lka s'yezdida 263 delegat, shu jumladan, mahalliy millatlardan 50 delegat ishtirok etgan, bu esa

⁶¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 73.

delegatlarning bor-yo‘g‘i 20 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, mahalliy millat vakillari s‘yezdda mutlaq ozchilikni tashkil qilgan. Ulardan ikki nafari – Xusayn Ibroximov va Sa‘dulla Tursunxo‘jayev s‘yezd hay‘ati tarkibiga saylandi. Delegatlarning aksariyati bolsheviklar va so‘l eserlar edi. Bolsheviklar 86, so‘l eserlar 70 kishi edi. Binobarin, ular s‘yezd ishining yo‘nalishini belgilab berganlar. S‘yezd kun tartibida quyidagi masalalar turardi: Halq Komissarlari Kengashining ma‘ruzasi, sanoatni natsionalizatsiya qilish, ocharchilikka va ishsizlikka qarshi kurash, hozirgi sharoit, Turkiston sovet muhtoriyatining e‘lon qilinishi munosabati bilan komissarliklarni, hokimiyatni qayta tashkil etish va boshqalar. S‘yezdning asosiy vazifasi Turkiston sovet muhtoriyatini e‘lon qilish edi.

Bu muhtoriyatning qanday bo‘lishi masalasi Markazning yuqorida tilga olib o‘tilgan direktivalarida oldindan hal qilingan. Markazning bu yo‘li sovet hukumatining boshlig‘i V. I. Lenin va millatlar ishlari xalq komissari I. V. Stalinning s‘yezdga yo‘llagan telegrammasida yana bir bor o‘z ifodasini topgan. Telegrammani delegatlarga A. S. Klevleyev o‘qib bergan. Telegrammada to‘g‘ridan-to‘g‘ri «Xalq Komissarlari Kengashi o‘lkangiz muhtoriyatini sovet asoslarida qo‘llab-quvvatlaydi» deb ko‘rsatib o‘tilgan⁶². Shunday qilib, Moskvadan kelgan hujjatda aslida o‘lka muhtoriyatining qanday bo‘lishi haqida aniq ko‘rsatma mavjud bo‘lib, s‘yezd delegatlariga RSFSR hukumati Turkistonning har qanday muhtoriyatini ham qo‘llab-quvvatlamasligini, faqat Markazga ma‘qul keladigan sovet muhtoriyatini qabul qilishini ochiqchasiga bildirib qo‘ygan. Delegatlar uchun Moskvaning bunday ko‘rsatmasidan keyin Turkistonning sovet muhtoriyatini e‘lon qilishdan boshqa iloji qolmagan.

1918- yil 30 aprelda s‘yezd «Turkiston Sovet Federativ Respublikasi to‘g‘risida Nizom»ni qabul qilgan. Bu nizomga ko‘ra Turkiston o‘lkasining hududi «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi» deb e‘lon

⁶² Абдуллаев Р. Туркестанские прогрессисты и национальное движение // «Звезда Востока». 1992, №1. – С. 114.

qilinadi⁶³. Uning tarkibiga Turkistonning barcha hududi o'zining geografik chegarasi bilan kiritildi, Xiva bilan Buxoro esa bundan mustasno edi. Turkiston respublikasi muhtoriyat tarzida boshqarilib, o'zining barcha faoliyatini RSFSR hukumati bilan muvofiqlashtirar va uni e'tirof etilar edi. Rossiya bilan o'zaro munosabatlarni belgilash uchun s'yezd 5 kishidan iborat komissiya saylagan.

S'yezd birinchi marta oliy qonun chiqaruvchi organ – Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya qo'mitasini (TurkMIQ) 36 kishidan iborat qilib saylagan. MIQ a'zolaridan 18 kishi bolsheviklardan, 18 kishi eserlardan edi. A'zolar orasida mazkur partiyalarga mansub bo'lgan mahalliy millat vakillaridan – X. Ibrohimov, D. Mirzaboyev, A. Sh. Sharafutdinov, O. Yusupov, Q. Otaboyev va boshqalar bor edi. Biroq ular ozchilikni tashkil etgan. MIQ raisi qilib P. A. Kobozev, ikkinchi rais qilib bolshevik A. F. Solkin saylandi. Tub aholi vakillari bo'lmagan kishilar MIQ rahbarlari qilib saylangan.

S'yezdga F. I. Kolesov boshchiligida 14 kishidan iborat halq komissarlari kengashi ham (7 kishi bolsheviklardan va 7 kishi so'l eserlardan) saylandi. Turkiston hukumati tarkibiga birinchi marta mahalliy millat vakillari O. Tursunxujayev, H. Ibroximov va Ashurxo'jayev ham saylanganlar. s'yezdga saylangan 14 xalq komissaridan tashqari yana 2 xalq komissari – temir yo'llar hamda pochta va telegraf komissarlari saylandi, s'yezd ularni «mazkur s'yezd tayinlagan idoralarning boshliqlari qilib sayladi»⁶⁴. Shunday qilib, Turkiston Respublikasi hukumatining a'zolari qilib hammasi bo'lib 16 kishi saylandi, ulardan faqat uch kishi mahalliy aholi vakillari edi, holbuki, mahalliy aholi o'lka aholisining 95 foizini tashkil etgan.

Shu tariqa, Moskvaning ko'rsatmasi bilan Turkistonni sovet muhtor respublikami deb e'lon qilgan sovetlarning 5 o'lka s'yezdiga qadar bo'lganidek ko'p millionli mahalliy aholi vakillaridan o'lkani boshqarishda ishtirok etishi arzimas darajada qolavergan. Avvalgidek Turkistonni mahalliy aholi vakillari

⁶³ Воскобойников Э., Зевелев А Турккомиссия ВЦИК и Совнаркома РСФСР и Туркбюро ЦК РКП (б) в борьбе за укрепление советской власти в Туркестане. – Т.: «Государственной издательство Уз ССР», 1951. – С. 43.

⁶⁴ Хайдаров М. Туркистонда бошқарув аппаратини шакллантиришда Марказлаштириш тамойиллари (1917–1924 йй.) // ТошДУ хабарлари, 1999, №1, – Б. 62.

bo‘lmagan, bolsheviklar va so‘l eserlar partiyalariga mansub ishchilar, soldatlar, ziyolilardan chiqqan tor doira vakillari boshqarishni davom ettirdi, ular o‘zlari hohlagan tarzda, Markaz manfaatlarini hisobga olgan holda o‘lka xalqlari taqdirini hal qila boshlaganlar. Turkiston Avtonom Respublikasi hokimiyat tuzilmalariga oktabr to‘ntarishi natijasida o‘rnashib olgan bolsheviklar va umuman yevropaliklarning mahalliy aholiga nisbatan zo‘ravonligi haqida Turkiston Avtonom Respublikasi MIQ raisi Abdulla Rahimboyev sovetlarning 9 o‘lka s‘yezdida (1920- yil sentabr) qilgan ma‘ruzasida ta’kidlaganidek «...ko‘pgina hollarda o‘sha rus kelgindisi sotsialistik inqilob shiorlarini o‘z foydasiga qaratib, tinch mahalliy aholini talashda davom etdi»⁶⁵.

Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, sovetlarning V o‘lka s‘yezdi qarorlariga muvofiq muhtor Turkistonning federal hukumat bilan o‘zaro munosabatlarini aniqlash uchun Moskvaga 5 kishilik komissiya yuborildi, ulardan faqat bittasi (Sobirjon Yusupov) mahalliy aholi vakili edi. Komissiya markaziy hokimiyat vakillari bilan birgalikda harbiy, moliyaviy va temir yo‘l tarmoqlari sohalarini markazlashtirish, davlat boshqaruvining boshqa tarmoqlarini Turkiston Respublikasining o‘z ixtiyoriga berish, «mahalliy aholiga taalluqli» bo‘lgan ayrim Markaz delegatlarini o‘zgartirish huquqini berish to‘g‘risida bitimga erishdi. Biroq, Markaz erishilgan bitim shartlarini muntazam buzib, Turkiston Respublikasining ichki ishlariga qo‘pol ravishda aralashib kelgan⁶⁶.

Keyinchalik Turkiston Avtonom Respublikasining huquqlari yanada toraytirilgan. Turkiston Avtonom Respublikasining 1918- yil oktabrda sovetlarning VI o‘lka s‘yezdida bolsheviklar tahririda qabul qilingan birinchi Konstitutsiyasida boshqaruvning mudofaa, tashqi aloqa, temir yo‘llar, savdo va moliya kabi eng muhim sohalari federal hukumat tasarrufiga berilgan. Konstitutsiya Turkiston Respublikasining sinfiy hususiyatini qonun yo‘li bilan mustahkamladi⁶⁷. Unda ko‘rsatib o‘tilishicha, sovetlarga saylash va saylanishga faqat «boshqalar mehnatini ekspluatatsiya qilmaydigan, mehnat bilan topiladigan daromadga yashaydigan

⁶⁵ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т.: Шарқ, 2000. – С. 161–162.

⁶⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 76.

⁶⁷ Usmonov Q., Sodiqov M., Bugxonova S. O‘zbekiston tarixi. – Т.: «IQTISOD–MOLIYA», 2006. – Б. 260.

shaxslar: sanoat, savdo va qishloq xo'jaligida va boshqa sohalarda band bo'lgan barcha turdagi va toifadagi ishchilar, xizmatchilar, boyluk orttirish maqsadida yollanma mehnatdan foydalanmaydigan dehqonlar, kazaklar va fuqarolarning boshqa ayrim toifalari» haqli eganlar. Ayni vaqtda «mehnatsiz daromad» hisobiga yashaydigan shaxslar, din peshvolari, rohiblar, xususiy savdogarlar, tijoratchilar, tadbirkorlar va hokazolar saylash va saylanish huquqidan butunlay mahrum etilgan. Shu tariqa, qonun yo'li bilan Turkiston jamiyatining ko'pgina ijtimoiy qatlamlari va toifalari davlatni boshqarishda ishtirok etishdan chetlashtirilgan. s'yezd bolsheviklar bilan so'l eserlar o'rtasidagi keskin kurash bilan o'tdi. Bu kurash pirovard natijada 1919- yilning bahorida so'l eserlar partiyasini tarqatib yuborish bilan yakunlandi. Ana shu vaqtdan boshlab bolsheviklar Turkistonda yagona hukmron partiya bo'lib olganlar, ularning Markazdagi partiyasi ham 1918- yilning yozida shunday partiyaga aylangan. Rossiya sovet federatsiyasining Turkiston Avtonom Respublikasi milliy respublika emas, balki hududiy respublika edi. Chunki Markaz tomonidan berilgan avtonomiya mahalliy aholiga emas, balki hududga berilgan. Bolsheviklar e'lon qilgan sovet asoslaridagi Turkiston avtonomiyasi samaralaridan birinchi navbatda keng mahalliy aholi emas, balki eng avvalo, mahalliy aholining juda ham ozchiligini tashkil qilgan, «hukumat» partiyalari bo'lgan bolsheviklar va so'l eserlar partiyalari tarkibiga kirgan «proletar ommasi» qismigina foydalandi, holos. Bolsheviklar va so'l eserlar Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining viloyatlar, shahar va uyezd sovetlarida muhim lavozimlarni egallagan eganlar.

Bu kurash Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi e'lon qilingan dastlabki kunlardan oq avj olib ketdi. Sovetlarning V o'lka s'yezdida tashkil etilgan Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining Millatlar xalq komissarligi va uning mahalliy kengashlari huzuridagi bo'limlari mahalliy aholini davlatni boshqarish ishlariga jalb qilish yuzasidan katta ishlar olib bordi.

Musulmonlar jamoatchiligi va milliy vatanparvarlarning dastlabki yirik g'alabalaridan biri Turkiston Avtonom Respublikasi hukumati tomonidan rus tili bilan bir qatorda mahalliy tilning davlat tili deb e'lon qilinishi bo'ldi. Bu haqidagi

dekretni bajarish yuzasidan barcha «masul xizmatchilar» «sart tilini o'rganish majburiyatini olganlar». Shuningdek, Turkiston Respublikasining «proletar bayramlari» bilan bir qatorda «Navro'z» ham milliy bayram sifatida e'tirof etilgan. Bu bayram 1920- yildan e'tiboran 22 martda nishonlana boshladi. Shu munosabat bilan MIQning ichki ishlar boshqarmasi «Navro'z» bayrami 22 martda joriy qilinsin va doimiy bayram deb hisoblansin», deb ma'lum qilgan⁶⁸.

Milliy vatanparvarlarning davlat va partiya organlariga joylashib olgan buyuk davlatchi-shovinistlarga qarshi kurashi 1919- yil bahorida O'lka Musulmonlari byurosi tashkil etilganidan keyin yanada uyushqoqlik va sobitqadamlik bilan olib borilgan. Turkiston Kompartiyasi (TKP) huzuridagi mazkur byuro tarkibida T. Risqulov (rais), A. Muhiddinov, N. Xo'jayev, X. Ibrohimov, Yu. Aliyev bor edi. O'lka Musbyurosi va uning joylardagi tashkilotlari Turkiston ma'murlarining buyuk davlatchilik siyosatini dadil fosh qilib, o'lkani boshqarishda mahalliy aholini yanada kengroq jalb qilishga da'vat etganlar.

Turkiston o'lkasida bolsheviklar tuzumiga qarshi boshlanib ketgan istiqloqlilik harakati markaziy hukumatning mahalliy aholiga nisbatan o'z siyosatini bir oz yumshatishga majbur qilgan. RKP (b) MKning 1919- yil 12 iyulda TKP O'lka ko'mitasi hamda TurkMIQ nomiga yo'llagan radiogrammasida mahalliy aholini davlat faoliyatiga ishtirok etishga keng jalb qilish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Buyuk davlatchilik orzusi bilan zaharlangan Turkiston Antonom Sovet Respublikasi MIQ va TKP O'lka qo'mitasi rahbarlari MQ ko'rsatmalarini amalga oshirishga qat'iy qarshi chiqqanlar. Ular MKga yullagan telegrammala o'lkani boshqarishga mahalliy aholini keng jalb qilish haqidagi direktivani tezlik bilan bajarish mazkur mintakada sovet hokimiyatining halokatiga olib kelishi mumkinligini isbotlashga urinib ko'rganlar. O'lka partiya va sovet organlariga joylashib olgan buyuk davlatchi-shovinistlarning zo'r berib qarshilik ko'rsatishlariga qaramay o'lka Musbyurosi va uning joylardagi tashkilotlari Toshkent, Samarqand, Xo'jand va bo'shqa shaharlarda ommaviy mitinglar va yig'ilishlar o'tkazganlar, ularda bolsheviklarnipg mustamlakachilik siyosati fosh

⁶⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 78.

qilingan, mamlakatni boshqarishga mahalliy aholini keng jalb qilish to'g'risidagi talablar ilgari surilgan. Milliy vatanparvarlarning Turkiston Avtonom Respublikasi rahbar xodimlari orasidagi buyuk davlatchilik kayfiyatini tarqatuvchilarga qarshi olib borilgan qat'iy kurashi natijasida 1919- yil sentabrda bo'lib o'tgan TKP IV s'yezdi va sovetlarning VIII s'yezdi A. A. Kazakov va K. Ya. Uspenskiyning buyuk davlatchi-shovinistik og'machiligini fosh qilganlar va mahalliy aholi vakillarini davlat qurilishiga jalb qilish chora-tadbirlarini belgilaganlar⁶⁹.

Milliy vatanparvarlar butun kuch-g'ayratlari bilan Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining o'z xalqlari istiqomat qiladigan chinakam milliy respublikaga aylantirishga harakat qilganlar. Musulmon kommunistik tashkilotlarining III o'lka konferensiyasi (1920- yil yanvar) Turkiston Avtonom Sovet Respublikasini «Turk Respublikasi», Turkiston kompartiyasini «Turk Kommunistik partiyasi» deb atash to'g'risida qaror qabul qilgan⁷⁰. Shuningdek Turk Respublikasi o'zining mahalliy armiyasiga ega bo'lishi zarurligi qayd etilgan. Biroq o'lka xalqlarining bu talabiga Turkkommissiya keskin qarshi chiqdi, u RSFSR hukumatining 1919- yil 8 oktabrdagi qarori bilan Turkistonga maxsus yuborilgan. Turkkommissiya «MIQ va Xalq Komissarlari Kengashining vakili bo'lib, Turkiston o'lkasi va u bilan chegaradosh davlatlar hududida ular nomidan harakat qilish uchun» vakil qilingan. Markazning vakolatli organi bo'lgan Turkkommissiya avvalo bu yerda uning manfaatlarini ifodalari va himoya qilardi, bu manfaatlariga muvofiq kelmaydigan hamma narsaga qat'iy qarshi chiqardi. Turkkommissiya o'ziga berilgan huquqlardan keng foydalanib, o'lka partiya va sovet organlarining markazga ma'qul kelmaydigan qarorlarini bekor qilar, o'z qarorlari bilan Turkiston Respublikasi rahbar organlarini tarqatib yuborar va Markazga ma'qul keladigan kishilardan yangi hokimiyat organlarini tuzar, respublika hokimiyat organlarini almashtirar edi. Turkkommissiya bilan oldindan kelishib va unga ma'qullatib olmasdan turib, Turkiston Avtonom Respublikasi rahbar organlari tomonidan birorta ham jiddiy hujjat qabul qilinishi mumkin emasdi. Shunday qilib,

⁶⁹ Назаров М.Х. Коммунистическая партия Туркестана во главе защиты завоеваний Октябрьской революции. – Т., 1969. – С. 216-217.

⁷⁰ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т.: Шарк. 2000. – С. 153.

Turkkomissiya respublika hokimiyat organlarining tashabbusi va mustaqilligini jiddiy ravishda cheklar, Turkistonning muhtor huquqlarini poymol qilardi. O'zining imperiyacha printsiplariga sodiq qolgan Turkkomissiya 1920- yil 23 fevralda musulmon kommunistlarining 3 o'lka konferensiyasi tomonidan qabul qilingan TASSRni «Turk Respublikasi» va Turkiston KPni «Turk Kompartiyasi» deb qayta nomlash haqidagi qarorini bekor qilgan⁷¹. Turkkomissiyaning bu xatti-harakatini RKP(b) MQ ma'qulladi va qo'llab-quvvatladi.

Biroq milliy vatanparvarlar qo'l qovushtirib o'tirmaganlar. Ular Moskvaga T. Risqulov, N. Xo'jayev va Bex-Ivanovdan iborat delegatsiya yuborganlar. Delegatsiya a'zolari 1920- yil 23 mayda RKP(b) MQga ma'lumotnoma topshirganlar, unda muhtor Turkistonning huquqlari poymol etilayotgani, unga katta mustaqillik berish lozimligi va xokazolar aytilgan. Delegatsiya Turkkomissiyani bekor qilishni va uni chaqirib olishni talab qilgan. Uning mavjudligi va hatti-harakatlari Turkiston avtonomiyasiga zid ekanligi aytilgan. Biroq, kutilganidek delegatsiyaning takliflari MQ tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Shunga qaramasdan, «burjua millatchilari» yorlig'i taqilgan bu milliy vatanparvarlarning sa'y-xarakatlari izsiz ketmadi. Markaz birmuncha yon berishga majbur bo'ldi. Mahalliy millatlarning vakillari 1920- yil o'rtalaridan boshlab rahbarlik lavozimiga bir qator kengroq ko'tarila boshlaganlar. Masalan, TKP MKning masul kotibi qilib Nazir Turaqulov, TurkMIQ raisi qilib Abdulla Rahimboyev tayinlangan. Turkiston Avtonom Respublikasi rahbarligiga o'tgan milliy vatanparvarlar keng xalq ommasini mamlakatni boshqarishga jalb qilishga, o'z xalqining manfaatlarini himoya qilish va bu huquqni qo'ldan bermaslikka kuch-g'ayrat sarflaganlar. Biroq Rossiyada hukmron bo'lgan bolsheviklar rejimini va uning imperiyacha manfaatlarini himoya qilgan Turkkomissiya butun kuch va vositalar bilan milliy vatanparvarlar muddaolarining to'la-to'kis ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qilgan. Respublikani boshqarishga milliy kadrlar keng jalb qilinsada, Turkiston amalda avvalgidek Markazga mustamlaka qaramligida qolavergan, uning bu sohadagi ahvoli chorizm hukmron bo'lgan zamonlarga

⁷¹ Турсунов Х. Т. Национальная политика Коммунистической партии в Туркестане. – Т., 1971. – С. 193.

nisbatan kam o'zgardi. RKP(b) MQ milliy respublikalar va viloyatlarning masul xodimlari bilan o'tkazgan IV kengashida Turkistonning taniqli jamoat va siyosiy arboblari Akmal Ikromov, Sultonbek Xo'janov so'zlagan nutqlarida buni oshkora va dadillik bilan aytganlar. Ularning fikricha, «hozirgi Turkiston bilan podsho Turkistoni o'rtasida hech qanday farq yo'q, faqat lavha o'zgardi, Turkiston, avvalgidek chorizm davrida qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolavergan»⁷².

Turkistonni Rossiya Federatsiyasining avtonom sovet respublikasi deb e'lon qilinganligi va Turkiston Avtonom Respublikasining dastlabki yillardagi faoliyati taxliliga yakun yasab, shunday xulosa chiqarish mumkinki, oktabr to'ntarishidan keyingi barcha o'zgarishlar Turkiston xalqlarining xoxish-irodasi bilan amalga oshirilmadi, balki Moskvaning bevosita ko'rsatmasi bilan, sovetlar V s'yezdida ko'pchilikni tashkil etgan bir necha shovinist bolsheviklar va so'l eserlar tomonidan amalga oshirilgan. O'lka halqlari esa Turkiston sovet avtonomiyasini tuzishda mutlaqo ishtirok qilmaganlar, ularning xoxish-istaklari so'ralmadi. Binobarin, TASSR tashkil etilishidek «muhim tarixiy» tadbirning amalga oshirilishidan faqat «proletariat» orasidan chiqqan, «hukmron partiyalar»ga mansub mahalliy bo'lmagan aholi vakillari manfaat ko'rganlar. Ular respublikani boshqarishga kelar ekanlar, Markaz siyosatini qattiq turib amalga oshirganlar, Turkiston halqlariga emas, balki Markazga astoydil xizmat qilganlar. Bularning hammasi tabiiy ravishda mahalliy aholini, ayniqsa, milliy vatanparvarlar noroziligining kuchayishiga olib kelgan.

2.2. Sovet hokimiyati madani-ma'rifiy islohotlar

Yosh avlodni o'qitish, buning uchun shart-sharoitlar yaratish xalq ommasi, uning ilg'or vakillari uchun dolzarb bo'lib kelgan. Ma'rifatparvar olim, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy (1878–1934) maktab masalasi, ya'ni «tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir», deb ta'kidladi. Bu jami o'zbek ziyolilarining e'tiqodi, qarashi bo'ldi. Ular yangi

⁷² Tarix shohidligi va saboklari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Т.: «Шарк», 2001. – Б. 79.

maktablar ochish, o`quv-tarbiya ishlarini rivojlantirish, internatlar tuzib yetim bolalarni to`plash, muallim, tarbiyachilarni tayyorlash ishlariga faol kirishib ketdilar. Behbudiy maslakdoshlariga «Maorifga yordam etingiz... Maorifni Buxoro tuprog`iga joriy qilingizlar!», deb vasiyat qildi. 1919- yil bahorida uni amir jallodlari Qarshida qatl qildilar⁷³.

Xalq ta`limining iste`dodli tashkilotchilari Abdulqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullayev, Is`hoqxon Ibrat, O.Dadaxo`jayev, Abdulla Mustaqov, Hodi Fayziyev, Ashurali Zohiriy, Sobirjon Rahimov, Shokirjon Ra-himiy, Qori Niyoziy, Said Rizo Alizoda, To`xtanazar Shermuhamedov, Rafiq Mo`min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o`sdi. 1918- yil boshida 330 taga, 1920- yilda Farg`ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 1405 taga yetdi. Tashkil bo`lgan maktablar, ayniqsa, qishloq joylarida va tumanlarida asosan 1–2-boshlang`ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo`lib bordi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo`qonda va boshqa joylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlari Solihaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulsum Kopayeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar dars-tarbiya ishlarini olib borganlar⁷⁴.

Keng doiradagi bilimdon ziyolilar qator maktablar faoliyatini namunali darajaga ko`tardilar. 20- yillar boshi-da Samarqandda Abdulqodir Shakuriy (1875–1943) mudirlik qilgan maktab, 1922- yilda Farg`ona shahrida Husanxon Niyoziy boshchiligida ochilgan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidan edi.

Milliy, jadid maktablari uchun darsliklar, o`qish kitoblarini ziyolilarimiz asr boshidan yozib chiqarib keldilar. 1917- yildan maktablar sonining o`ssishi, maorif ijtimoiy darajasining ko`tarilishi darsliklarga talabni oshirdi. Pedagog, olim, davlat arbobi Abdulla Avloniy 1917- yilda «Turkiy guliston yoxud axloq» tarbiyaviy-didaktik kitobini qayta nashr qildi, shuningdek, «Maktab gulistoni» o`qish kitobini,

⁷³ Behбудий М. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1997. – Б. 8.

⁷⁴ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: Университет, 2006. – Б. 127.

ikki jildlik «Adabiyot yoxud milliy she`rlar» kitoblarini yaratdi va chop etdi. 1920-yil-dan Toshkentdagi o`lka bilim yurtida, so`ngra o`zbek xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi.

Fitrat 1917- yilda «O`quv» kitobini, 1919- yilda Sh.Rahimiy va Q.Ramazon bilan birga «Ona tili» darsligini, so`ngra «Imlo masalalari» kitobini yozib chiqardi. 1917- yildayoq Said Rizo Alizoda birinchi sinflar uchun «Birinchi yil» o`qitish dasturini ishlab chiqdi. Shokirjon Rahimiy 1919- yilda birinchi alifbo «Sovg`a», 1922- yilda «O`zbek alifbosi» darsliklarini, boshqa o`quv qo`llan-malarini chiqardi. 1918- yildan u Toshkentda maktab mudiri bo`lgan.

Buxoro va Xorazm respublikalarida ham maktablar, ta`lim-tarbiya maskanlari ochildi. Aholining bolalarni o`qitishga, ilm-ma`rifatga ishtiyoqi kuchayib borgan, bunday talablar katta yig`inlarda yangragan. Ammo xo`jalikning parokandaligi, sun`iy to`siqlar oqibatida XX asr 20- yillari boshida maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qilish to`xtadi. 1922- yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro respublikasida 1921- yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o`quvchi bor edi. Lekin 1924- yil o`rtalariga kelib maktablar 69, o`quvchilar 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta`lim maktablari va internatlarda 2600 bola ta`lim-tarbiya oldi. O`zbekiston respublikasi tashkil bo`lganida turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo`lib, ularda 116 ming o`quvchi o`qir edi⁷⁵.

XX asrning 20- yillari madaniyat tarixshunosligida eng mashaqqatli va ziddiyatli davr bo`lib, bu xususiyat mazkur masalaga oid tarixiy adabiyotlarda ham o`z aksini topgan edi. Zotan, bu yillarda yashab, ijod etgan mualliflar bevosita sodir bo`layotgan jarayonlarning tirik guvohiga aylangan, bo`lib o`tayotgan voqealarga o`zlarining ob`etiv baholarini berib borgan edilar. Albatta, bunday imkoniyatlar, muqobil fikrlarning aytilishi hali totalitar rejimning u qadar kuchga kirmaganligi bilan belgilanadi va shuning uchun ham biz bugungi kunda sermazmun, dalillarga boy, sovet sistemasining, ayniqsa madaniyat sohasida olib

⁷⁵ Жадидчилик, ислохот, янгиланиш, мусатақиллик ва таракқиёт учун кураш (даврий тўплам №1) – Т.: Университет, 1999. – Б. 121.

borgan siyosatiga tanqidiy munosabatlar ochiq bildirilgan qiziqarli maqolalarga egamiz.

Turkistonda «maorif», «maktab», «o`qituvchilar» muammosi XX asrning boshlaridayoq echilishi lozim bo`lgan eng dolzarb masalalardan hisoblangan va o`sha davrda jadidchilik harakati deb nom olgan oqim vakillari mamlakat, xalqning taraqqiyoti uchun birinchi navbatda maorif hamda ta`lim-tarbiyani tubdan o`zgartirish, yangi maktab tuzish, ularni boshqarish masalalarini asosiy o`ringa ko`targan edilar. Shubhasiz, bu muammolar jadidlar matbuotining ham ustuvor mavzusiga aylangan. Biroq, Turkistonda Oktabr to`ntarishidan so`ng hokimiyat tepasiga kelgan bol`sheviklar mamlakatning ma`naviy hayotida, ayniqsa maorif sohasida «tubdan yangilanish», ya`ni ilgaridan mavjud bo`lib kelgan barcha turdagi o`quv muassasalarini yo`q qilish, o`quv-tarbiya jarayonini siyosiylashtirish, proletar g`oyasini targ`ib qilish va uning hokimligini o`rnatish kabi maqsadlarni ko`zlagan edilar. Chunonchi, o`lkada tuzilgan Maorif Xalq Komissarligi tarkibida dastlab mahalliy millat vakillarining kiritilmaganligi va musulmon maorifiga e`tibor sustligi o`sha davr matbuoti sahifalarida keskin tanqidga uchradi⁷⁶.

F. Yegorovning qalamiga mansub bo`lgan «Turkiston musulmonlarining maorifi haqida» deb nomlangan maqola bu haqda to`laqonli tasavvurni beradi. Turkiston shart-sharoitidan kelib chiqib yozilgan ushbu maqolada muallif maorif sohasidagi kamchiliklarni ochishga harakat qiladi. Uning yozishicha: «Respublika maktablari ruslar va boshqa mayda millat vakillari uchun ommabop bo`lsa-da, musulmonlar son jihatdan ustunligiga qaramay (aholining 95% musulmonlar), ular uchun deyarli hech narsa qilinmadi, ...va bunga sabab, birinchidan ommaning eski hayot tarziga o`rganganligi, ikkinchidan, ularning yetarli darajada uyushmaganligi va buning natijasida ular orasida maorif komissarining yo`qligi va uchinchidan, o`lka Maorif Xalq Komissarligiining noto`g`ri tuzilganligi bo`lib, u ham xuddi Rossiya imperiyasi davridagidek musulmonlar maorifiga e`tibor bermay, qo`l orasidan qarash yo`liga o`tib olganligida edi». Maorif Xalq Komissarligiining

⁷⁶ Мустафаева Н. Туркистон миллий зиёлиларининг қарашларида аёлларнинг оила ва жамиятда тугган ўрни масалалари роли ва гендер муаммолари: // Илмий-амалий конференция маърузалари тўплами. – Т.: Фан, 1999. – Б. 61–63.

nazoratida faqat respublika xarakteriga ega bo'lgan maktablar bo'lib, o'lkada musulmonlari uchun faqat 100-130 ta shunday maktablar ochilgan. Bundan tashqari bu maktablarda etti yillik o'rniga faqatgina 1 yoki 2 yillik boshlang'ich sinflar ochilgan bo'lib, ularning hammasi ham umumrespublika maktablariga aylantirilmagan, mahalliy musulmon aholisi esa maktab va madrasalarda o'qishni davom ettirib, ularda yiliga 50.000 ga yaqin musulmon ta'lim olar edi. F. Egorovning ta'kidlashicha, bu maktablarning ishlariga aralashmaslik yoki to'g'ridan-to'g'ri 50 yillik Rossiya imperiyasi davridagidek, umuman tan olmaslik printsiplari qo'llanilgan. Maorif Xalq Komissarligi huzurida ularga o'rin berilmagan, birlashtiruvchi tashkilotga ega bo'lmay ular o'z hollariga tashlab qo'yilgan. Chunki, bu maktablarda din o'qitilishi munosabati bilan ularni tubdan o'zgartirishni istamaganlar. Bunday vaziyatdan chiqishning yo'lini F. Egorov quyidagicha tasavvur qiladi: «Turkistonning iqtisodiy gullashi va umumiy farovonligini oshirishga bog'liq barcha madaniy choralarni amalga oshirish uchun musulmonlarni ma'rifatli qilishning qat'iy o'ylagan rejasini tuzish, ularning diniy maktablarini nazardan chetda qoldirmay musulmonlarning turmush xususiyatlarini e'tiborga olib, asrlar davomida ularning hayotidan joy olgan islom negizlarini kuch bilan sidirmay, aksincha reja asosida asta-sekin diniy maktablarni qaytadan tashkil etish zarur. Agar bu mas'ul madaniy o'qartuv ishlari birgina Maorif Xalq Komissarligiga og'irlik qilsa, u vaqtda bu ishlarni musulmon aholisiga yaqin bo'lgan Milliy Ishlar Komissarligii bilan hamkorlikda amalga oshirish mumkin». Garchi, muallif sovetlarning bu sohadagi siyosatiga tanqidiynuqtai nazardan yondashgan bo'lsa-da, ammo u yangi tizimning vakillaridan biri edi⁷⁷.

Turkiston o'lkasidagi xalqmaorifini tahlil qilish, ularning echilish yo'llari va usullarini izlash, maktablarda dinning o'qitilishi zarurati bormi yoki yo'qligi kabi masalalar doimo milliy ziyolilarning diqqat markazida bo'lib keldi. Albatta, o'z davri uchun bu masalalarning hal etilishi turli xil fikrlar, tortishuv va bahslarga sabab bo'lgan. Masalan, Ismoil Haqqiy o'quvchilarga faqat etti yillik maktablar

⁷⁷ Мустафаева Н. Туркистон маорифи XX асрнинг 20- йиллари муаллифлари назарида // О'zbekiston tarixi, №1. 2004. – Б. 33.

kifoya emasligini aytadi. «Ular uchun oliy maktab boʻlgan - dorilulmualliminning hajmi cheklangan, maqsadi muallim. Bizning muallimlarga ehtiyojimiz bordir. Faqat, ortiq har oʻquv-yozuvni bilgan kishini qoʻlidan tutib muallim qilmasmiz va qilmaylik ham. Bu millatning ehtiyoji birgina muallimgina emas, doktorlar, muhandislarga, advokatlarga, adib, muharrir va shoirlarga, xulosa belgili odamlarga ehtiyoji ortiqdir». Bunday mutaxassislarni et-kazishda muallif Turkiston oʻlkasida ixtisoslashgan gimnaziya, litseylar ochish fikrini oʻrtaga tashlaydi. Uning bu takliflarini Shokirjon Rahimiy ham qoʻllab-quvvatlaydi va «bu ochiladurgan kurslar hozirga qadar boʻlganlari kabi oʻn-oʻn besh turli fandan iborat boʻlmasdan birinchi navbatda riyoziyot, tabiat, ona tili, tarix va joʻgʻrofiya kabi aniq fanlarga ahamiyat kerak, ham har bir fan ila barobar usuli taʼlim yoʻllari (metodikasi) koʻrsatmalari mutlaq zarurdir», - deb yozadi. Rus tilida chop etilgan gazeta sahifalarida oʻz maqolalari bilan ishtirok etgan mualliflar esa asosan oʻqitish usulini yangilash, oʻquvchilarning estetik tarbiyasini proletarlashtirish, ularni mehnatga jalb etish, fanlarni isloh qilish va albatta «sotsialistik gʻoya» ruhida tarbiyalash kabi masalalarga eʼtibor qaratganlar⁷⁸.

Ammo, Turkistonda maorif sohasida amalga oshirilishi kerak boʻlgan ishlar kutilgan natijalarni bermadi. XX asr 20- yillarning boshlarida nashr etilgan «Bilim oʻchogʻi», «Наука и просвещение», «Жизнь национальностей» va boshqa shu kabi jurnal sahifalarida chop etilgan maqolalarda Turkistonda sovet hukumati oʻrnatilgandan keyingi 4 yil ichida yangi maktablar qurilishi tarqoq, tartibsiz, hattokisarosimali ravishda boshlangan, oʻqituvchilarning saviyasi pasayib ketgan, katta xatoliklarga yoʻl qoʻyilganligi hakida maʼlumotlar berilgan edi. Fami Rusalʼ, P. Serbovlar bunday kamchiliklarni «tajriba» deb baholab, uning asosiy sabablarini sabr - toqatning, har tomonlama izlanishning etishmasligi, rejali va mustahkam boshqaruvning yoʻqligida koʻradilar. Zero, P. Serbovning qayd qilib oʻtganidek, «oʻzlarining gʻoyalarini tezda roʻyobga chiqarishga dildan intilgan, Turkistonda yangi maktabni tuzishning birinchi tashkilotchilari hayotiy shart-sharoitlarni

⁷⁸ Мустафаева Н. Туркистон маорифи XX асрнинг 20- йиллари муаллифлари назарида // Оʻzbekiston tarixi, №1. 2004. – Б. 34.

hisobga olmagan, hayot tomonidan qo`yilgan benihoya katta talablarni to`xtovsiz amalga oshirishga harakat qilgan edilar». Natijada, Turkistonda sovet hokimiyati o`rnatilgach, hech qayoqqa qaramay, o`ylanmagan ravishda maktab qurilishi boshlanib ketadi. Hatto, ba`zida bu o`zbilarmonlik xususiyatiga ega edi. «Ishchi» taxallusi bilan imzolagan muallif - Tilla Xonja «...uch-to`rt maktabni olib borishga kuchimiz etmasligi aniq bo`lgan holda ham, biz oltmish-etmishlab maktablar ochdik va shunga o`xshash har birnarsada odatimizcha «bor-barakalla» qildik. Tabiiy, «qozonda bo`lsa cho`michga chiqadi, qozonimizda yo`q ekan, cho`michimiz quruq chiqa boshladi, - deb kinoyali yozishi o`sha davrdagi ahvolning aniq tasavvurini beradi. Shu bilan birga, maktablar qanchalik ko`p ochilsa, ularning ahamiyati shunchalik pasayib bordi. Tajribali o`qituvchilar, o`quvdarsliklari, dasturlarning etishmasligi, imtihonlarning olib tashlanganligi - bularning barchasi maktabning faqat tashqi jihatdan maktab, deb atalishiga olib keldi. Sh.Rahimiy «maktablar har erda, ko`zga ko`rinarli bino, o`quvchi bo`lsa bas, ochila berdi», - debyozgan edi. Inqilobdan keyingi dastlabki uch-to`rt yilda maktab qurilishi moddiy ta`minoti, pul vositalari, uy-joy va madaniy kuchlarning mavjudligini hisobga olmay to`xtovsiz ravishda o`sdi. «Ularni hisobga olish juda zaif bo`lib, - deb ko`rsatgan edilar P.Serbov va F. Rusal,- vujudga kelgan maktablar haqidagi aniq tasavvurlarga nafaqat Turkiston Xalq Maorifi Komissarligi (TXMK), hattoki, joylardagi mahalliy tashkilotlar ham ularning aniq ro`yxatiga ega emas edilar⁷⁹.

Bunday vaziyatni muhokama qilish uchun Xalq Komissarlari Kengashi (XKK) tomonidan 1923- yil 11- noyabrda madaniyat va maorif xodimlarining xalq maorifi masalalariga oid kengaytirilgan majlisi bo`lib o`tadi. Bu kengashda so`zga chiqqan Turor Risqulov va boshqa notiqlar maktablar qurilishi tarqoq, biron-bir dastursiz barpo etilayotganligini, hozirda esa juda og`ir ahvolda ekanligini ta`kidlab ko`rsatdilar. Jumladan, notiq Serg`oziev, Turkistonda maktablar taraqqiyotini uch bosqichga bo`ladi. Birinchi bosqich, 1918-1921- yillarni o`z

⁷⁹ Мустафаева Н. Туркистон маорифи XX асрнинг 20- йиллари муаллифлари назарида // О`zbekiston tarixi, №1. 2004. – Б. 35.

ichiga olib, bu davr-da o'lkada 10-22 mingga qadar maktab tashkil qilingan, ikkinchi bosqich - bu sovet maktablarining parchalanishi davri edi. Sovet hukumati XMK tasarrufidagi muassasalarni ta'minlay olmaganligi tufayli 11 ming o'quv muassasalaridan faqat 35 tasini davlat ta'minotida qoldirib, qolganlarini mahalliy byudjetga toshpirishga qaror qiladi. Bu holat maktablarning to'rt-besh oylab moddiy ta'minotsiz qolishi va tez orada yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi. Bu vaqt mobaynida makgablarni 1139 taga qisqarib, keyinchalik ulardan 539 tasi shartnoma asosida aholi mablag'i hisobi ta'minotiga o'tkazilgan. Uchinchi bosqich, 1922- yildan boshlanib, dastlabki davrlardagi maktablardan ixlosi qaytgan aholi u erga farzandlarini yubormay quyidilar va maktab, madrasalarning yordamiga tayandilar⁸⁰.

O'qituvchilarning maktablardan uzoqlashuvi va ularning og'ir ahvolarining sabablarini I. Sevastyanov o'z maqolasida tanqidiy nuqtai nazardan ochishga harakat qiladi. U yozadi: «O'qituvchi mehnati bilan yashash uchun muallimlar ko'p miqdorda soatlar olib, shaharning turli erlaridagi o'quv muassasalarida ishlashga majburlar. Ular kun bo'yi yugurib, uch smenalab ishlab, kechga tomon charchoq, yarim och holda uyga qaytadilar. Hatto, maktab ishlarining fidoiylari sevimli ishlaridan qochib, kotib, rais yordamchisi xo'jalik boshlig'i va boshqa lavozimlarda ishlayotganliklariga taajjublanmasa ham bo'ladi. Maktablarda faqat o'qituvchilik iqtidori va alangasi bor insonlargina ishlamoqdalar»⁸¹.

Shu bilan birga bu mualliflar, bunday holatdan chiqish yo'llarini topishga harakat qilganlar. Masalan, I va II bosqich maktab o'quvchilari uchun kurslar ochish, muallimlar tayyorlaydigan institutlarni ochish, o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabilar shular jumlasidandir.

Xalq orasida diniy maktablarga bo'lgan ehtiyoj keskin ravishda kuchaya boshladi. Xususan, «Turkiston respublikasida umumta'lim masalalariga doir» maqolasining muallifi o'lkadagi maktablarda o'qitish tizimini ko'rib chiqar ekan,

⁸⁰ Нурмухаммедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б. 23.

⁸¹ Мустафаева Н. Туркiston маорифи XX асрнинг 20-йиллари муаллифлари назарида // О'zbekiston tarixi, №1. 2004. – Б. 38.

«tez orada sovet maktablari diniy maktablar dengizida bir orolchaga aylanishi mumkin»ligini qayd etib o`tgani edi⁸².

«Turkiston mahalliy maktablarida diniy ta`limot masalasi» maqolasi muallifi esa xalqni yana sovet maktablariga jalb etish va ularni mustahkamlash din darslarining o`qitilishini yo`lga qo`yilishi bilan amalga oshiriladi deb hisoblagan. Uning ta`kidlashicha, yangi 1922- o`quv yilidan diniy ta`lim u yoki bu nohiya aholisining xohish irodasiga qarab kiritilishi va har kuni mulla yoki o`qituvchi tomonidan olib borilishi lozim edi. Bu masala 1922 yilda o`tkazilgan o`zbek madaniyati va maorif xodimlarining s`ezdida ham ko`rib chiqilib, «bolalarni yangi maktabga jalb qilish va ommaning dinga bo`lgan yuksak hurmatdagi ruhiyatini hisobga olib, maktablarga din darslarini kiritish kerak», - deb qaror qilingan edi. Muallif Olchin esa eski usul maktablarini qayta ko`rib chiqish taklifi bilan chiqadi. U: «Eski maktablarni maorif idoralari tezda «hisob-kitob» qilib, o`z nazoratlariga olishlari kerak. Bulardan vayron va yaramas binolaridagini yaxshi binolarga ko`chirib, asbob va muallim bilan ta`min qilish kerak. Bu maktablarda ta`lim-tarbiya ishlarini yaxshi bormog`iga diqqat qilmoq, hisob, jo`g`rofiya, tarix kabi fanlarni maktablarga kiritish, hamda o`quv-yozuvlarini, din darslarini tartibli bir holda va Qur`on o`qishlarini ham mumkin bo`lg`oncha ma`nosi bilan o`qitish yo`liga kiritish kerakdir». Sh.Manatov esa o`z maqolasida o`lkadagi maorif sohasidagi kamchiliklarni ko`rsatib o`tar ekan, vujudga kelgan vaziyatga keskin qarshi bo`lsa-da, biroq, vaqtincha «yuzaga kelgan sharoitda islomni o`qitish maktabdan tashqari, maktab darslariga halaqit bermagan bo`sh vaqtlardagina ijozat berish mum-kin», - deb hisoblaydi. Muallifning yozishicha, ko`pchilik joylarda dindorlarning, «agar sho`ro maktablarida din darslari o`qitilishi yo`lga qo`yilsa, moddiy jihatdan ta`minlash»lari haqidagi arizalar topshirganliklari holatlari ham qayd etilgan.

Shu bilan birga eski usul maktab muallimlarini o`qitishning yangi usullariga o`rgatish hollari ham uchragan. Masalan, «Turkestanskaya pravda» gazetasida yozilishicha, Xo`jand shahrida xalq ta`limi boshqarmasi tomonidan eski usul

⁸² Нурмухаммедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 79.

maktab muallimlari va ulamolari to`planib, ularga eskicha o`qitish usulining noqulayligi, qoloqligi tushuntirilgan. Ulamolar o`z navbatida «masalaning bunday qo`yilishiga shariat qarshilik ko`rsatmaydi, aksincha, shariat e`tiqodlarining savodli, yozuv va hisobni bilishlarini muvofiq deb biladi», - deb o`z roziliklarini bildirganlar. Bu ikki oylik pedagogik kurslar 42 nafar kishiga mo`ljallangan bo`lib, ularga o`z vaqtida katta ishtiyoq bilan qatnov kuzatilgan⁸³.

A. Shukurov esa o`z maqolasida vaqf mablag`larini bir qismini mahalliy aholi vakillarini ta`lim olish uchun xorijga yuborishga sarf etish haqidagi taklifni ilgari suradi. «Ana shunda xorijga har yili bir necha yuz kishini yuborish mumkin. 5-8 yil ichida ular Vatanga yangi kishilar bo`lib qaytadilar va haqiqiy yangi maktablar tashkil etadilar, - deb yozadi. Bosh Vaqf Boshqarmasining a`zosi bo`lgan Munavvar Qori Abdurashidxonov ham vaqf mablag`larining asosiy qismi maorif va madaniyat sohasiga sarflanayotganligini o`z hisobotida aniq ravshan ko`rsatib o`tgan edi. Unda yozilishncha, «bosh vaqf idorasi o`zining ta`minoti uchun mahalliy sho`balarining umumiy daromadidan 10 foiz olib, qolgan 90 foizini mahallalarning o`zida maorif va madaniyat ishlariga sarflaydir». Vaqf idorasiniig 1923- yildagi butun daromadi 6.529.652 so`mni tashkil etgan edi⁸⁴.

Munavvar Qori vaqf idoralari qisqa vaqt ichida xalqning maorifi va madaniyati yo`lida yaxshigina natijalarga erishganini Toshkent vaqf sho`balari faoliyatida aniq ko`rsatib beradi. U bu sho`balar tomonidan ochilgan madaniy-ma`rifiy muassasalar sonini sanab o`tar ekan, bu tadbirlar nafaqat shaharlarda, balki chekka uyezdlarda ham amalga oshirilishi lozimligini, buning uchun bosh vaqf idoralari vaqf erlari solig`idan ozod qilish fikri bilan chiqadi. Bu tadbir amalga oshirilsa «uyezd xalqi ham yaxshigina bir maorif va madaniyat sarmoyasiga molik bo`lib, bu sarmoya vositasi bilan o`zining bosib yotgan jaholatlariga qarshi kurashgan bo`lur edi»,— deb ishonadi. Bu ma`lumotlardan

⁸³ Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. – Андижон: «Andijon nashriyot-matbaa» ОАЖ, 2000. – Б. 235.

⁸⁴ Набиев А. Мустақиллик учун кураш ёхуд парчаланган Туркистон тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1998. – Б. 76.

bizga shu narsa ayon bo`ladiki, vaqf mablag`lari ham o`lka maorifi va madaniyatining rivojlanishiga bevosita o`z hissasini qo`shgan va yordam qilgan⁸⁵.

1927- yildan boshlab eski usul-diniy maktablarga qarshi u xoh isloh qilingan bo`lsin yoki bo`lmasin kurash boshlandi. O`zbekiston SSR MIKning III sessiyasida eski usul maktablariga barham berish, ularni tugatish to`g`risida O`zbekiston SSR Maorif Xalq komissari M. Ramziy katta ma`ruza qildi. Albatta, o`sha davrga xos bo`lganidek, u mazkur maktablarga «burjua jadid maktablari», ziyoli va dindorlarga «sinfiy dushman» kabi yorliqlar yopishtiradi. Bu ma`ruzadan bizga ma`lum bo`ladiki, eski usul maktablarni yopish uchun turli xil choralar qo`llanilgan. Jumladan, ularda o`qish uchun 14 yoshgacha bo`lgan bolalar sovet maktabining 1-sinfini bo`lsa-da, albatta bitirganbo`lishi shart qilib qo`yilgan. Sog`liqni saqlash organlari bu maktablardan tozalik shart-sharoitlarini talab qilishlari shart edi. Biroq, bu choralarga qarshi o`laroq, sovet maktablari uchun binolarning etishmasligi, bolalarning 2–3 smenada o`qitilayotgani haqida ham so`z boradi. M. Ramziy ziyoli va dindorlarning isloh qilingan eski usul maktablarni qoldirish haqidagi fikrlariga keskin qarshi chiqadi. Uning qarashlarini M.Stambler ham qo`llab-quvvatlaydi. U o`z maqolasida sovet maktablarini kuchaytirish asosida eski usuldagi maktablarga qarshi kurash yo`llarini ishlab chiqqan edi. Qurbon Birigin esa «eski maktablarni bitirish emas, ularni isloh qilish kerak, eski maktablarni tugatgan bilan biz etarli darajada yangi maktab bilan ta`min qila olmaymiz. Shuning uchun ular faoliyati davom etsa ham mayli»,– deb fikrlovchilarni qattiq tanqid ostiga oladi va «mafкура maydonida kurashimizning bir muhim bandi eski usul maktablarni tugatishdir», - deb hisoblaydi. Bu davrda «Dinga qarshi kurash!» shiori bilan maktablarda dinga qarshi tarbiyani kuchaytirish, mual-limlarni tekshirib, ularni «tozalash», nashr qilinadigan kitoblarning barchasini mazmun-mohiyati dinga qarshi kurash usulida, mafkuraga mos qilib chop etilishi kabi fikr-mulohazalarini bildirganlar. Bunday yondashuvlarning bo`lishiga sabab esa diniy maktablarning sovet maktablaridan miqdor jihatdan oshib ketganligida edi. Masalan, 1925- yilda eski usul maktablari

⁸⁵ Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 128.

1329 tani, sovet maktablari esa 908 tani tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida bol'sheviklar hukumatining xavotiriga sabab bo'ldi. O'sha davrda qaror topib kuchga kirgan g'oyaviy tazyiqlar endilikda milliy an'anaviy eski usul maktablarni yo'q qilib yuborishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va bunga erishdi ham. endilikda aholi sovet maktablariga majburan jalb etila boshlandi⁸⁶.

Milliy an'anaviy maktablarda esa o'qituvchilarning anchagina qismini qiz bolalar tashkil etgan. E. Fedorovning ta'kidlashicha, «...aholini boshlang'ich maktab bilan ta'minlash maktab yoshidagilarni juda oz foizini (12%) qamrab olganligi bilan xarakterlanadi». XX asr 20- yillarning oxiri - 30- yillarning boshlariga kelib, bu davr uchun xarakterli bo'lgan sinfiy kurash, millatchilik, kadrlarni tozalash kabi g'oyalar maorif, maktab sohalarini ham o'z nazaridan chetda qoldirmadi. Bu davr maqolalarida yozilganidek, «maktablarga diqqatni kuchaytirish, ular ustidan nazorat va boshqaruv; proletariat g'oyasi uchun kurash; o'sayotgan avlodni internatsional ruhda tarbiyalash masalalari birinchi o'ringa qo'yi-lishi kerak edi. Bundan tashqari, bu davrga kelib barcha sohalarda bo'lganadek xalq ta'limi, maorif sohasiga oid faqat yutuq, maqtovlarga boy bo'lgan maqola va risolalar ko'plab yozila boshlandi. Ularda maktab tarmoqlari o'sishining yuqori ko'rsatkichlari, umumiy majburiy ta'limning yo'lga qo'yilganligi, ularning yuksak yutuqlari haqida so'z boradi. Kezi kelganda Mustaf Cho'qayning «Turkiston sovetlar hokimiyati ostida» kitobida yozilgan fikrni keltirmoqchimiz: «...Madaniyat sohasini «tushuntirish» katta qiyinchilik tug'diradi. Maktablar miqdori, ularda o'qiyotgan o'quvchilar, «oliygohlar», «bilim yurtlari», - bularning barchasi taassurotli, albatta. Biroq, milliy yutuqlar nuqtai nazaridan qaraganda, bol'sheviklarning o'zlari tomonidan bo'rttirib ko'rsatilgan dasturga muvofiq - natija bol'shevikcha «o'z - o'zini tanqid»dan past turadi.

Demak, XX asrning ikkinchi o'n yilligi adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniyat sohasining eng muhim bandi hisoblangan maorif va uning turli sohalariga oid muammolarning echilishi, masalaning qo'yilishi turli xil

⁸⁶ Мустафаева Н. Туркистон маорифи XX асрнинг 20- йиллари муаллифлари назарида // О'zbekiston tarixi, №1. 2004. – Б. 39.

o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Dastlabki vaqtli va davriy matbuot sahifalarida chop etilgan maqolalar uchun xato va kamchiliklarni aniq ko'ra bilish, bu to'g'rida dadil, qo'rqmasdan yoza olish, qiziqarli va muhim takliflarni qo'yish kabi xususiyatlar xos edi. O'rganilayotgan davr adabiyotlarida mualliflar maorif, maktab va o'qituvchilar xususida turli-tuman muqobil yo'llarni va usullarni izlab, bu muammolarning echilishida milliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda turli xil tanqidiy, qarama-qarshi fikr va mulohazalar, qiziqarli, hattoki bugungi kunimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan takliflarni o'rtaga tashlaganlar. Biroq, XX asr 20- yillarining oxiri 30- yillarning boshlariga kelib, siyosiy vaziyatning o'zgarishi bilan adabiyotlarning ham sifati o'zgara boshladi. Tanqiddan maqtovlarga o'tildi, kamchiliklar yashirildi, masalalar noto'g'ri talqin etila boshlandi. Bu esa madaniyatning muhim bo'lagini tashkil etuvchi maorif, maktab muammolarini yoritilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ularning mazmuni sayoz va zerikarli bo'lib qoldi.

II bob bo'yicha xulosa:

Mazkur bobga xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, Turkiston Rossiya Federatsiyasining avtonom sovet respublikasi deb e'lon qilingan bo'lsa-da, oktabr to'ntarishidan keyingi barcha o'zgarishlar Turkiston xalqlarining xohish-irodasi bilan amalga oshirilmadi, balki Moskvaning bevosita ko'rsatmasi bilan, sovetlar V s'yezdida ko'pchilikni tashkil etgan bir necha shovinist bolsheviklar va so'l eserlar tomonidan amalga oshirilgan. O'lka halqlari esa Turkiston sovet avtonomiyasini tuzishda mutlaqo ishtirok qilmaganlar, ularning xohish-istaklari so'ralmadi. Binobarin, TASSR tashkil etilishidek «muhim tarixiy» tadbirning amalga oshirilishidan faqat «proletariat» orasidan chiqqan, «hukmron partiyalar»ga mansub mahalliy bo'lmagan aholi vakillari manfaat ko'rganlar. Ular respublikani boshqarishga kelar ekanlar, Markaz siyosatini qattiq turib amalga oshirganlar, Turkiston halqlariga emas, balki Markazga astoydil xizmat qilganlar. Bularning hammasi tabiiy ravishda mahalliy aholini, ayniqsa, milliy vatanparvarlar noroziligining kuchayishiga olib kelgan.

III BOB. TURKISTONDA IJTIMOIIY-MADANIY HAYOT

3.1. Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi

XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlari ta'lim tizimi o'zining o'rta asrlardagi shakli va faoliyat xususiyatini saqlab qolgan maktab, madrasa, qorixona, daloilxona va Otin-bibilar uylarida faoliyat yurituvchi qizlar maktablaridan iborat edi.

Maktablarda o'quvchilar avval alifboni va o'qishni o'rganganib, so'ng fors tilida Qur'onning yettidan bir qismi ma'nosini anglatuvchi «Haftiyak»ni o'qishga kirishishgan. Undan keyin, Qur'on suralari «Allamnashroh»ni yodlashlari bilan o'quvchilar savodli hisoblangan. O'qish va yozishni o'rgangan o'quvchilar «Dahrul najot», «Nasoyihul – atfol», shariat asoslari bayon etilgan «Chor Kitob» kabi o'quv qo'llanmalar hamda Navoiy, Fuzuliy, She'roziy, Attor, Bedil, Mashrab va boshqalarning asarlarini o'rganishgan⁸⁷.

1880- yillarda Turkistonni Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida 5 mingdan kam bo'lmagan musulmon maktablari faoliyat yuritib, ularda 46 ming atrofida o'quvchilar tahsil olgan. 1907- yilda ular soni 7000, o'quvchilar soni 70000 deb keltiriladi. 1916- yilda ular soni 7650 ta bo'lib, o'quvchilar soni 110000 nafarga teng bo'lgan⁸⁸.

Akademik A. Middendorf musulmon aholisi ommaviy savodxonligini yuqori baholagan. Biroq boshqa mustamlaka davr rus mualliflari, A. Middendorf fikrlariga zid ma'lumot yozib qoldirishgan. Tadqiqotchi P. G. Kim bu borada dalillarni asossiz ekanligini ko'rsatib, aholi savodxonligini haqli ravishda 19–24 % deb belgilaydi⁸⁹.

Qizlar uchun maktablar odatda otinbibilar uyida joylashgan. Unda o'quvchilar soni o'g'il bolalar maktablaridagiga nisbatan kam edi. Otinbibi maktabida din peshvolari, yirik va o'rtahol savdogarlar qizlari ko'pchilik bo'lib, ushbu maktablarda asosan fors-tojik va turkiy tillaridagi asarlar asosida «Ta'limi

⁸⁷ Салижанова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX – начало XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1998. – С. 22.

⁸⁸ Очерки истории и педагогической мысли народов СССР (конец XIX – начало XX в.). / Отв. ред. Э.Д.Днепров. – Москва: Педагогика, 1991. – С. 397.

⁸⁹ Qarang: Kim P.G. Уйдирма ва хақиқат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1989 йил 29 октябрь.

banot», «Muosharat odobi», «Tarbiyali xotun» va boshqa sharq axloqiy madaniyatini o'z ichiga oluvchi fanlar o'qitilgan.

O'rta Osiyodagi madrasalar ta'minoti vaqf mulklari hisobidan amalga oshirilib, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi bilan madrasalar imperiya ma'muriyati nazorati va boshqaruviga o'tgan. O'quv fanlar asosini islom huquqshunosligi, arab tili grammatikasi tashkil qilgan. Shu bilan birga, falsafa, geometriya, matematika, geografiya, tibbiyot, kimyo kabi fanlar ham o'qitilgan.

Madrasada o'qitilayotgan fanlar uch bosqichga: adno (quyi), avsat (o'rta), a'lo (yuqori) ga ajratilgan. O'quv adabiyotlari islom olamining ko'p asrlik madaniyatini o'zida aks ettirgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda 400 ga yaqin madrasa mavjud edi. Jumladan, 1902- yilda Kaspiyorti viloyatida 13 ta madrasa bo'lgan. 1911- yilda esa Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida ularning soni 328 tani tashkil etgan.

Qorixonaga maktabni tugatgan 10 yoshdan katta o'g'il bolalar o'qishga qabul qilingan. U yerda Qur'on suralari yodlatilgan. 1892- yilda Farg'ona viloyatida qorixonalar soni 252 ta, 1897- yilda 341 ta, 1899- yilda Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida 333 ta bo'lgan.

Daloilxonada yoshi katta o'quvchilar domla boshchiligida, arab tilida yozilgan «Daloilil-hayrot» – Muhammad payg'ambar haqidagi rivoyatlar va diniy qasidalarni yod olganlar. «Daloilil-hayrot» XV asrda tuzilgan. Uning matnlari hafta kunlariga moslashtirilgan holda yod olishga mo'ljallangan. XX asr boshlarida o'lkada jami 10 ga yaqin daloilxona bo'lib, ularda 100 ga yaqin o'quvchilar tahsil olgan.

Markaziy Osiyoda ilm dargohlarini asosini madrasalar tashkil etgan. Shuningdek, eski usul musulmon maktablari, qorixona, otin oyi maktablari ham aholi savodxonligini chiqarishda muhim rol o'ynagan. Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini tugatgandan so'ng mustamlakachilar tashkil etgan rus-tuzem maktablari ochilgan bo'lsada, aholini asosiy qismi yuqorida qayd etilgan ilm maskanlarida

tahsil olishar edi. Shuningdek, XIX asr oxirlarida jadid maktablarini paydo bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb eta boshlagan edi.

Turkiston general-gubernatoriligi hududida Farg'ona vodiysida joylashgan yirik shaharlar diniy muassasalarga qarashli madrasa va eski usul maktablari soni jihatidan yuqori salohiyatga ega bo'ldi. Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Xo'jand kabi yirik shaharlarda diniy muassasalar, ilm maskanlari, XX asr boshlaridagi rus-tuzem maktablari yangi usul jadid maktablariga nisbatan katta miqdorni tashkil etgan.

Turkistonda mavjud bo'lgan diniy maktablar islom dini kirib kelishi bilan dastlab masjidlar qoshida ochila boshlagan, keyinchalik ham masjidlardagi hujralarda faoliyatini davom ettirgan. Diniy usul maktablari bolalarga harflarni yozish, ifodali o'qish, Hadislarni yodlash, ba'zi badiiy va falsafiy adabiyotlarni mutola qilishga ham o'rgatgan. Deyarli barcha diniy usul maktablari bolalarni ota-onalaridan olinadigan mablag'lar hisobiga ochilib, ulardan tushgan pul moddiy byudjetni tashkil etgan. Domlarning daromadi bolalarning ota-onalaridan kelib turadigan turli-tuman sovg'a-salomlardan iborat bo'lgan.

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistondagi eski usul musulmon maktablari soni iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qarab o'zgarib turgan. Ayniqsa, chor hukumatining musulmon makatblariga nisbatan ba'zi tadbirlari natijasida maktablar va bolalar soni XX asr boshlariga kelib kamayib borganligini ko'ramiz.

Shahardagi masjidlarda boshlang'ich diniy maktablar mavjud bo'lgan. Ularda o'g'il bolalarni o'qitish majburiy hisoblangan. Bunday maktablar masjidlar qoshida ochilganligi uchun o'qituvchilar yoki ustozlik vazifasini masjid imomi, so'fisi bajargan. Boshlang'ich maktablar ya'ni qorixonalar, madrasalar qoshida ham ochilgan. Shuningdek, boy badavlat kishilar o'z farzandlarini o'qitish uchun bunday maktablarni o'z uylarida tashkil etganlar. Ular o'z maktabida tajribali o'qituvchi-mudarrislarni taklif etganlar⁹⁰.

⁹⁰ Холбеков И., Қосимова Т., Хайдаров О. Марғилон шаҳрининг маданий ҳаёти тарихидан (XIX аср охири-XX аср бошлари) // «Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси» мавзусидаги республика илмий семинар материаллари. – Фарғона, 2007. – Б. 40.

Boshlang'ich maktablarda o'qitish uslubi o'qituvchi (imom yoki so'figa) bog'liq bo'lgan. Maktabga qabul qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ya'ni maktabga yangi kelgan o'quvchi (mullavachcha) avval domla, so'ngra katta, ilg'or o'quvchilar (xalfalar) qisqa-qisqa so'zlarni o'qib berish bilan uning eslab qolish qobiliyatini sinab ko'rganlar. Bunday maktablar oddiy uy shaklida bo'lib, o'quvchilar (mullavachchalar) yerda bo'yra ustida o'tirib mutola qilishgan. Boshlang'ich diniy maktablarda alohida sinf sistemasi mavjud bo'lmagan. Mashg'ulotlar doimo individual tartibda olib borilgan. O'quvchilar yilning istalgan paytida qabul qilingan. O'qishning dastlabki bosqichi arab «Alifbo»si yoki «Ustozi avval» kitoblaridagi arab imlosidagi harflarni o'rganish bilan belgilangan. O'quvchilar «Alifbo»ni yakunlagach, «Xaftiyak»ni o'qiganlar.

«Xaftiyak» – Qur'onning yettidan bir qismidan iborat arabcha kitoblarni o'rganish, Qur'on kitobini o'rganishga tayyorgarlik vazifasini bajargan. «Xaftiyak» yakunlangach, yana bir ikkita uncha katta bo'lmagan, musulmonchilik asoslarini o'rgatuvchi, fors-tojik va turk tillaridagi «Chor kitob» va «So'fi Olloyor» kabi kitoblar o'qitilgan. So'ngra «Qur'on»ni o'rgatish boshlangan...bunday maktablarda faqat o'g'il bolalargina o'qishgan.

Qizlar uchun esa alohida «Otinbuvi maktablari» mavjud bo'lgan. Ayollar savodxonligini chiqarish uchun mo'ljallangan bunday musulmon otin oyi maktablari Turkiston general-gubernatorligiga qarashli barcha shaharlarda mavjud bo'lgan.

«Otinbuvi maktablari» o'qituvchi ayol otinbuvilarning uylarida ochilgan. Otinbuvilarning asosiy qismini imom va maktabdor kishilarning bilimli xotinlari tashkil etgan. Bu maktablarda qizlar ota-onasining roziligi bilan ta'lim olishgan. «Otinbuvi maktablari» o'g'il-bolalar maktablaridan farq qilib, «Qur'on» kamroq, fors-tojik va turk tilidagi asarlar ko'proq o'qitilgan⁹¹.

Qiz bolalarni o'g'il bolalar kabi maktabda o'qishi majburiy bo'lmagan. Shuning uchun otin oyi maktablari masjid qoshidagi musulmon diniy usul

⁹¹ Салмонов А., Султонов А., Алимова Н., Расулов Б. Чор Россияси мустамлакачилиги даврида марғилондаги мактаб ва мадрасалар аҳволи // «Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси» мавзусидаги республика илмий семинар материаллари. – Фарғона, 2007. – Б. 31.

maktablariga nisbatan son jihatdan kam bo'lgan. Otin oyi maktablari asosan kuchli ilmga ega bo'lgan otinbibililar uylarida ochilgan hamda ta'lim olayotgan otin oyilarni o'qishni, yozishni o'rgatish bilan birga hatto uy ishlarini yuritishga ham tarbiyalagan.

Mahalliy maktablarda diniy kitoblardan tashqari xattotlik (kalligrafiya). Arifmetikadan ham bilim berilgan. O'qish muddati o'rtacha 7-8 yilgacha yetgan. Umuman, Turkiston o'lkasida (xonliklardan tashqari) XIX asr oxirlarida statistik ma'lumotlarga qaraganda, 5000 dan ortiq boshlang'ich diniy maktablar qayd etilgan. Iste'dodli bolalar o'qish va yozishni bilgach, bilim doiralarini kengaytirish maqsadida o'qishni madrasalarda davom ettirganlar. Ba'zilar esa Ajnabiy mamlakatlarga borib ta'lim-tarbiya olib kelganlar...

Vaqf hisobiga ochilgan qorixonalar ham mavjud bo'lgan. Qorixonalar alohida binolariga ham ega bo'lib, vaqf daromadidan qurilgan, ba'zilari esa masjid va mozorlar qoshida faoliyat yuritgan. Ta'lim mazmunida asosan Qur'oni Karimni yod olish, Qur'oni Karimdagi sura va oyatlarni xalq ommasiga o'qib berish edi. 1882- yili Farg'onadagi bunday maktablarda 252 talaba ta'lim oldi. Jumladan, Marg'ilonda XIX asr ikkinchi yarmida jami 21 ta qorixona bo'lib, unda 395 nafar qori tahsil olgan. Qorixonalarda asosan Qur'oni Karimni qiroat bilan o'qish, to'liq yodlash maqsad qilib qo'yilgan.

Daloilxona – kattalar maktabi bo'lib, talabalar domla rahbarligida arab tilini o'rganar edilar. Bu maktab uchun asosiy darslik «Dalaili-xayrat» (Muhammad payg'ambar haqida yozilgan to'plam) hisoblanardi. Bu to'plamni o'qish muddati bir yil edi. Ammo bunday maktab juda kam tarqalgandi. Jumladan, Toshkentda 4–5 ta, Farg'onada 2 ta, Andijonda ham 2 ta shunday maktab mavjud edi. Bu maktabni bitirib chiqqanlarga maddohlar unvoni berilar edi. Maddoh ko'chalarda, bazmlarda, jamoat joylarida islom dinini. targ'ib va tashviqot qilar edilar.

Boshlang'ich maktablar soni Marg'ilon shahri va uyezdida yildan yilga ortib borgan. 1884- yilda Farg'ona viloyatida 1347 ta boshlang'ich diniy maktab mavjud bo'lsa, Marg'ilon uyezdida shu yili 345 ta shunday maktab mavjud bo'lgan. Yoki

viloyat bo'yicha shunday maktablarni 28%i Marg'ilon uyezdi hisobiga to'g'ri kelgan⁹².

1914–15- yilga kelib Namangan shahrida maktablar va ulardagi o'quvchilar soni quyidagicha bo'ldi: erkaklar maktabi 68 ta, o'quvchilar soni 1388 ta. Madrasa 21 ta, o'quvchilar soni 1158 ta. Qorixona 9 ta, o'quvchilar soni 92 ta, xotin-qizlar maktabi 29 ta o'quvchilar soni 600 ta. Yangi metoddagi o'quv yurti 1 ta, o'quvchilar soni 122 ta. Shuningdek, yahudiylar maktabining 71 o'quvchisi bor edi.

1908- yil Turkiston general gubernatorligi hududida jami 268 ta madrasa mavjud bo'lgan bo'lsa, shundan 176 tasi Farg'ona viloyati yirik shaharlarida faoliyat yuritgan.

Yuqorida qayd etilgan madrasalar soni faqat shaharda joylashgan yirik madrasalar miqdoridan kelib chiqqan. Shahar atrofida joylashgan o'rta va kichik madrasalar sonini qo'shganda ko'pchilikni tashkil etadi. Marg'ilon shahri va shahar atrofidagi madrasalar va ularda ta'lim olayotgan tinglovchilar tarixiy ma'lumotlarda quyidagicha ko'rsatilgan: 1875- yilda Marg'ilonda 57 ta madrasa bo'lib, 838 ta tinglovchi o'qigan, 1908- yilga kelib esa, ularning miqdori 51 taga tushib qolgan, ammo tinglovchilar soni ortib, 1147 tani tashkil etgan.

Madrasalar sonining kamayib borishi sabablaridan biri Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgandan so'ng mustamlakachilar tomonidan mutavalliboshi lavozimini bekor qilinishidir. Bu bilan vaqf ustidan nazorat to'xtatiladi, mutavallilarni vaqf daromadlarini talon-taroj qilishi kuchayadi. Madrasalarni tugatgan mullalarning kattaroq lavozimga ko'tarilish imkoniyatlari bekor qilinadi. Deyarli barcha ma'muriy lavozmlarni rus ofitserlari egallay boshladi. Vaqf mulklari madrasalarning moddiy o'zagi bo'lganligi sababli, ulardan tushgan daromad to'la sarflanmay qolishi ba'zi madrasalarni faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Rossiya imperiyasini tazyiqi kuchayib borishi oqibatida asta-sekin yopilib yo'q bo'lib ketgan, mavjudlaridan boshqa maqsadlarda foydalanilgan. Masalan:

⁹² Холбеков И., Қосимова Т., Ҳайдаров О. Марғилон шаҳрининг ... 2007. – Б. 41.

«Tarixi Azizi» asarida yozilishicha Mir Salim boy ismli katta savdogar Margʻilonning Qori Guzar mahallasida oʻz nomiga madrasa qurdiradi. Muhammad Karimbek ismli savdogar esa Margʻilonning Toshloq mahallasida (hozirgi Toshloq tumanida) gʻishtdan madrasa qurdiradi. Ammo afsuski bu madrasalar yuqorida aytib oʻtilganidek yoʻq boʻlib ketgan yoki foydalanish uchun biror shoʻro idorasiga aylantirilgan. Bularni barchasi chuqur izlanishlarni talab qiladi. Quyidagini alohida tahkidlash mumkinki Margʻilon chor Rossiyali Skobelev (Fargʻona)ni tashkil qilgandek, to hozirgacha bir biriga yaqin shaharlardir.

Rossiya imperiyasi oʻzlari makon qurgan Skobelev shahariga qoʻshni Margʻilon shahriga ham oʻz tahsirini muttasil oʻtkazib turgan. Chunki, ular Skobelevga yaqin Margʻilonda vatanparvarlik ruhini shakllanishidan choʻchigan. Shu tuygʻuni uygʻotuvchi musulmon taʼlim-tarbiya maskanlari deb bilishgan, shu sababli Margʻilondagi masjid-madrasalar eski maktablar turli uslubda tazyiqqa uchragan. Madrasalarda taʼlimni Chorizm tomonidan chiqarilgan dastur asosida olib borishga majbur etilgan⁹³.

XIX asr oxirlarida Turkistonda bunyod etilgan madrasalarda rus arxitekturasining ham taʼsiri sezilganligi koʻrish mumkin. Masalan: Said Ahmadxoʻja madrasasida shunday xol koʻzga tashlanadi. Shu tufayli bu madrasadagi ichki va tashqi uygʻunlik Fargʻona vodiysida yagona xisoblanadi. Ushbu madrasa oʻz kattaligi jihatidan Margʻilonda yagona hisoblanadi. Turkiston madrasalarida madrasalarda talabalar shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlar oʻqishgan. Yozda taʼtilga chiqishgan, yangi oʻquv yili oktyabr oyidan boshlangan. Madrasada oʻqitish ikki uslubda olib borilgan:

1. Mushkulot (umumiy bilimlar); 2. Masala (Yuridik) bilimlar, madrasada oʻqish uch bosqichda boʻlib oʻqitishi yoʻlga qoʻyilgan.

1. Adno – quyi bosqich «Avval ilim» dan «Aqoid» kitobigacha oʻqishgan.

2. Ausat – oʻrta bosqich boʻlib «Aqoid»da «Millo Jalol» kitobigacha oʻqishgan.

⁹³ Қодиров Н. Туркистонда таълим ... 2007. – Б. 126 – 127.

3. Ahlos – yuqori bosqich bo‘lib «Mulla Jalol»dan «Matni Faroiz» asarlarini o‘rganishgan. Umuman Marg‘ilondagi madrasalarda ham o‘qish 8–10- yilni tashkil qilgan. Bu yerda o‘qishda ma‘lum yosh belgilab qo‘yilmagan. Turkistondagi ayrim madrasalarda o‘qitish uslubi bir oz farq qilgan. Masalan, Marg‘ilonda talabalar umumiy bilimi va yuridik bilimlarni boshidan teng bilim olganlar. Boshqa shahar madrasalarida yuqoridagi uslublarga «Ausad» – o‘rta bosqichdan moslashib olingan. Marg‘ilon madrasalarini hammasi ham vaqf daromati hisobiga faoliyat ko‘rsatgan emas. Ayrim kichik madrasalarni vaqf mulki bo‘lmay, ular xayriyalar, masjid mablag‘laridan foydalanishgan. Tushgan pulga talabalarga turli imtiyozlar, mudarrislarga oylik, maosh berilgan, madrasa binosi ta‘mirlangan. Bu madrasalar ba‘zida masjid-madrasa deb ham nomlangan. Ushbu madrasalarni mukammal pul bilan ta‘minlovchi manbai bo‘lmaganligi tufayli, Rossiya imperiyasini daslabki ma‘naviy tazyiqlari oqibatida yo‘q bo‘lib ketdi. Qolganlari ham achinarli xolatga tushib qolgan, tanazzul yoqasiga keta boshladi. Ayrim ma‘lumotlarda masalan, R. Shamsidinov, X. Bobobekov, A. L. Kun asarlarida 1876–1904- yillarda madrasalar faoliyatini sustlashganini, ularning kamayib ketganligi haqida ma‘lumotlar mavjud.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin maktab va madrasalarda ba‘zi o‘zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonaga chop qilingan darsliklar paydo bo‘ldi. Qozondan bosmaxonada nashr qilingan Qur‘on va Haftiyaklar, Hindiston va Erondan shoirlarning litografiyada chop qilingan to‘plamlari keltirildi, Toshkentning o‘zida ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yo‘lga qo‘yildi.

Mustamlaka ma‘muriyati mashg‘ulotlar o‘rta asr tartibida olib borilayotgan musulmon maktablarining ishiga aralashmas edilar. Ammo maktablarda rus tilini o‘qitishni rag‘batlantiruvchi choralar ko‘rishga ham harakat qilinardi. Natijada, mahalliy yoshlar rus tilini o‘rganishga ko‘proq e‘tibor bera boshladilar. XX asr boshlarida esa madrasalarda rus tilini o‘qitish joriy qilinsin, degan ko‘rsatmaga binoan 1913–1917- yillarda ba‘zi madrasalarda rus tilini o‘qitish joriy qilindi⁹⁴.

⁹⁴ Исмаилов Ш. Народное образование в Узбекистане в конце XIX – начале XX века: Автореф. дисс. ...канд. истор. наук. – Т., 1981.

Eski maktablarda ham ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rus tuzem maktablari hamda yangi xil maktablarning ta'siri ostida ba'zi eski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy qilindi, – litografiyada bosilgan alifbelar yordamida tovush metodi asosida savod o'rgatish joriy qilindi, qizlarga o'qishni o'rgatish bilan birga yozishni ham o'rgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga ko'ra o'zbek maktablari hayotida katta siljish ro'y berdi.

XX asr boshlariga kelib, Turkiston o'lkasidagi yirik markaziy shaharlarda oliy ta'lim maskani hisoblangan quyidagi madrasalar:

Buxoroda – 80, Qo'qonda – 40, Samarqandda – 22, Marg'ilonda – 28, Toshkentda – 17, Xiva xonligida – 130 ta madrasa mavjud bo'lib, ularda 400 dan 5000 tagacha talaba tahsil olar edi.

1906- yilga kelib, birgina Samarqand viloyatining o'zida 1510 ta musulmon maktabi bor edi, ularda 1482 o'qituvchi 12740 talabaga saboq bergan.

Umuman olganda Turkiston o'lkasida 1905–1906- yillarda 5290 ta maktab bo'lib, ularda 70955 talaba ta'lim olgan.

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi diniy muassasalar faoliyatiga ochiqdan-ochiq tazyiq qilgan bo'lmasada, ammo bu ilm maskanlari rivojlanishiga to'siq bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni qo'llab boravergan. Natijada Turkistondagi barcha diniy muassasalar, eski usul musulmon maktablari va qorixonalar 1917- yil fevral inqilobi arafasida isloh talab bo'lib qolgan.

Umuman olganda XIX asr oxiri XX asr boshlarida butun Turkistonda musulmonchilik, maorif shahobchalarining yuqorida nomlari zikr etilgan turlari mavjud bo'lgan. Bularning ichida asosan boshlang'ich diniy maktablar alohida o'rin tutib, ularda ta'lim oluvchilar soni ham ko'pchilikni tashkil qilgan. Maorif shahobchalari ichida esa o'zining salobati, ilm berish darajasi jihatidan madrasalar yuqori o'rin tutgan. Musulmon maorif shahobchalariga 1917- yil Oktyabr inqilobidan so'ng alohida «e'tibor» berildi. Sobiq «Qizil imperiya» davlatining dastlabki yillaridayoq musulmon maktablari va madrasalarga qaqshatqich zarba berildi. 30- yillarga kelib bunday ilm dargohlari tugatildi.

3.2. Rossiya imperiyasi ta'lim tizimi

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston o'lkasida musulmon ta'lim muassasalarini isloh etish va yangi turdagi rus ta'lim tizimini yaratish bir necha bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich, 1867–1883- yillarda imperiya ma'muriyati o'lkadagi rusiyazon va mahalliy aholi bolalari uchun maktablar tashkil etilgan. Ikkinchi bosqich, 1884- yildan – XX asr boshigacha qisman mahalliy aholi e'tiborini qozona olgan rus-tuzem maktablari tashkil etilib, ta'lim usullari tub yerli aholi ta'lim an'alariga yaqinlashtirilgan. Shu bilan birga, o'rta ta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalari tashkil etildi. Uchinchi bosqich, XX asr boshidan – 1917- yilgacha esa rus-tuzem va o'rta ta'lim muassasalari soni oshib, milliy ziyolilar tashkil etgan «yangi usul» maktablar mustamlakachilik siyosatiga zid deb topilgan. Ular imperiya hukumati tomonidan siquvga olingan hamda mahalliy va rus ma'rifatparvarlari tomonidan o'lkada ta'limni keng miqyosdagi isloh etish, o'qitish usullarini zamonaviylashtirishga qaratilgan loyiha va takliflar e'tiborsiz qoldirilgan.

O'lka ma'muriyati tashkil etiluvchi rus maktablari oldida ikkita vazifa qo'ygan:

1) mahalliy aholi diniy qadriyatlarini kamsitmagan holda ta'limni Rossiya imperiyasi manfaatiga mos ravishda rivojlantirish;

2) mahalliy aholini rus monarxiyasi davlatchiligi asoslariga moslashtirish.

1875- yilda tashkil etilgan O'quv ishlari bosh boshqarmasiga rus va mahalliy aholi ta'lim muassasalari ham bo'ysundirilgan. Biroq, K. P. Kaufman davrida mahalliy maktablar nafaqat e'tiborsiz qoldirilgan, balki hukumat moliyaviy madadisiz barbod bo'lishi rejalashtirilgan.

1880- yillarning boshida rus maktablarida o'qiyotgan mahalliy aholi bolalari soni kam bo'lgan. 1887- yil N. O. Rozenbax Maorif vazirligiga murojaat qilib, o'lka mustamlaka ma'muriyatining mahalliy ta'lim maskanlariga nisbatan «mensimaslik» siyosati samarasizligi, ta'lim siyosatidan ko'zlangan strategik maqsadlar ro'yobga chiqmayotganligi tufayli Turkistonda Rossiya imperiyasi ta'lim siyosati yangi yo'nalish olishi kerakligini ta'kidlagan. Natijada 1884- yildan

rus-tuzem maktablari tashkil etilgan. 1890- yili musulmon maktablarini nazorat qiluvchi maxsus uchinchi inspektor lavozimi joriy etilgan. 1890–93 o‘quv yillari davomida bu lavozimda ishlagan V. P. Nalivkin musulmon ta'lim maskanlarini isloh qilish, ularni o‘qitish usul va dasturlariga rus tili va madaniyatini kiritish orqali ta'limdan ko‘zlangan maqsadlarga erishish takliflarini kiritgan. Biroq, bu takliflar musulmonchilik nuqtai nazaridan, «odobdan tashqari, qaltis va hatto noqonuniy»⁹⁵, – deb baholangan.

XIX asr oxirlarida imperiya hukumati o‘lka xalqlari ijtimoiy-ma'naviy hayotida dinning katta ahamiyatga egaligini to‘g‘ri baholagan holda mintaqada o‘zining hukmronlik mavqeini mustahkamlashning yangi yo‘llarini qidirgan. Bu borada imperiya yuqori mahkamalariga taqdim etilgan ma'lumotlar muhokama etilib islomni tartibga solish bo‘yicha XIX asrning 60–80- yillarida shakllangan uslubni o‘zgarishsiz qoldirish to‘xtamiga kelingan. Chunki, Rossiya imperiyasini ta'lim siyosati mohiyatan hukmron elita pozitsiyasi, musulmon Sharqida islomga toqatsiz va dushmanlik ruhidagi davlat sifatida gavdalanishi Rossiyaga g‘oyat foydasiz holat⁹⁶, degan fikrni aks ettiradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistondagi an'anaviy ta'lim tizimida turg‘unlik holati hukmron bo‘lib, an'anaviy ta'limning zamonaviylikdan xoli jihatlari imperiya ma'muriyatining «mensimaslik» siyosatini, imperiya ma'muriyatining mavjud mahalliy ta'limni obro‘sizlantirishga qaratilgan rus ta'lim muassasalari tizimini joriy etish harakatlarini amalga oshirishga zamin yaratgan.

1860–1870- yillarda Imperiya hukumati ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirgan. Turli xil madaniyat va turmush tarziga ega xalqlar ta'limi uchun hududlar tabiiy, geografik va etnomadaniy xususiyatlaridan kelib chiqib alohida-alohida qonun-qoidalar ishlab chiqilgan. Turkiston uchun alohida tartib-qoidalar tizimi shakllantirilmagan, balki umumiy qonun-qoidalar asosida boshqarilgan. 1869- yil 26 may hamda 1874- yil 25 may qonunlariga ko‘ra o‘lkada o‘quv muassasalarini

⁹⁵ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867–1917). – Ташкент: Фан, 1997. – С. 167.

⁹⁶ Бахтурина А.Ю. Окраины Российской империи: государственной управление и национальная политика в годы первой мировой войны (1914-1917 гг.). Москва: РОССПЭН, 2004. – С. 312.

boshqarish uchun direktorlar va xalq ta'limi muassasalari inspektorlari institutlari tashkil etilgan.

O'quv muassasalarini yaqindan nazorat qilish uchun general-gubernator huzurida bilim yurtlari bosh inspektori lavozimi joriy etilib, bosh inspektor huzurida ikkita yordamchi, maxsus kotib-hisobchi bo'lgan. Turkiston o'lkasi hududi o'quv boshqarmasi tomonidan viloyat hududlari bilan kesishmaydigan 3 ta o'quv ishlari inspeksiya rayonlariga ajratilgan.

Turkistondagi ilk rus maktablari muayyan rejalarsiz, asosan o'lkadagi rus aholisining ta'limga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan. General-gubernatorlik tashkil etilgandan so'ng maktablar rus aholisini imtiyozga ega bo'lgan va qaram tabaqalarga ajratgan holda aniq tamoyillarga asoslanib tashkil etilgan⁹⁷.

1873- yilgi «Turkiston o'lkasi ta'lim muassasalarini tashkil etish» loyihada dastlab o'troq aholi uchun oliy – uyezd maktablari, qirg'izlar (ko'chmanchilar) uchun quyi savodxonlik maktablari tashkil etish; o'troq aholi yashovchi ovloq yerlarda rus ta'limini joriy etish rejalashtirilgan. Hayot tajribasi mazkur tahminlarning ba'zilar noto'g'ri ekanligini isbotladi.

Mahalliy aholiga ta'lim berishda rus maktablari faoliyati samarasiz bo'lgan. Turkiston xalqlarining rus maktabiga salbiy munosabatiga «keng va jiddiy» dasturlar emas, balki podsho mustamlakachilik zulmi, mahalliy maktablarning noqulay vaziyatga solinishi, o'quv boshqarmasi vakillarini ko'p hollarda mahalliy aholi bilan hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishi va O'rta Osiyo xalqlari milliy madaniyatining kamsitilishi kabilar sabab bo'lgan.

XIX asr 80- yillarida rus ta'lim tizimi quyidagi ko'rsatgichlarda edi: 1880–1881 o'quv yilida Sirdaryo viloyatida jami 17 ta; Farg'ona viloyatida 5 ta shahar, 5 diniy; Zarafshon okrugida 3 ta; Yettisuv viloyatida jami 67 ta boshlang'ich va o'rta maktab bo'lib, ularning 3355 o'quvchisi bo'lgan.

Xuddi shu paytda Turkiston o'lkasi butun imperiyada jadallashib borayotgan kapitalistik jarayonlarga tobora qo'shilib borishi bilan mahalliy ziyolilar va ilg'or

⁹⁷ Очерки истории и педагогической мысли народов СССР (конец XIX – начало XX в.). / Отв. ред. Э.Д.Днепров. – Москва: Педагогика, 1991. – С. 103.

tadbirkorlar orasida rus tili va imperiya qonunlarini bilishdan manfaatdor kishilar soni ortgan.

Ana shunday sharoitda rus-tuzem maktablari vujudga kelgan. Bu maktablar mahalliy aholi uchun dunyoviy ta'lim olish mumkin bo'lgan yevropa tipidagi birinchi maktab edi.

Mazkur maktablarda rus tili birinchi yildan boshlab o'rgatila boshlangan. O'qish to'rt yillik bo'lgan. O'quv yili 130 kundan oshmagan. Qishloq joylarda o'quvchilarni dala ishlari bilan bandligi tufayli o'quv yili kuzda kechroq boshlanib, bahorda ertaroq tugatilgan. Maktabda yoshi 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'spirinlar o'qitilgan⁹⁸.

Turkiston o'lkasida 1901- yilda 45 ta, 1905- yilda 82 ta va 1911- yilda 89 ta rus-tuzem maktablari mavjud bo'lgan. Dastlabki rus-tuzem maktablari juda og'ir sharoitlarda rivojlanib, maktablar tashkil etish sekin borgan.

XIX asr oxiriga kelib o'lkada rus-tuzem maktablari soni oshishi kuzatiladi. Bunga mintaqa iqtisodiyotida kapitalistik sektorning o'sishi, Turkistonni Rossiyaning markaziy rayonlari bilan bog'lovchi temir yo'l tarmoqlarining ishga tushirilishi, rus shaharlari bilan tovar ayirboshlashning o'sishi, o'lka qishloq xo'jaligining tijoriylashuvi va mahsuldorligi oshishi katta sabab bo'lgan. Bularning barchasi dunyoviy bilimlar egallagan, rus va mahalliy tillarni biluvchi malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib kelgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida rus ta'lim tizimining joriy etilishi bilan birga o'quv ishlarini boshqarish uchun, bugungi kun tushunchasi bilan aytganda, maxsus boshqaruv organlari tashkil etilgan. O'lka ta'lim tizimini boshqaruvchi markaziy apparat Turkiston o'lkasi o'quv ishlari bosh boshqarmasi va uning joylardagi mahalliy vakolatli organlari – rayon inspeksiyalari tuzilgan. Bu borada o'lka boshqaruvida keng imkoniyatlarga ega bo'lgan general-gubernator, viloyat harbiy gubernatorlari, uyezd boshliqlarining vakolatlari o'quv ishlari boshqaruvida ham aks etgan.

⁹⁸ Думенко М.Ф. Русско-туземные школы Туркестана. – Т., 1957. – С. 12

Turkiston o'lkasida tashkil etilgan ilk rus ta'lim muassasalari asosan o'lkaga ko'chib kelgan rus aholining ta'limga bo'lgan talabini qondirishga mo'ljallangan. General-gubernatorlik tashkil etilib, mahalliy aholiga nisbatan imperiya hukumati tomonidan «ruslashtirish» siyosati qo'llanilishi belgilangandan so'ng, ta'lim siyosati va islohoti dolzarb ahamiyat kasb etgan. Rus ta'limini singdirilishi mahalliy aholini imperiyaga g'oyaviy jihatdan qaram bo'lishiga xizmat qilishi kerak edi. Lekin rus ta'lim maskanlari o'z faoliyati natijasida ijobiy holatlarni ham keltirib chiqargan. Xususan, tub aholi o'quvchilari dunyoqarashi rus va mahalliy matbuot orqali dunyo va mintaqada sodir bo'layotgan voqyealardan xabardor bo'lishi orqali yanada o'sgan. Milliy ziyolilar o'lkadagi imperiya ma'muriyatini «ruslashtirish», milliy kamsitish, tub aholi huquqlarini poymol etish siyosati mohiyatini anglab, unga qarshi kurashdi hamda jadidlar faoliyatining keng miqyos kasb etishiga sabab bo'lgan.

O'ganilayotgan davrda o'lkada rus-tuzem maktablari bilan bir qatorda o'rta va kasbga yo'naltirilgan ta'lim tizimi ham joriy etilgan.

O'rta ta'lim muassasalari bo'lgan gimnaziyalar o'lkada 1870- yillaridan tashkil etila boshlangan. Ular zodagon va mansabdorlar farzandlarini davlat xizmati va universitet ta'limiga tayyorlovchi muassasa bo'lib, unda boshqa aholi tabaqalari vakillarining o'qishlariga cheklovlar qo'yilmagan. Gimnaziyalarda ta'lim kurslari, tayyorlov sinfini qo'shgan holda, 9- yilni tashkil etib, o'quv rejasi xilma-hil va kengligi bilan ajralib turgan.

Ko'rgazmali ta'limni rivojlantirish maqsadida gimnaziyalarni xaritalar, globuslar, atlaslar, mashinalar modellari bilan ta'minlash tavsiya etilgan. Gimnaziyalar o'quv kursida asosiy o'rinni qadimgi (lotin, yunon, rus va cherkov slavyan) tillar va matematika darslari tashkil etgan.

Gimnaziyaning pedagogik kengashi katta ahamiyat ega edi. Kengashda o'quvchilarni gimnaziya qabul qilish, o'qituvchilar orasida darslarni taqsimlash, dars jadvallarini tuzish, o'quv qo'llanmalar va kitoblarni tanlash, o'quvchilarni o'qish uchun to'lovlardan ozod etish, kambag'al o'quvchilarga moddiy yordam va stipendiyalarni belgilash, har chorakda o'quvchilar o'zlashtirishi va xulqini

baholash, tartibbuzarlik holatlari bo'yicha choralarini ko'rish, sinfdan sinflarga o'tkazish va ilg'or o'quvchilarga sovrinlarni taqdim etish, imtihonlarni o'tkazish bilan shug'ullangan⁹⁹.

XIX asr oxirlariga kelib hali barcha viloyatlar markaziy shaharlarida gimnaziyalar tashkil etilmagan edi. Ashxobodda birinchi progimnaziya 1896-yilda, Samarqandda o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalari 1899-yilda tashkil etilgan. Verniy o'g'il bolalar gimnaziyasi 1876-yilda tashkil etilgan edi¹⁰⁰.

Gimnaziyalar faoliyatining dastlabki yillarida o'quvchilar soni kam bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular soni ko'paygan. 1886-yilda Toshkent o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida o'quvchilar soni 585 ta, 1893-yilga kelib esa 716 nafarga oshgan. 1900-yilda Samarqand o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida o'quvchilar soni 274 ta, 1910-yilda 820 ta bo'lgan. 1902-yilda Ashxobod o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida esa ular 724 ta, 1910-yilda 1226 bo'lgan.

XX asr boshlarida mavjud gimnaziyalar, o'qituvchilar seminariyalari va kam sonli professional bilim yurtlari soni o'lkada o'rta ta'limga bo'lgan talabga nisbatan kamligi tufayli, jamoat mablag'lari hisobidan tashkil etilgan xususiy o'rta ta'lim maskanlarining soni ortib borgan. 1909-yilda Qo'qon va Toshkentda bittadan tijorat bilim yurtlari mavjud bo'lgan.

Imperiya hukumatining so'nggi yillarida o'lkaning uyezd shaharlarida bo'lgan Andijon va Qo'qonda ikkitadan o'g'il bolalar va qizlar gimnaziyalari, Pishpek va Prjevalskda, Kattaqo'rg'onda, Chorjuyda, Krasnovodskda o'g'il bolalar uchun, Namanganda qizlar uchun gimnaziyalar, Marvda esa 1914-yilda real bilim yurtlari tashkil etilib faoliyat yuritgan.

1917-yilga qadar Turkiston o'lkasida kadetlar korpusidan tashqari o'rta ta'lim maktablari umumiy soni 29 ta bo'lib, ularda 9577 ta o'quvchi ta'lim olgan. O'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning aksariyati aholining mulkdorlar qatlami farzandlari tashkil etgan.

⁹⁹ Хрестоматия по истории школы и педагогики в России (до Великой Октябрьской социалистической революции). Составитель и автор вводных очерков С.Ф.Егоров. Изд. второе переработанное. – Москва, «Просвещение», 1986. – С. 302 – 310.

¹⁰⁰ Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865-1917 гг.). – Ташкент: Гос. Изд-во Уз ССР, 1966. – С. 39.

Toshkentda o'quv-uslubiy jihatdan yaxshi jihozlangan real bilim yurti mavjud bo'lib, ular gimnaziyalarga nisbatan quyi pog'onadagi o'quv muassasasi hisoblangan. Ular aholining o'rta qatlami vakillarini ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Mazkur o'rta ta'lim asosini matematika, tabiatshunoslik va yangi tillar tashkil etib, mazkur muassasa o'quvchilarni texnik va sanoatga yo'naltirilgan maxsus oliy o'quv muassasalariga tayyorlagan¹⁰¹.

1900- yili Orenburg kadetlar korpusining Toshkentda ochilgan tayyorlov maktabi negizida 1904- yili Toshkent kadetlar korpusi tashkil etilgan.

1878- yilgi kasbga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qonunga binoan Xalq maorifi vazirligi butun Rossiya, shu jumladan, Turkiston o'lkasi bo'ylab davlat va xususiy sarmoyalar hisobidan sanoat bilim yurtlari, shahar maktablari huzurida hunarmandchilik sinflari va qo'l mehnati sinflari tashkil etilgan.

1896- yili Toshkentda hunarmandchilik bilim yurti ochilib, unda paxta tozalash va boshqa korxonalarini ta'mirlash uchun malakali duradgor, chilangar, tokarlar va temirchilar tarbiyalangan¹⁰².

XX asr boshiga kelib Toshkent va Verniy shaharlarida yer o'lchovchilar kurslari tashkil etilgan. 1897- yili Toshkentda ariq-oqsoqollar – irrigatsiya nazoratchilarini tayyorlovchi «Quyi geodeziya kurslari» ochilgan. Bundan tashqari, 1887- yildan Verniy shahrida bog'bonlar o'quv yurti hamda shu yildan Kopalada, 1890- yilda Pishpakda, 1896- yildan Jarkentda, 1897- yildan Ashxobodda va 1898- yildan Prjevalskda boshlang'ich qishloq xo'jalik maktablari faoliyat yurita boshlagan.

Turkistonda rus ta'lim tizimi shakllantirilar ekan mazkur muassasalarda dars beruvchi mutaxassis-pedagoglarni tayyorlash uchun 1879- yilda Turkiston o'qituvchilar seminariyasi tashkil etilgan. Unda din qonunchiligi, pedagogika, rus tili, arifmetika, geometriya, algebra, fizika, tabiatshunoslik, Vatan (Rossiya) tarixi,

¹⁰¹ Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865-1917 гг.). – Ташкент: Гос. Изд-во Уз ССР, 1966. – С. 41-42.

¹⁰² Қодиров Н. Н. Туркистонда кишлок хўжалиги йўналишидаги касбий таълим // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2007. – № 3. – Б. 116–118.

geografiya, mahalliy tillar (o‘zbek va fors)¹⁰³, husnixat, rasm darsi, ashula, musiqa, qo‘l mehnati, gimnastika darslari hamda darsdan bo‘sh vaqtlarda bog‘dorchilik va tomorqachilik o‘rgatilgan. 1879–1904- yillarda seminariyaga qabul qilingan 415 ta o‘quvchidan 348 tasi rus, 54 tasi qirg‘iz, 9 tasi o‘zbek, 3 tasi tatar va 1 tasi turkman millatiga mansub bo‘lgan. General-gubernator Samsonov tashabbusi bilan 1913-yili Verniyda ham o‘qituvchilik seminariyasi tashkil etilgan.

Farg‘ona viloyatida kichik kreditlar sherikchilik shirkatlarining tashkil etilishi bilan bog‘liq holda mahalliy aholi uchun 1914- yildan soddalashtirilgan hisobchilik qisqa vaqtli kurslari tashkil etila boshlangan. Mahalliy rahbariyat bu tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlagan. Chunki I jahon urushi yillarida paxta yetishtirishni kuchaytirish va uni Rossiyaga olib chiqishga talab oshib borayotgandi.

Turkistonda paxta tozalash va yog‘ ishlab chiqarish zavodlari va temir yo‘llarga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish maqsadida texnik ta'limga ehtiyojning yuzaga kelishi natijasida Toshkent quyi texnik temir yo‘l bilim yurti tashkil etilgan.

Texnik temir yo‘l bilim yurtlarining o‘quv dasturlari Yo‘l aloqalari vazirligi tomonidan belgilanib, o‘quv-tarbiyaviy jarayonlar ham ushbu vazirlik tomonidan amalga oshirilgan.

Tibbiy ta'lim elementlari Turkistonda XIX asr oxirlarida rus harbiy hospitallari va «mahalliy ayollar va bolalar uchun davolash maskanlari» qoshida tub yerli aholi vakillaridan emlovchilar va doyalarni individual o‘qitish shaklida vujudga kelgan. 1905- yilda Farg‘ona vodiysida 75 ta tub yerli emlovchilar bo‘lgan.

O‘lkada 1917- yilga qadar oliy ta'lim muassasasi mavjud bo‘lmagan. 1912-yili Toshkentda paxtachilik bo‘yicha o‘tkazilgan Turkiston s'ezdda o‘rta qishloq xo‘jaligi va oliy politexnikum ochilishi haqida qaror qabul qilingan. Lekin podsho Rossiyasining so‘nggi yillarigacha ham mazkur muassasa tashkil etilishi borasida jiddiy tadbirlar amalga oshirilmagan.

¹⁰³ Seminariyada o‘zbek va fors tillarini o‘qitish 1885 yildan boshlangan. – dissertant.

Xullas, Turkiston o'lkasida rus ta'lim muassasalarining faoliyati imperiya manfaatlariga xizmat qilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, ular mahalliy xalq ta'limi tizimi sohasida bir qator ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqargan;

- Yevropa pedagogikasi ta'siri ostida mahalliy aholi bolalarini jalb etish maqsadida rus-tuzem maktablari tashkil etilib, ularda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o'qitila boshlangan, o'quv jarayonida noan'anaviy yangi usullardan foydalanilgan, asosiy mashg'ulotlar bilan bir qatorda sinfdan tashqari o'qitish tizimi ham joriy etilgan;

- imperiya ma'muriyati rus-tuzem maktablarda O'rta Osiyo mahalliy aholisining keng ommasini ma'lumotli qilishni rejalashtirmagan. Balki, o'lka ma'muriyatining quyi mansablarida xizmat qiluvchi ma'lum miqdordagi savodli kishilarni tayyorlashni maqsad qilgan edi.

3.3. Turkistondagi ijtimoiy-madaniy hayotga jadidlarning ta'siri

XIX asrning oxirlaridan boshlab Turkistonda jadidlar faoliyatining kengayishini ko'ramiz. O'zbek ma'rifatchiligining rivojida jadidlar alohida o'rin egallaydi. Ular o'lkada eski maktablarni isloh qilish, maishiy turmushni yaxshilash va boshqa muhim tashabbuslar bilan XIX asr oxirlaridayoq chiqa boshlaganlar. Bunday yangiliklar asosan o'qitish usuliga taalluqli bo'lsada, asil mohiyati bilan mahalliy aholini madaniyat turmush sohasidagi o'zgarishlarga muhtoj ekanini ifodalaydigan muhim tadbirlar edi. Turkistondagi jadidchilik oqimining ko'zga ko'ringan rahbarlaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy shunday degan edi: «Bizlar hozirgi madaniyat asosida maktablar, ustaxonalarni va boshka eski turmush bilan bog'liq sohalarni isloh qilishimiz zarur».

Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassisiz tasavvur eta olmaganlar. Shu munosabat bilan ular asosiy e'tiborni mahalliy xalq bolalaridan ilg'or fikrli, bilimli kadrlar tayyorlashga qaratganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab-maorif ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishni va yosh avlod ta'lim-tarbiyasini birinchi

navbatdagi masala, deb bildilar. Shu maqsad yo'lida o'tgan asr oxirlarida jadidlar yangi usul maktablari ochish uchun harakat boshladilar.

Yangi usul maktablarining asoschisi Ismoil Gaspirinskiy (1851–1914- y.) bo'lib, birinchi marta 1884- yilda Bog'chasaroyda yangi usul maktabi tashkil etadi. 40 kun ichida maktabdagi 12 ta bolani savodini chiqaradi...Yoki eski maktabda besh yilda oladigan tahsilni ikki yilda o'rgatishga muvaffaq bo'ladi. So'ng o'quvchilar uchun «Xo'ja-Sibyong» (bolalar muallimi) birinchi darsligini tuzadi. Darslik 4 qismdan iborat bo'lgan. Birinchi qismida «Alifbe»ga 27 dars ajratilgan; qolgan qismlarida turli xil foydali ma'lumotlar va hikoyalar berilgan. Ular orasida «Ikki ulug' shoir» sarlavhasi ostida Navoiy va Pushkin haqida ma'lumotlar berilgan. Yangi usul maktablari o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan.

1. Yosh avlodga hozirgi zamonda kerak bo'ladigan bilimlarni berish.
2. Eski usul ta'limiga yopishib olmasdan, zamonaviy ta'lim usullarini qo'llash.

Yangi usul maktabining boshqa maktablardan farqi va yutuqlari shundaki, bu maktablarda sinf dars tizimiga o'tildi. Darslarda ko'rgazmali materiallardan foydalanish yaxshi natijalar bera boshladi. Sinf xonalarining toza va yorug'ligi, partalarda o'tirib o'qitilishi dars tanaffuslari joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta'limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e'tiroflar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo'lib, 1 chi sinfda bolalarga o'qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o'rgatilgan. 1900- yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o'quvchilaridan imtihon olingan. O'quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekovning yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir

joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to‘g‘ridur...»¹⁰⁴.

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta'lim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasi ko‘z o‘ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg‘or ziyoli va ulamolari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan o‘tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o‘zining afzallik tomonlarini to‘liq namoyish eta olgan. Aksariyat omma imtihondan mamnun bo‘lgan holda tarqalganlar.

Ilg‘or fikrli kishilarning sayi-harakatlari bilan ham ko‘plab yangi maktablar ochilgan. Ba'zan muallimlik uchun chetdan kishilar taklif etilgan. Masalan, O‘sh uyezdiga qarashli Qurshob qishlog‘ida qishloq boshqaruvchisi Erali Mingboshi 1914- yil yanvar oyida yangi usul maktabi ochib, Toshkentdan G‘ulom Zafariyni muallimlik uchun olib keladi.

Ayrim adabiyotlarda Turkistondagi dastlabki yangi usul maktabi sifatida Is‘hoqxon Junaydulloxon Xo‘ja o‘g‘li (Ibrat)ning maktabi eslatiladi. Is‘hoqxon Ibrat (1862–1937) 1878–1886- yillari Qo‘qonning Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida ta'lim oladi. O‘sha kezlari u Bog‘chasaroyda nashr etiladigan «Tarjumon» gazetasi sonlari bilan ham muntazam tanishib turgan. Ushbu nashr orqali u yangi usul maktabining afzalliklari, ta'lim usullari, darsxonalarning tuzilishi va darsliklari haqida ma'lumotlar olib borgan. Madrasani tamomlagach, 1886- yil To‘raqo‘rg‘onga qaytadi va tovush usuliga asoslangan yangi maktab ochadi. Lekin maktab tez orada yopib qo‘yiladi. U 1907- yilga kelib, ikkinchi bor maktab ochadi. Uning maktabida yevropa tillaridan ham darslar o‘tilgan¹⁰⁵.

O‘zbek o‘qituvchisi Saidrasul Azizov tomonidan tovush metodi bo‘yicha tuzilgan birinchi o‘zbek alifbosini yaratish muhim voqeya bo‘ldi. «Ustodi avval» deb atalgan bu alifbo 1901- yilda nashr etilib, keng qo‘llanilgan va o‘shandan buyon har yili qayta nashr etib kelingan.

¹⁰⁴ Қозоқов Т. Фарғонада жадид мактаблари // Фан ва турмуш. -1998. -№5. – Б. 9.

¹⁰⁵ Носиров О., Маъмуров М. Ўзбек адабиётининг муҳим саналари. – Наманган: Наманган Давлат Университети, 1993. – Б. 124.

Bundan tashqari, Munavvarqorining «Adibi avval», «Yer yuzi», Abdulla Avloniyning «Adabiyot va milliy she'rlar», «Birinchi muallim», «Maktab gulistoni», Fitratning «Muxtasar tarixi islom», Ashurali Zohiriyning «Imlo», Behbudiyning «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy» kabi ko'plab nashr etilgan darsliklar mahalliy aholi yoshlarining siyosiy va ijtimoiy savodini chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi¹⁰⁶.

Yangi usul maktablaridagi o'qituvchilarning ko'pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo'lib, ba'zilari esa xuddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o'quv jadvali asosida, senzura ko'rigidan o'tgan darsliklar bo'yicha olib borilgan. Maktablarda o'quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha yetgan. Barcha maktablarda har oyiga o'qish uchun 50 tiyindan 1 so'm 50 tiyingacha haq olingan. Kambag'al oilalarning bolalari esa ba'zan to'lovdan ozod etilganlar.

O'quv inspeksiyasi tomonidan davlat tilini bu maktablarda o'qitish tavsiya etilgan. Yangi usul maktablarida tabiiy fanlarning o'qitilishi chor ma'murlarini g'oyat tashvishga solar edi. Yangi usul maktablari o'zining keng ko'lamliligi, o'qitish sifati bilan eski usul maktablaridan ustun bo'lib, mahalliy aholi ishonchini qozongan va hukumat rus-tuzem maktablariga nisbatan yerli xalq hayotiga tezroq kira boshlagan edi.

Podsho ma'murlarining ta'qiblariga qaramay jadid maktablarining soni ortib boraverdi. Bu jarayonda tatar ma'rifatparvarlarining o'rniga xos bo'ldi. Ular Turkistonning turli viloyatlarida «yangi usul»dagi maktablarni ochishib, mahalliy aholi orasida ma'rifat tarqatish bilan shug'ullanganlar.

Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining 1910- yil 28 maydagi 8829-sonli ko'rsatmasiga muvofiq, Farg'ona viloyati uyezdlaridagi yangi usul maktablarida tatar muallimlarining dars berishlari man etilganiga qaramasdan Namangan va Turkistonning ko'pgina hududlarida ham xalqning hohish istagiga ko'ra, mahalliy aholi bolalarini o'qitishda davom etganlar.

¹⁰⁶ Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш тарихидан. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – Б. 95; Узоқов Х. Ашурали Зоҳирий // Гулистон.-1968. -№10 (22). – Б. 28; Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т., 2002. – Б. 26 – 27.

Namangan uyezdi madaniy hayotida ayniqsa tatar ma'rifatparvarlari H. Z. Makayev va uning xotini F. Makayevalar muhim o'rin tutadilar. Asli Saratov guberniyasi, Xvalinsk udzdi, Yangi Kulatka qishlog'idan bo'lgan H. Makayev 1904- yilda tatar mutassiblarining ta'qibi ostida o'z Vatanini tashlab chiqishga majbur bo'ladi. 1904–1906- yillarda Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh inspektori F. Kerenskiyning ruxsati bilan Yangi Marg'ilonda ochilgan maktabda mahalliy aholi bolalariga saboq beradi¹⁰⁷.

Asrimiz boshlariga kelib Farg'ona vodiysining ko'pgina shahar va qishloqlarida usuli jadid maktablari mavjud edi. Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Namangan, Andijon, O'sh, Marg'ilon kabi yirik shaharlarda jadid maktablari bo'lgani holda, kichik shahar va qishloqlarda ham maktablar ochila boshladi.

Turkiston taraqqiyparvarlarining ommaviy nashri hisoblanmish «Sadoyi Turkiston», jadidlar ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishdagi asosiy vosita bo'ldi.

Turkiston jadidlari Yevropa xalqlarining bu qadar taraqqiy qilishlarining bosh sababi, ularda maktab-maorif ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganligida ekanligini anglab yetib, bu fikrlarini o'z maqolalari orqali gazeta sahifalarida aks ettirdilar.

Samarqand viloyat bilim yurti nozirining 1910- yil 25 martda bergan ma'lumotiga ko'ra, Kattaqo'rg'onda hukumat ruxsati bilan tatar bolalalari uchun yangi usul maktabi mahalliy boy tatar ayoli mablag'i hisobiga ochilgan bo'lib, o'qitish jarayoni tatar tilida olib borilardi. Asosiy dunyoviy fanlar uchun darsliklar tatar mualliflari tomonidan yozilib, Qozon, Ufa va Orenburg shaharlarida chop etilgan edi. 1917- yil oktabrda Kattaqo'rg'onga safar qilgan Hoji Muin mazkur maktabning hanuzgacha faoliyat ko'rsatayotgani qayd etgan edi¹⁰⁸.

1909- yil 10 iyunga kelib tatarlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari soni Namanganda 3, Andijonda 5, Qo'qonda 12 taga yetgan. Yangi usul maktablaridagi o'quv dasturiga «Muallimi avval», «Muallimi soniy», «Qur'on», «Mubtahili junon», «Mahrumot ud-din», «Zabur», «Jo'g'rofiya», «Ibodati islomiya» va ayrim maktablarda bularga qo'shimcha «Muhammadiya» va

¹⁰⁷ Насриддинова Д. Маориф ишларини ташкил этишда татар аёллари // Тарих тилга кирганда... Даврий тўплам № 2. – Наманган, 2008. – Б. 32.

¹⁰⁸ Муин Х. Каттақўрғон хотиралари // Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2005. – Б. 71.

«Qomus» fanlari ham kiritilgan edi. Maktablarda Osiyo xaritasi, globus, partalar, doska, kirim-chiqim hisobi, imperator Nikolay II ning portreti bor edi. O‘qish uchun to‘lov ota-onalarning moddiy holatlariga qarab, oyiga 50 kopeekdan 3 rublgacha olingan. Ayrim nochor oilalarning farzandlari umuman bepul o‘qitilgan¹⁰⁹.

Turkiston taraqqiyparvarlari maorif sohasida asosiy e'tiborni boshlang'ich ta'lim islohiga qaratdilar. Ularning ma'rifatparvarlik harakatlari zoe ketmadi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida ta'lim olgan o'quvchilardan keyinchalik ilm-fan, texnika, adabiyot va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida nom taratgan arboblar yetishib chiqdilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining mahsuli sifatida XX asr boshlarida milliy teatr san'ati vujudga keldi. Ushbu san'at turining shakllanishida rus, ozarbayjon sayyor truppalari bilan birgalikda tatar teatr truppalari ham katta ahamiyat kasb etgan. O‘zbek jadid dramaturgiyasining vujudga kelishi va shakllanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Sh. Rizayevning ta'kidlashicha, o‘zbek milliy teatr san'atining tug‘ilishiga tatar sayyor teatr jamoalari muhim turtki bergan edi¹¹⁰.

Tatarlar Yevropa teatr san'ati bilan Turkiston aholisiga qaraganda ancha oldinroq tanishgan bo‘lib, o‘lkada yashovchi tatarlar tomonidan badiiy kechalar tashkil etish odat tusiga kirgan edi. Jumladan, Toshkentda savdo ishlari bilan shug‘ullanuvchi Sharif Yaushev doimiy ravishda Moskvadan badiiy orkestrlarni olib kelib Toshkentdagi o‘z bog‘ida konsert dasturlarini tashkil etgan. Ushbu ziyofatlarga K. P. fon Kaufman boshliq general-gubernatorlik vakillarini ham taklif etib, o‘z faoliyati uchun lozim bo‘lgan ko‘plab siyosiy huquqlarni qo‘lga kiritgan edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston tarixida muhim o‘zgarishlarga boy bo‘lgan davr hisoblanadi. Jadidchilik g‘oyalari shiddat bilan o‘lkaga kirib keldi va Turkistonning keyingi tarqqiyoti darajasini belgilab berdi. Jadidchilik

¹⁰⁹ Исоқбоев А.А. Фарғона водийсида татар маърифатпарварлари фаолияти хусусида // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2004. -№1. – Б. 41–42.

¹¹⁰ Ризаев Ш. Жадид маърифатчилиги ва театр // Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т.: Университет, 1999. – Б. 119.

g'oyalari bilan birga o'lka xalqi uchun «yangilik» hisoblangan yevropacha teatr san'ati ham kirib keldi va mahalliy millatni unga bo'lgan qiziqishi ortib bordi. Teatr san'atini Turkiston xalqi madaniy hayotiga qisqa davr ichida kirib kelishi va taraqqiy etishida o'lka taraqqiyparvarlarining tatar ma'rifatparvarlari bilan o'zaro hamkorliklari asosiy rol o'ynagan. Turkiy xalqlar orasida tatar professional teatrining paydo bo'lishi va uning ijodiy safarlarini qachondan boshlanganligi to'g'risida quyidagi fikrlar mavjud. X. L. Kumisnikovning fikricha, tatar professional teatrining paydo bo'lishi va uning to'la shakllangan davri 1905- yilga to'g'ri kelgan. 1906- yil 22- dekabrda esa, bu teatr truppasi o'z gastrollarini boshlagan¹¹¹.

M. Raxmonov ham 1905- yilgi rus revolyusiyasi ta'sirida haqiqiy tatar professional teatri 1906- yilda tashkil topgan deya qayd etadi. 1908- yilda esa A. Qoriyev qo'l ostida «Sayyor», Izzatullina boshchiligida «Nur» teatr truppalari tashkil topgan. Sh. Rizayevning qayd etishicha, S. I. Voljskaya boshliq «Nur» truppasi 1911- yil tashkil topib, 1912- yildan ushbu shaharlarda bo'lganini ta'kidlaydi¹¹².

Toshkentda istiqomat qiluvchi general Sohib Gireyevich Yenikeyev xonadonida ham doimiy ravishda san'at kechalari o'tkazib kelingan. 1904- yilning 4 aprelida shu xonadonda Navmiq Kamolning «Ishq balosi» spektakli Turkistonda yashovchi tatar havaskorlari tomonidan namoyish qilingan. Mazkur spektakl namoyishi boshlanishidan oldin polkovnik Abubakr Divayev so'zga chiqib, yevropa teatri haqida ma'ruza qilgan. Xonadon egasi S. G. Yenikeyev boshqirdistonlik tatarlardan edi. Uning turmush o'rtog'i Saodatxonim yenikeyeva esa Qo'qon xoni Xudoyorxonning Sankt-Peterburgdagi elchisi Mirza Hakim parvonachining tatar xotinidan dunyoga kelgan edi. Saodatxonim Toshkent ayollar gimnaziyasida tahsil olib, yevropacha tarbiya olgan, royal chalishni biladigan ma'rifatparvar ayollardan bo'lgan. S. G. Yenikeyev Rossiya imperiyasining Turkistondagi armiyasi safida ofitser sifatida xizmat qilgan. U Asaka uyezdi

¹¹¹ Кумысников Х.Л. Истоки сценического реализма. Очерк из истории дооктябрьского татарского театра. – Казань: Тат.кн.изд-во, 1982. – С. 3.

¹¹² Ризаев Ш. Жадид драмси. – Т.: Шарк, 1997. – Б. 27.

boshlig'i lavozimida ishlayotgan paytda 1898- yilgi Dukchi eshon qo'zg'oloniga xayrixoh bo'lganlikda ayblanib iste'foga chiqarilgan edi¹¹³. Iste'fodan so'ng S. G. yenikeyev Toshkentda yashab, Turkistonda istiqomat qiluvchi tatarlarning ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qilgan. Shu maqsadda bir necha bor Sankt-Peterburgga hukumat rasmiylari bilan muzokara uchun borgan.

1909- yili S. G. Yenikeyev va Saodatxonim xonadonida tatar havaskorlari tomonidan «tatar dramaturgiyasining otasi» Aliasqar Kamolning «Birinchi teatr» nomli komediyasi qo'yilgan. Mazkur komediya sahna ko'rinishlarida o'zbek ziyolilaridan A. Avloniy ham ishtirok etgan edi¹¹⁴.

S. G. Yenikeyev va Saodatxonim sa'y-harakatlari tufayli Toshkentda badiiy tatar havaskorlari jamoasi yuzaga kelgan. Ular tomonidan 1909- yili Toshkentda «Musibati Faxriddin» va «Qizlar qanday kulalar» nomli spektakllar namoyish etilgan. 1910- yildan boshlab esa Toshkentda doimiy tatar teatr jamoasi ish boshlagan. Mazkur truppada ozarbayjon, tatar va rus dramaturgiyasining sara namunalari sahnalashtirib borilgan.

1908- yilda Sayyor truppasi Kavkazda ijodiy safarda bo'lib, Ozarbayjon teatr truppasi bilan uchrashgan. Bu truppga Husain Arablinskiy boshchilik qilgan. U tatar teatrida ayollarning faoliyat kursatishiga yuqori baho berib, «buyuk qahramonlik» deya baholagan.

O'sha paytda Ozarbayjon teatr truppasida ayollar rolini erkaklar ijro etishgan. H. Arablinskiy Ozarbayjon va tatar teatrlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlanishida o'zining hissasini qo'shdi. «Nodir» spektaklida Nodirning xotini rolini 16 yoshli S. Izzatullina-Voljskaya o'ynagan bo'lib, bu roli uning hayotida o'chmas iz qoldirgan. O'sha kezlari «Sayyor» truppasida 2 nafar ayol bo'lib, Sohibjamol Izzatullina-Voljskaya va Zulayxo Bogdanovalar bor edi. 1910- yilning o'rtalariga kelib, «Sayyor» truppasida aktrisa ayollarning soni birmuncha ko'payib, Gulsum Bolgarskaya, Naima Tajirova, Nafiga Arapova, Fotima Ilskaya va Sara Baykina kabi aktrisalar safga qo'shilganlar. Ularning o'ynagan rollari tatar

¹¹³ Ризаев Ш.Т. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари. Филология фан. номз ... дисс. – Т., 1995. – Б. 31.

¹¹⁴ Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 88.

teatrining shuhratini yanada oshishiga sabab bo'lgan. S. Izzatullina-Voljskaya «Xo'jayin va g'ulom» spektaklida Bibijamol rolini o'ynagan. U o'zini zo'rlab boyga uzatmoqchi bo'lgan zulmkor otaga qarshi chiqa olgan qiz rolini ijro qilib, undagi jur'atlilik, mardlik va o'z baxti uchun kurashish kabi qirralarini mahorat bilan ochib bera olgan.

Qo'qonda yashab, faoliyat ko'rsatgan tatar ziyolisi A. Shagidullinov 1908-yili to'raqo'rg'onlik jadid munavvari Is'hoqxon Ibrat taklifiga ko'ra, Namanganga kelib, «Matbaai Is'hoqiya»ni tashkillashda ishtirok etgan. Uning mehnat va ijodiy faoliyati serqirra bo'lib, 1911-yili «Falokatxada» nomli qissa va Turkiston tarixida birinchi bor o'zbek tilida «Mahramlar» nomli 3 pardali dramasini yozib, 1912-yili «Matbaai Is'hoqiya»da nashr ettirdi¹¹⁵. Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi ham aynan shu yilda yozilgan bo'lsa ham 1913-yili nashr etilgan edi. Birinchi o'zbek milliy dramasi masalasida bu ikki drama va uning mualliflari olimlar o'rtasida hozirgi kunga qadar ham tortishuvlarga sabab bo'lib kelmoqda.

Tatariston teatr truppalari Turkistonga 1911-yildan boshlab tashrif buyurganlar. 1911-yili Ilyosbek Kudashev-Ashkazarskiy rahbarligidagi professional tatar «Sayyor» teatr truppasining Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoroda bo'lishi ham o'lkada mahalliy teatrchilik ishlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. «Sayyor» teatr truppasi 1908-yilda Qozonda I. Ashkazarskiy, S. I. Voljskaya va A. Qoriyev tashabbuslari bilan tashkil topgan edi. «Sayyor» truppasi ta'sirida 1912-yilda Ufa tatarlari tomonidan «Nur» nomli teatr truppasi ham faoliyat ko'rsata boshlagan¹¹⁶.

«Sayyor» truppasi 1911-yili Toshkent, Buxoro va Farg'ona vodiysi shaharlarida Aliasqar Kamolning «Baxtsiz yigit», «O'ynash», «Bizning shahar sirlari», «Dajjol», Is'hoq Bogdanovning «Kambag'allik ayb emas» nomli sahna asarlarini namoyish etgan. Oradan bir yil o'tib, taniqli tatar aktrisasi Sohibjamol Izzatullina Voljkaya Ufadan «Nur» nomli teatr guruhi bilan kelib, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Marv, Chorjo'y shaharlarida spektakllar namoyish etgan¹¹⁷.

¹¹⁵ Ризаев Ш. Жадид драмасы ... – Б. 126, 127.

¹¹⁶ История Татарской АССР. – Казань: Татарское книжное издательство, 1980. – С. 115.

¹¹⁷ Ризаев Ш.Т. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари... – Б. 32.

1913- yili «Sayyor» truppassining yana bir vakili Abdulla Qoriyev o‘z jamoasi bilan Simbirsk, Samara, Saratov, Saritsin, Astraxan, Boku shaharlaridan so‘ng, Turkistonning Chorjo‘y, Marv, Buxoro, Samarqand, Andijon, Namangan, Qo‘qon, Toshkent, Turkiston, Oqmachit, Qozoli kabi shaharlari bo‘ylab safarda bo‘lib spektakllar namoyish etgan. Bu hol TRMB boshlig‘i Sizixni jiddiy tashvishlantirgan. Sizix A. Qoriyev to‘g‘risida Qozon guberniya jandarmeriya boshqarmasi boshlig‘i, podpolkovnik Dobrodeyevdan ma'lumot so‘ragan. Undan olingan maxfiy ma'lumotga qaraganda, tatar aktyori A. Qoriyev shu yil qish yaqinlashishi munosabati bilan Nijniy Novgoroddan Qozonga qaytib kelgan. A. Qoriyev keng dunyoqarashli va ma'rifatli kishi bo‘lib, Qozonda bo‘lgan paytlarida doimiy ravishda madrasa talabalari bilan uchrashib turgan. U o‘zi safarda bo‘lgan shaharlarda tatarlar bilan uchrashib, ular tomonidan olib borilayotgan ma'rifiy ishlar to‘g‘risida qozonlik ma'rifatparvarlarga so‘zlab bergan. Qozon guberniya jandarmeriya boshqarmasi boshlig‘i bu ma'lumotlarni yetkazish bilan birga TRMB boshlig‘i Sizixga A. Qoriyev faoliyatini jiddiy nazorat ostiga olinishi foydadan holi bo‘lmasligini maslahat bergan edi. O‘z navbatida podpolkovnik Sizix Toshkent, Turkiston, Perovsk, Aralsk, Krasnovodsk, Ashxobod, Marv, Murg‘ob, Chorjo‘y, Samarqand, Chernyayev, Sirdaryo va Marg‘ilon politsiya boshqarmalariga yo‘llagan xatida A. Qoriyev faoliyatini qat'iy nazoratga olishni buyurgan edi.

Ta'qib va tazyiqlarga qaramay A. Qoriyev «Sayyor» truppassi bilan 1913- yil 8 iyunda Kogonda, 13 iyunda Samarqandda spektakllar namoyishini tashkil etgan.

Asta sekin mahalliy aholining ham teatr san'atiga bo‘lgan qiziqishi ortib borgan. 1914- yil 15 yanvarda Samarqandning Yangi shahar qismida o‘zbek va tatar yosh taraqqiyparvarlari birgalikda o‘zbekcha «Padarkush» va tatarcha «Oldaduk va oldanduk» nomli sahna asarlarini ijro etganlar. Spektakllarni tomosha qilishga kelganlar shu qadar ko‘p bo‘lgan-ki, biletlar avvaldan qimmat narxlarda sotilgan. 320 kishilik teatr zaliga qo‘shimcha yana ellikta joy tayyorlangan. Ba'zilar o‘z biletlarini ikki barobar qimmatiga sotib foydalanib qolganlar¹¹⁸.

¹¹⁸ Ризаев Ш.Т. Ўзбек жаҳид драматургиясининг шаклланиш манбалари... – Б. 64.

1914- yil 2- mart kuni Kattaqo‘rg‘onda mahalliy tatar va o‘zbek havaskorlari tomonidan «Padarkush» dramasi qo‘yilgan. Undan so‘ng tatar truppasi o‘z tillarida «Erim qaytdi» komediyasini namoyish etganlar.

Buxoro amirligida teatr ishlari tashkil etish ham asosan tatarlar tomonidan amalga oshirilgan. Bular asosan Qozon va Samarqanddan kelgan tatar truppalari bo‘lib, o‘z spektakllariga mahalliy tatar, o‘zbek va tojik havaskorlarini ham ijrochi yoki tashkilotchi sifatida jalb etishga uringanlar. Shu tariqa Buxoroda yashovchi tatarlar tomonidan ham yangi bir truppa tashkil etilib, tatar, ozarbayjon va turk pesalarini sahnalashtira boshlaganlar. Bu truppaga tatar ziyolisi Husayn Najib boshchilik qilgan. H. Najib Behbudiya murojaat etib, «Padarkush»ni sahnalashtirishga ijozat so‘ragan. Tomoshadan tushadigan foydani faqir talabalarga tarqatilishi xususida ma'lumot bergan. 1914- yil 5 mart kuni Buxoroning «Torikiston» binosida «Padarkush» dramasi namoyish etilgan. Biroq tatarlar «Padarkush»ni mahorat bilan ijro eta olmagan bo‘lsalar ham, shu kuni Aliasqar Kamolning «Birinchi teatr» komediyasini namoyish etib, tomoshabinlarni xushnud etganlar.

Turkistonga tatar teatr truppalari bilan birgalikda qo‘shiqchilar ham gastrolga kelganlar. 1913- yili tatar xonandasi Muhammad Komil Mut‘ey Tuxfatullin Turkistonning ko‘plab shaharlarida bo‘lib, konsert dasturlari tashkil etgan. Ayniqsa uning Samarqanddagi ruscha, arabcha va turkiycha qo‘shiqlari katta olqishlarga sazovor bo‘lgan. U shunday ijodiy safarini 1914- yilning yozida Farg‘ona vodiysi bo‘ylab amalga oshirgan edi¹¹⁹. Mana shunday gastrol safarlari Turkistonda yashovchi tatarlarni ham musiqa yo‘nalishida faoliyat yuritishga undagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. 1914- yil 5 iyundan Toshkent shahrida Mustafu Mansurov boshchiligida tatar musiqa to‘garagi ish boshlagan. Biroq bu to‘g‘arak rivojlanishi uchun ijtimoiy zamin yetarli bo‘lmaganligi sababli qisqa vaqt ichida o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan.

¹¹⁹ Тожибоев Р. «Садои Фарғона» – жадид матбуоти намунаси // Марказий Осиё XX аср бошида: ислохотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш. – Т.: Маънавият, 2001. – Б. 77.

1917- yil 14- dekabrda mavlud bayrami munosabati bilan Kattaqo‘rg‘onda tatarlar jamiyati tomonidan «Ittihad va taraqqiy» jamiyati foydasiga kecha o‘tkazilgan. U tatar maktabida o‘quvchi bolalar tomonidan uch bo‘limdan iborat tarzda tashkil etilgan. Birinchi bo‘limda she‘rxonlik, ikkinchi bo‘limda musiqali chiqishlar, uchinchi bo‘limda «Iyimchilar qurboni» nomli bir pardali drama namoyish etilgan. 24- dekabrda esa Toshkentda siyosiy ahvol jiddiyligiga qaramay tatarlar tomonidan shahardagi birinchi tatar maktabi foydasiga spektakl namoyishi tashkil etilgan. Vaziyat o‘ta tahlikali bo‘lsa-da, ancha ko‘p tomoshabin yig‘ilgan. Ko‘rilgan 1300 rubl sof foyda esa tatar maktabi ixtiyoriga berilgan.

1918- yil 2 fevralda «Qozoli musulmon teatr to‘garagi» tomonidan o‘zbekcha-tatarcha spektakl namoyish etilgan. Spektaklga tomoshabinlar shunchalik ko‘p to‘plangan edilar-ki, biletlar yetishmaganligidan odamlarni kiritish uchun nazorat markalaridan ham foydalanilgan. Shu kuni olingan 470 rubl 14 kopeek sof foyda to‘garak ixtiyorda qoldirilgan.

Bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi va olib borilgan siyosat oqibatida nafaqat Rossiyaning ichki guberniyalari, balki Turkistonda ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanglik vujudga keldi. Bu o‘z navbatida Turkistonda endigina rivojlanib kelayotgan milliy teatr taraqqiyotiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. «Ulug‘ Turkiston» gazetasining 1918- yil 23 mart sonida berilgan xabarga ko‘ra, 18 martda Toshkentdagi harbiy kengash zalida mahalliy o‘quvchilar «Guliston» jamiyati tomonidan «Ishqning furtunasi» nomli to‘rt pardali drama qo‘yilgan. Biroq bu spektakl kutilgandek yaxshi natija bermagan¹²⁰.

II bob bo‘yicha xulosa:

XIX asr oxiri XX asr boshlarida butun Turkistonda musulmonchilik, maorif shahobchalari – boshlang‘ich diniy maktablar alohida o‘rin tutib, ularda ta‘lim oluvchilar soni ham ko‘pchilikni tashkil qilgan. Maorif shahobchalari ichida esa o‘zining salobati, ilm berish darajasi jihatidan madrasalar yuqori o‘rin tutgan. Musulmon maorif shahobchalariga 1917- yil Oktabr inqilobidan so‘ng alohida «e‘tibor» berildi. Sobiq «Qizil imperiya» davlatining dastlabki yillaridayoq

¹²⁰ Исоқбоев А.А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида ... – Б. 128.

musulmon maktablari va madrasalarga qaqshatqich zarba berildi. 30- yillarga kelib bunday ilm dargohlari tugatildi.

Turkistonning ruslar istiqomat qiluvchi hududlarida maorif sohasi mustamlaka hukumatining manfaatlarini ko'zlagan holda taraqqiy etdi. Mahalliy aholi yashaydigan hududlarda esa maorif taraqqiyoti uchun kerakli e'tibor va mablag' ajratilmadi. Aksincha, o'zbek xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini va an'alarini saqlab kelayotgan maktab va madrasalarni asta-sekin tugatish va o'lkada ruslashtirish siyosatini olib bordi. Hatto milliy ziyolilar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarini ham qattiq nazoratda ushlab turildi. Maktab rahbarlari bilan bir qatorda o'qituvchilar va o'qitiladigan darsliklar ham muntazam ravishda tekshirilib turildi.

Bu davrda Turkiston taraqqiyparvarlari maorif sohasida asosiy e'tiborni boshlang'ich ta'lim islohiga qaratdilar. Ularning ma'rifatparvarlik harakatlari zoe ketmadi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida ta'lim olgan o'quvchilardan keyinchalik ilm-fan, texnika, adabiyot va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida nom taratgan arboblari yetishib chiqdilar. Turkistonda tatar ziyolilari munosib hissalarini evaziga teatr san'ati yuzaga keldi. Bu esa keyingi jarayonda mahalliy aholi madaniy ongining rivojlanishida muhim omillardan biri bo'ldi.

XULOSA

Mustabid sovet tuzumi davrida Vatanimiz tarixining ko‘p davrlari jumladan, Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, keyinchalik bu hududda sho‘rolar hokimiyatining o‘rnatilishi, Turkiston Muxtoriyati bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar soxtalashtirilib, turli hil bo‘yoqlar bilan xalqimiz e‘tiboriga havola etildi. Mustaqillik yillarida ana shu noholislik bartaraf etilib, haqqoniy tarixni xalqimizga yetkazib berishdek, savobli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning 1998- yil 26- iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar va ijodiy xodimlar bilan bo‘lgan uchrashuvida tarix fanini yaratish bo‘yicha tarixchi olimlar oldiga qo‘ygan vazifalari asosiy omil bo‘lib xizmat qilayotgani hech kimga sir emas.

Shu o‘rinda yurtboshimizning «Tarix xotirasi xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o‘zlikni anglashni, ta'bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Ahloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda»¹²¹, – degan fikrlari o‘zining naqadar to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shu paytga qadar xolisona o‘rganilmagan o‘ziga xos murakkab, munozaralarga asos bo‘la oladigan davrlarni qamrab olgan mavzular mavjud. Bu davrlar O‘zbekiston tarixida o‘ziga hos iz qoldirgan bo‘lsa-da, ammo sotsializm qurish yillaridagi mafkuraviy ta‘qiblar, tarix va tarixiy jarayonlarga noxolisona yondoshishlar tufayli bu muammolarni sovet hokimiyati hukmronligi davrida chuqur ilmiy asoslangan xolatda o‘rganishni kun tartibiga qo‘yilmadi. Chunki sovet hokimiyati yillaridagi mavjud tizim hamma yo‘nalishlarda, ayniqsa, mafkura hamda ma'naviyatning ildizi bo‘lgan tarixiy merosni o‘rganishda sotsializm manfaatlaridan kelib chiqib va Markaz manfaatlarini hisobga olib o‘rganishni talab qilardi. Ko‘p millatli, ammo ihtiyoriy-majburiy tarzda «bir oilaga» birlashtirilgan

¹²¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 140.

xalqlar ustidan hukmronlik qilishning yo‘llaridan biri Markaz manfaatlarini himoya qilish bo‘lgan. Bunday siyosat bolsheviklar uchun sovet hokimiyatining dastlabki yillariga ham xos edi.

Turkiston ziyolilari keng xalq ommasini mamlakatni boshqarishga jalb qilishga, o‘z xalqining manfaatlarini himoya qilish va bu xuquqni qo‘ldan bermaslikka kuch-g‘ayrat sarfladilar. Biroq, Rossiyada hukmron bo‘lgan bolsheviklar rejimini va uning imperiyacha manfaatlarini himoya qilgan Turkkomissiya butun kuch va vositalar bilan milliy vatanparvarlar Turkiston Avtonom Respublikasi rahbarligida o‘tgan milliy vatanparvarlar muddaolarining to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qildi. Respublikani boshqarishga milliy kadrlar keng jalb qilinsada, Turkiston amalda avvalgidek Markazga mustamlaka qaramligida qolaverdi, uning bu sohadagi ahvoli chorizm hukmron bo‘lgan zamonlarga nisbatan kam o‘zgardi. RKP(b) milliy respublikalar va viloyatlarning mas‘ul xodimlari bilan o‘tkazgan 4- kengashida Turkistonning taniqli jamoat va siyosiy arboblari Akmal Ikromov, Sultonbek Xo‘janov so‘zlagan nutqlarida buni oshkora va dadillik bilan aytdilar. Ularning fikricha, «Hozirgi Turkiston bilan podsho Turkistoni o‘rtasida hech qanday farq yo‘q, faqat lavha o‘zgardi, Turkiston, avvalgidek chorizm davrida qanday bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha qolaverdi».

Turkistonni Rossiya Federatsiyasining avtonom sovet respublikasi deb e‘lon qilinganligi va Turkiston Avtonom Respublikasining dastlabki yillardagi faoliyati taxliliga yakun yasab, shunday xulosa chiqarish mumkinki, oktabr to‘ntarishidan keyingi barcha o‘zgarishlar Turkiston xalqlarining xoxish-irodasi bilan amalga oshirilmadi, balki Moskvaning bevosita ko‘rsatmasi bilan, sovetlar V s‘ezdida ko‘pchilikni tashkil etgan bir necha shovinist bolsheviklar va so‘l eserlar tomonidan amalga oshirildi. O‘lka halqlari esa Turkiston sovet avtonomiyasini tu‘zishda mutlaqo ishtirok qilmadilar, ularning xoxish-istaklari so‘ralmadi. Binobarin, TASSR tashkil etilishidek «muhim tarixiy» tadbirning amalga oshirilishidan faqat «proletariat» orasidan chiqqan, «hukmron partiyalar»ga mansub maxalliy bulmagan aholi vakillari manfaat ko‘rdilar. Ular respublikani boshqarishga kelar ekanlar, Markaz siyosatini qattiq turib amalga oshirdilar,

Turkiston halqlariga emas, balki Markazga astoydil xizmat qildilar. Bularning xammasi tabiiy ravishda mahalliy aholini, ayniqsa, milliy vatanparvarlar noroziligining kuchayishiga olib keldi.

Bolsheviklar chekka o'lkalarda, hususan Turkistonda Rossiya imperiyasi olib borgan siyosatni qoralagan holda amalda o'zlari ham o'lkada «sovetlarcha o'marish» va asrlar davomida shakllangan diniy hamda milliy qadriyatlarni oyoq osti qilishga tushdilar. To'g'ri, ular podsho ma'murlaridan farqli o'laroq, bu «tadbir»larni amalga oshirishda qizil so'zlarni ishlatishdan, har bir harakatlariga mazlum xalqlar manfaati yo'lida jonbozlik ko'rsatayotganliklarini ta'kidlashdan charchamagan holda hayotga tadbiiq etdilar. Oxir-oqibatda «qoloq» va har tomonlama ezilgan Turkiston xalqlari uchun ro'shnolikni Markaz bergan yordam tufayligina amalga oshirilganini ko'plab ilmiy tadqiqotlardan o'rgana boshlandi.

Albatta, hukmron mafkura manfaatlariga bo'ysundirilgan siyosiy jarayonda olib borilgan tarixiy tadqiqotlarda bir tomonlama va noxolis talqinlar mavjud edi. Boshqacharoq aytganda tarixiy tadqiqotlar ham Markaz manfaatlariga mos ravishda talqin qilingan.

Prezidentimiz imzosi bilan 1996–1998- yillarda uchta Farmon va qaror (1996- yil 18- sentabr «O'zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to'g'risida», 1996- yil 16- dekabrda «O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr qilish to'g'risida» va 1998- yil 24- iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida») qabul qilindi. Bu esa tarixchilarimiz oldiga jiddiy vazifalarni qo'ydi.

Biz tadqiq etgan mavzu nafaqat millatimizni, balki ming yillardan beri baqamti yashab kelayotgan tojik, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq va qozoq xalqlarining ham tarixidagi kemtiklarni yoritishga ko'maklashadi. Xalqimizga yetkazilayotgan haqqoiy tarix ma'aviiy ozuqa, kuch-qudrat va millatimizning g'ururini uyg'otishiga xizmat qiladi.

Haqiqiy va xolis yoritilgan tarixni xalqimizning ongi va qalbiga joylashtirmog'imiz lozim. Chunki hali ham eski davrni qo'msaydigan va undan manfaatdor bo'lgan kuchlar yo'q emasligii unutmashimiz kerak. Ana shundagina

millatning ruhi, tafakkuri, gʻururi uygʻonadi va mustaqillikning naqadar buyuk neʼmat ekanligini uni asrab avaylash va mustahkamlash yanada rivojlantirish har bir Oʻzbekistonlikning eʼtiqodiga aylanadi.

Bu bilan kichik ilmiy tadqiqot ishimiz oxiriga yetgan, tugallangan deb boʻlmaydi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkin-ki, ushbu mavzu boʻyicha koʻplab yangidan-yangi ilmiy-tadqiqot ishlari oʻz tadqiqotchilarini kutib qoladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:**I. Rasmiy adabiyotlar:**

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон. 1997. – 409 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 393 б.
- 1.3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т.: Ma'naviyat, 2008. – 108 б.
- 1.4. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз // Халқ сўзи. – 2016. –15 декабр.
- 1.5. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабр.
- 1.6. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
- 1.7. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январ.
- 1.8. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. –10 январ.
- 1.9. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. –17 январь.
- 1.10. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. –25 январ.
- 1.11. ЎзР ФА Тарих институтининг фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида // Халқ сўзи. 1998 йил 29 июль.

1.12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси» ПФ–4947- сонли Фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1–2.

II. Asosiy adabiyotlar:

2.1. Абдурахимова Н., Иргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. – 240 б.

2.2. Абдурахимова Н. А. Ўзбекистон Россия империяси таркибида // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарқ, 2001. – 224 б.

2.3. Абу Таҳирхожа ва бошқ. Шажарайи Хоразмшоҳий / Баёний. – Т.: Камалак, 1991. – 336 б.

2.4. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: миллий демократик давлатчилик қуриш тажрибаси. – Т.: Маънавият, 2000.

2.5. Баёний Муҳаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшоҳий // Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991. – 336 б.

2.6. Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун қураш тарихидан. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – 114 б.

2.7. Бахтурина А.Ю. Окраины Российской империи: государственной управление и национальная политика в годы первой мировой войны (1914–1917 гг.). – Москва: РОССПЭН, 2004. – 528 с.

2.8. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарих. – Т.: «Фан», 1996.

2.9. Воскобойников Э., Зевелев А Турккомиссия ВЦИК и Совнаркома РСФСР и Туркбюро ЦК РКП (б) в борьбе за укрепление советской власти в Туркестане. – Т.: «Государственной издательство Уз ССР», 1951.

2.10. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Т.: Шарқ, 1994.

2.11. Долимов У. Туркистонда жаҳид мактаблари. – Т.: Университет, 2006. – Б. 127.

2.12. Думенко М.Ф. Русско-туземные школы Туркестана. – Т., 1957.

2.13. Жаҳидчилик, ислоҳот, янгиланиш, мусатақиллик ва тараққиёт учун қураш (даврий тўплам №1) – Т.: Университет, 1999. – Б. 121.

- 2.14. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998.
- 2.15. Исмаилов Ш. Народное образование в Узбекистане в конце XIX – начале XX века: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 1981.
- 2.16. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. – Т.: Фан ва технология, 2004.
- 2.17. История Советской Конституции // Сборник документов. 1917—1957 гг. – М., 1957.
- 2.18. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). – Ташкент: Фан, 1997.
- 2.19. Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865-1917 гг.). – Ташкент: Гос. Изд-во Уз ССР, 1966.
- 2.20. Кумысников Х.Л. Истоки сценического реализма. Очерк из истории дооктябрьского татарского театра. – Казань: Тат.кн.изд-во, 1982.
- 2.21. Мирзо Абдулазим Сомий. Тарихи салотини Манғитийа. – М.: ИВЛ, 1962. – 89 б.
- 2.22. Мирзо Олим Мушриф. Ансоби ус-салотин ва таворих ул – ҳавоқин / Нашрга тайёрловчилар А. Матғозиев, М. Усмонова. – Т., 1995. – 128 б.
- 2.23. Муин Ҳ. Каттақўрғон хотиралари // Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2005. – 172 б.
- 2.24. Мулло Юнусжон Мунший. Амир лашкар Алимқул тарихи. Алимқул жангномаси. – Т., 1998.
- 2.25. Муминов И.М. Избранные произведения в 4-х томах. – Ташкент, 1976, Т.2.
- 2.26. Муҳаммад Ҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 717 б.
- 2.27. Набиев А. Мустақиллик учун кураш ёхуд парчаланган Туркистон тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1998. – Б. 76.

2.28. Назаров М. Х. Коммунистическая партия Туркестана во главе защиты завоеваний Октябрьской революции. – Т., 1969.

2.29. Нурмухаммедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б. 23.

2.30. Очерки истории и педагогической мысли народов СССР (конец XIX – начало XX в.). / Отв. ред. Э.Д.Днепров. – Москва: Педагогика, 1991. – С. 390–398.

2.31. Ражабов Қ., Ҳайдаров М., Туркистон тарихи (1917–1924 й.). – Т., 2002. – 168 б.

2.32. Рахмонов М. Ҳ. Ҳ. Ниёзий ва ўзбек Совет театри. – Т.: Уздавнашр, 1959.

2.33. Ризаев Ш.Т. Ўзбек жаид драматургиясининг шаклланиш манбалари. Филология фан. номз. ... дисс. – Т., 1995.

2.34. Ризаев Ш. Жаид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997. – 320 б.

2.35. Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. – Т.: Маънавият, 2000. – 152 б.

2.36. Саидахмедов И. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т.: Фан, 2006. – 164 б.

2.37. Салижанова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX – начало XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1998. – 32 с.

2.38. Тарих шохидлиги ва сабоклари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Т.: «Шарқ», 2001.

2.39. Тиллабоев С. Б. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Тошкент: Фан, 2008.

2.40. Хрестоматия по истории школы и педагогики в России (до Великой Октябрьской социалистической революции). Составитель и автор вступительных очерков С.Ф.Егоров. Изд. второе переработанное. – Москва, «Просвещение», 1986. – 486 с.

2.41. Шамсутдинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи. – Андижон: Мерос, 1994.

2.42. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. – Андижон: «Andijon nashriyot-matbaa» ОАЖ, 2000. – Б. 235.

2.43. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1- китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – 464 б.

2.44. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2- китоб. – Т.: Шарқ, 2000. – 688.

2.45. Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 128.

2.46. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т., 2002.

2.47. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.

2.48. Ziyoyev N. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Т.: «Sharq», 1998. – 462 b.

2.49. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – Т.: «IQTISOD–MOLIYA», 2006. – 520 b.

2.50. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari). К.2. – Т.: «Sharq», 2010.

III. Davriy matbuot:

3.1. Абдуллаев Р. Туркестанские прогрессисты и национальное движение // «Звезда Востока». 1992, №1. – С. 113–114.

3.2. Аваз Муҳаммад Агтор. Тарихи жаҳоннамои /Форс-тожик тилидан Ш.Воҳидов таржимаси // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1991. – № 8. – Б. 119–137.

3.3. Бобобеков Ҳ. Қўқон хазинаси қаерда? // «Халқ сўзи», 1991 йил, 20 февраль.

3.4. Вяткин В.Л. О долине Зеравшана // «Самарканд», 1904. – № 113.

3.5. Исоқбоев А.А. Фарғона водийсида татар маърифатпарварлари фаолияти хусусида // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2004. -№1. – Б. 41–42.

3.6. История Советской Конституции // Сборник документов. 1917-1957 гг. – М., 1957. – С. 7–8.

3.7. Ким П.Г. Уйдирма ва ҳақиқат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1989 йил 29 октябрь.

3.8. Махкамова Н. К вопросу об уровне просвещенности и культурного развития среднеазиатских государств XIX – начале XX века // Ўзбекистон тарихи, 2000. – №1-2. – С. 17.

3.9. Мустафаева Н. Туркистон маорифи XX асрнинг 20- йиллари муаллифлари назарида // O'zbekiston tarixi, №1. 2004. – Б. 33.

3.10. Муҳаммад Юнус Тойиб. Тарихи Алимқули амирлашкар // Шарк юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 1. – Б. 214–223.

3.11. Муҳаммад Юнус Тойиб. Тарихи Алимқули амирлашкар // Шарк юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 2. – Б. 208–223.

3.12. Насриддинова Д. Маориф ишларини ташкил этишда татар аёллари // Тарих тилга кирганда... Даврий тўплам № 2. – Наманган, 2008. – Б. 32–35.

3.13. Ризаев Ш. Жаҳид маърифатчилиги ва театр // Жаҳидчилик: ислоҳот, янгиладиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. -Т.: Университет, 1999. – Б. 119.

3.14. Салмонов А., Султонов А., Алимова Н., Расулов Б. Чор Россияси мустамлакачилиги даврида марғилондаги мактаб ва мадрасалар аҳволи // «Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси» мавзусидаги республика илмий семинар материаллари. – Фарғона, 2007. – Б. 31–34.

3.15. Тожибоев Р. «Садои Фарғона» – жаҳид матбуоти намунаси // Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиладиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш. – Т.: Маънавият, 2001. – Б. 75–78.

3.16. Тожибоев Р. «Садои Фарғона» – жаҳид матбуоти намунаси // Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиладиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш. – Т.: Маънавият, 2001. – Б. 77.

3.17. Узоқов Ҳ. Ашуралӣ Зоҳирӣ // Гулистон.-1968. -№10 (22). – Б. 28–30.

3.18. Хасанова М. Туркистон мухторияти // Фан ва турмуш. 1990. – Т., № 8-12. – Б. 31–32.

3.19. Холбеков И., Қосимова Т., Хайдаров О. Марғилон шаҳрининг маданий ҳаёти тарихидан (XIX аср охири-XX аср бошлари) // «Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси» мавзусидаги республика илмий семинар материаллари. – Фарғона, 2007. – Б. 40–42.

3.20. Қодиров Н. Н. Туркистонда таълим тизимининг ислоҳоти тарихидан // Ижтимоий-тарихий тараққиёт омиллари. Илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 126–128.

3.21. Қодиров Н. Н. Ўзбекистонда таълим тизимини ислоҳ қилишнинг тарихий босқичлари ва истиқболлари // Миллий ғоя: маънавият ва маърифат. Республика илмий-назарий, амалий услубий конференция материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 228–230.

3.22. Қодиров Н. Н. Туркистонда қишлоқ хўжалиги йўналишидаги касбий таълим // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2007. – № 3. – Б. 116–118.

3.23. Қодиров Н. Н. Туркистонда рус таълим тизимлари // Шарқшунослик. – Тошкент, 2007. – №2. – Б. 64–69.

3.24. Қодиров Н. Н. Тошкент техник темир йўл билим юрти тарихидан // Мозийдан садо. – Тошкент, 2008. – №3. – Б. 34–37.

3.25. Қозоқов Т. Фарғонада жадид мактаблари // Фан ва турмуш. -1998. -№5. – Б. 8–10.

3.26. Хайдаров М. Туркистонда бошқарув аппаратини шакллантиришда Марказлаштириш тамойиллари (1917–1924 йй.) // ТошДУ хабарлари, 1999. №1. – Б. 62–63.